

X. MUHITDINOVA, N. IKROMOVA

O'QITUVCHI KITOBI

**Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning
8- sinfi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
Respublika ta'lim markazi nashrga tavsiya etgan*

TOSHKENT — „ILM-ZIYO“ — 2004

Taqrizchilar: A. Rafiyev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
O. Mo'minova, filologiya fanlari nomzodi.


H 30809
281

M 96 Muhitdinova X.S., Ikromova N.T.

O'qituvchi kitobi: Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 8- sinfi uchun o'quv uslubiy qo'llanma T.: „Ilm-Ziyo“, 2004 — 152 b.

BBK 74. 268. I Uzb.

© „Ilm-Ziyo“ nashriyoti, 2004.



SO'ZBOSHI

Mamlakatimizda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Uzluksiz ta'lif tizimi uchun Davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida“gi qaroriga muvofiq amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lif tizimining ham shaklan, ham mazmunan yangilanishiga olib kelmoqda. Jumladan, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lif tizimida esa bakalavr, magistratura bosqichlarining tashkil etilishi ta'lif mazmunini ham nazariy va metodik jihatdan tubdan o'zgartirishni: barcha o'quv fanlari bo'yicha o'qitishning yangicha usullarini joriy etish, fanlarni intensiv o'rgatishga yordam beradigan dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishdek mas'uliyatli vazifani qo'ydi. Shu borada olib borilgan izlanishlar samarasi sifatida maktab ta'limi tizimida ona tili, shu jumladan, ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablarda davlat tili fanini o'qitish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligining qaroriga muvofiq, 1998—1999- o'quv yilida bir qator ta'lif rus tilida olib boriladigan shahar va viloyat maktablarida maxsus sinov maydonchalari ochilib, bir guruh olimlar, metodist, o'qituvchilar tomonidan „O'zbek tili“ fani bo'yicha yaratilgan va Respublika ta'lif markazi tomonidan 1995- yil 10- iyulda tasdiqlangan yangi dastur asosida tayyorlangan o'quv dasturi sinovdan o'tkazildi. Mazkur dastur kommunikativ-semantik tamoyil asosida tuzilgan bo'lib, unda til sathlari bo'yicha bilim berish va faqat til ~~ta'lif~~minigina o'rgatish emas, balki o'quvchi nutqiy ehtiyojining u yoki bu mavzusi doirasida muayyan mazmun,

ma'noni ifodalashga o'rgatish asosiy maqsad qilib olingan. Buning uchun zarur bo'lgan so'z, so'z birikmalari, gap modellari, ularni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar, nutqiy mavzular, ularga mos matnlar orqali, ya'ni ko'zlangan maqsad mazmunini ifodalovchi til birliklarining amalda qo'llanish xususiyatlarini o'rgatish orqali o'quvchiga singdirilib boriladi, grammatik bilimlar esa asosiy maqsadga yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu darslik ana shu dastur asosida yaratilgan 5—7-sinf darsliklarining davomi bo'lib, unda fonetik, leksik, grammatik va nutqiy bilimlar yagona maqsadga yo'naltirilgan va ma'lum bir nutqiy vazifani bajarishga qaratilgan. Darslikning yangilik tomonlaridan biri shundaki, unda har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga asosiy nutq qurilmalarining namunalari — nutqiy modellar berib boriladi va ularda qo'llaniladigan leksik-grammatik materiallar nutqiy mavzular orqali singdirib boriladi. Pirovard natijada o'quvchilarda ushbu mavzu bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish darajasidagi nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zda tutiladi.

Ma'lumki, har qanday darslikni yaratishda, avvalo, ta'lim uzviyligi tamoyiliga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Keyingi paytlarda uzviylik tamoyiliga bir tomonlama qaralmoqda. Ayniqsa, ta'lim rus tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida, akademik litsey va o'rta maxsus ta'lim kollejlarida o'zbek tilini o'qitishda ko'proq nutqiy mavzulargagina e'tibor berilib, ularning sinfdan sinfga murakkablashib borishigagina ahamiyat qaratilmoqda. Grammatik ma'lumotlarning esa o'zaro bog'lanmagan holda nutqiy mavzuga muvosig'i tanlab berilishi natijasida ko'pincha takror, qaytariqlar yuz berishi hollari ko'p kuzatilmoqda.

Ammo tilning sistema ekanligini, grammatik ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligini aslo unutmaslik lozim. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanini o'qitishda ham grammatik ma'lumotlarni, ham nutqiy mavzularni oddiydan murakkablikka tomon rivojlantirib

borish kerak. O‘quvchi mavzular bayoni bilan bosqichma-bosqich tanishib borar ekan, uning fikri, tafakkuri, nutqi ham o‘sса boradi. Grammatik bilimlarni ham mavzuga bog‘liq ravishda, ayni paytda o‘zaro uzviy aloqada berib borish natijasida esa o‘quvchilarga o‘zbekchada to‘g‘ri fikrlash va ravon so‘zlash imkoniyati yaratiladi.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 13- maydagi 203- sonli qaroriga muvofiq „Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi“ asosida yaratilgan, ammo umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartining tayanch o‘quv rejasidan kelib chiqib, darslik mazmuniga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tayanch o‘quv rejasni davlat ta’lim standartining tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim sohalarini me’yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta’mintoni belgilashga asos bo‘ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o‘quv rejasni har bir fan bo‘yicha ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini belgilaydi va har bir sinfda muayyan o‘quv predmeti bo‘yicha Davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta’lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi. Jumladan, DTS va ushbu o‘quv dasturi tasdiqlangan vaqtida — 1999- yilda ta’lim boshqa til-larda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili darslari haf-tasiga 3 soatdan (o‘quv yili davomida jami 105 soat hajmi-da) o‘qitilar, shuning uchun o‘quv rejasida shunga mos ravishda 21 ta mavzu rejalashtirilgan edi. Biroq tayanch o‘quv rejasining haftasiga 1 soatdan qisqartirilishi natijasida (haftasiga 2 soat) ushbu mavzular ham 30 foizga qisqartirildi, ya’ni 13 ta mavzuga tushirildi. Shuningdek, darslik ustida ishslash jarayonida grammatik ma’lumotlar uzviyligini ta’minlash bo‘yicha mavzuga muvofiqlashtirib beriladigan adabiy o‘qish mavzulariga ham ba’zi o‘zgar-tirishlar kiritilgan.

Nutqiy mavzular o‘quvchilarning yosh xususiyatiga qarab tanlandi va mavzularning o‘tiladigan vaqtini e’tiborga

olib joylashtirildi. Grammatik ma'lumotlar esa ham nutqiy mavzularga bog'liq holda, ham til sathlarining uzviyligidan kelib chiqqan holda muayyan bir tizim asosida berib borildi. Darslikda nutqiy mavzular va grammatik bilimlar o'zaro bog'liq holda quyidagi ruknlarda berilib borildi:

1. Nutqiy mavzu.
2. Nutqiy model (nutqiy qurilmalar).
3. Grammatika.
4. Mashqlar.
5. Savol va topshiriqlar.
6. Yodda tuting.
7. Adabiy o'qish.

Adabiy o'qish uchun tanlangan materiallar: yozuvchi va shoirlarimizning asarlaridan olingan parchalar, rivoyatlar nutqiy mavzuga ham, grammatik materialga ham moslab berishga harakat qilindi.

Rusiyabzon o'quvchilarga o'zbek tili darslarini o'tishda leksik-nutqiy mavzuga ko'proq e'tibor beriladi, o'quvchilar bilan muayyan mavzuda suhbatlar o'tkazish, ularning lug'at boyligini oshirish vositasida o'zbek tilida erkin so'zlasha olishga o'rgatish nazarda tutiladi. Biroq ayni paytda o'quvchilarni to'g'ri gap tuza olish, turli gap konstruksiyalaridan o'rinni foydalana olishga o'rgatish ham kerak. Buning uchun esa grammatik bilim zarur. Shu maqsadda har bir darsda nutqiy modellar — shu darsda o'quvchilarga beriladigan grammatik qoidaga mos gap qoliplari berib boriladi.

Har bir mavzu 4—5 soat o'tilishi nazarda tutilgan, shuning uchun grammatik ma'lumotlar bir yo'la emas, qisqa-qisqa qilib, „Grammatika“ ruknida berib borildi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, grammatik qoidalar ham, mashq topshiriqlari ham faqat o'zbek tilida berildi, bu o'quvchilarning o'zbek tilini yaxshi o'zlashtirishlarini tezlashtiradi. 8- sinf yuqori sinf hisoblanganligi uchun mashqlar asosan bog'lanishli matnlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq deb topildi. Shuningdek, rus tilidan o'zbek tiliga o'girish

uchun tarjima matnlari ham berib borildi. Har bir mavzudagi mashqlar o'zidan keyingi mashqlar bilan mazmun jihatdan bog'liq bo'lib, bu avvalgi mashqlar matnlaridan olingan ma'lumotlarni oson o'zlashtirishga, ayni paytda, avvalgi mashqning mustahkamlanishiga, grammatik va nutqiy malakalarining shakllanib borishiga yordam beradi.

O'quvchilarni matnlar ustida ko'proq ishlatalish, ularni ham grammatik, ham leksik jihatdan tahlil qildirish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirib borish hamda matnlarni so'zlab berishga o'rgatish ularda nutqiy ko'nkmalar hosil qilishga yordam beradi.

8- sinfda har qanday matn ustida ishslash quyidagi jarayonlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Matndagi notanish so'zlarning ma'nolarini tushuntirish (ma'nosini izohlash, sinonimini topdirish, tarjimasini berish).

2. Matnni ifodali o'qitish.

3. Matnni avval qismlarga bo'lib, so'ngra yaxlit holda hikoya qildirish.

4. Matndagi grammatik mavzuga mos konstruksiyalar, grammatik vositalarni aniqlatish va ularning qo'llanishini izohlash.

5. Ma'lum bir grammatik konstruksiyalarni shunga mos keladigan sintaktik konstruksiyalar bilan almashtirib qo'llashga o'rgatish.

Adabiy o'qish mavzularining ham bosh mavzu mazmuniga moslab tanlangani va grammatik ma'lumotlarning mustahkamlab borilishiga qaratilgan savol va topshiriqlarning berilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borishga yordam beradi.

Mashqlar va adabiy o'qish uchun berilgan turli rivoyatlar ham darsning nutqiy mavzusiga, ham grammatik mavzuga muvofiq tarzda tanlandi. Ularda ona-Vatanimizni e'zozlash, mustaqillikni qadrlash va asrab-avaylash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish,

millatlararo totuvlik va bag'ri kenglik g'oyalarini targ'ib etish, ayni paytda, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar orqali o'quvchilarda ijodkorlikni uyg'otish ko'zda tutilgan. Umuman olganda, darslikdagi topshiriqlar DTSning o'rtalumumiyligini ta'limning yuqori sinflariga qo'yilgan talablariga to'liq muvofiq-lashtirilgan.

Adabiy o'qish materiallari uchun darslik so'ngida ilova berilgan bo'lib, unda ayrim yozuvchi, shoirlar haqida qisqa ma'lumot va asarlardan berilgan parchalarning davomi berib borildi. Bu o'quvchilarga savol va topshiriqlarga shu darslikning o'zidan javob topish imkoniyatini beradi. Darslik oxirida o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun qo'shimcha materiallar va adabiy o'qish ruknida berib borilgan asarlar mualliflarining qisqacha tarjimayi holi va asarlardan parcha (yo to'liq, yo biroz kengroq hajmda) hamda o'zbekcha-ruscha lug'at ilova qilindi:

Qo'lingizdagagi „O'qituvchi kitobi“da darslikdagi mavzular darslarga bo'lib berilgan va har bir dars ishlanmalari (jami 64 soat) berilgan. (Izoh: Har chorak oxirida o'tkaziladigan yakuniy yozma ishlar, test sinovlari va o'quv yili oxiridagi takrorlash soatlarining ishlanmalari berilmadi.) Bunda har bir darsdan kuzatilgan ta'limiy-tarbiyaviy maqsad, beriladigan grammatik ma'lumotlar ko'rsatib o'tildi. Har bir dars umumiy mavzudan kelib chiqadigan alohida mavzu bilan nomlandi. Darsdan kuzatilgan ta'limiy-tarbiyaviy maqsad ana shu mavzuga qaratilgan bo'lib, dars ishlanmalarining bu tarzda berilishi darslarni uzviy bog'liqlikda muayyan tizim asosida o'tilishiga yordam beradi. O'qituvchi har bir darsga ijodkorlik bilan yondashishi, darslarni ta'limning interfaol-innovatsion usullaridan foydalangan holda tashkil etishi darkor. Qo'llanmada o'quvchilarni quyi sinflarda egallagan grammatik bilimlarni qo'llashga o'rgatish, muayyan ma'nolarni ifodalash uchun kerak bo'ladigan o'zbek tilidagi gap qurilmalarining sinonimik variantlaridan foydalananish orqali o'quvchilarning

bog'lanishli nutq malakalarini o'stirishga doir ish turlari ham berib borildi. Zarur o'rnlarda ushbu topshiriqlarni bajarish namunalari ham ko'rsatib o'tildi. O'quvchilarning talaffuzini yaxshilash maqsadida talaffuz mashqlari ham berildi. Shuningdek, har bir dars boshida o'quvchilarni uyda, maktabda, shaharda, respublikada, xorijdagi yangiliklar haqida axborot berib borishga o'rgatish o'quvchilarning og'zaki nutqlarini rivojlantirishga, ularning talaffuzini yaxshilashga yordam beradi.

„O'qituvchi kitobi“ o'qituvchilar uchun faqat yo'llanma, xolos. Ijodkor o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha o'tiladigan darslarni yanada samarali va qiziqarli o'tish yo'llarini izlashi va ushbu o'quv qo'llanmani to'ldirishga, takomillashtirishga harakat qilishi, tabiiy. Shuningdek, vaqt nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayrim darslarning o'mini almashtirishi, kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin. Metodik qo'llanmani takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar mammuniyat bilan qabul qilinadi va qo'llanmaning keyingi nashrlarida e'tiborga olinadi.

I MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON — MENING VATANIM



1- DARS

ISTIQLOL DARSI

Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'at boyligini oshirish; ularni gapning bosh bo'laklari: ega va kesim, ularning so'roqlari va gapdag'i o'rni bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni istiqlolni qadrlashga o'rgatish, milliy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining urf-odatlariga bo'lgan mehr-muhabbatlarini orttirish.

Darsning jihozlanishi: „O'zbek tili“ darsligi, lug'at, bugungi O'zbekiston haqida qo'shimcha materiallar, respublikamizning ramzlari: bayrog'i, tamg'asi rasmi va madhiyasi matni, tarqatma kartochkalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: O'zbekiston Respublikasining madhiyasini ijro etish	2 daqiqa
2	Istiqlol va mustaqillik kuni haqida suhbat, o'zaro savol-javoblar	15 daqiqa
3	Yangi mavzu: a) leksik material bilan tanishish; b) „Muqaddas Vatan“ matni ustida ishlash; d) grammatic ma'lumot bilan tanishish; e) mashqlar bajarish	3 daqiqa 10 daqiqa 5 daqiqa 5 daqiqa

4	O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash	4 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash, uygaz vazifa	1 daqiqa

 **Darsning borishi:** darsni O'zbekiston Respublikasining madhiyasini o'quvchilar bilan birgalikda ijro etish bilan boshlash kerak. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar bilan istiqlol va mustaqillik kuni haqida, O'zbekistonimizda mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin bo'lgan o'zgarishlar, respublikamizning davlat ramzları to'g'risida suhbat o'tkazadi. So'ngra o'quvchilarga darslikning 1- betidagi „Muqaddas Vatan“ matni o'qitiladi va matn mazmuni bo'yicha savol-javob qilinadi. O'quvchilarga matn so'ngida berilgan yangi so'zlar va so'z birikmalarini eslab qolishlari uchun matndan foydalangan holda ular ishtirokida gaplar tuzdiriladi.

Shundan so'ng o'quvchilar diqqati grammatik materialga qaratiladi. 1- mavzuda ega va kesim, ularning ifodalanishi, so'roqlari va gapdag'i o'rni haqida ma'lumot beriladi. Bunda o'qituvchi, avvalo, o'zbek tilida eganing ko'pincha gap boshida kelishi haqida tushuncha berib o'tishi zarur. O'quvchilar berilgan nutqiy model va grammatik qoidani o'qib, o'zbek tilida gapning bosh bo'laklari: ega va kesimning qanday so'roqlarga javob berishi va gapdag'i o'rni bilan tanishadilar. 1- mashq bevosita grammatik qoidani mustahkamlashga qaratilgan. O'quvchilar mashq matnida ajratib ko'rsatilgan ega va kesimlarning gapda joylashish tartibiga e'tibor beradilar va ushbu gaplarni o'z ona tillariga o'girish orqali ega va kesimning ruscha gaplardagi o'rnini qiyoslaydilar. Ayni paytda o'quvchilar matn orqali vatanimizda istiqlol yillarda sodir bo'lgan ajoyib o'zgarishlardan biri — istiqlolning 2 yillik to'yi kunlarida Toshkentda qurib bitkazilgan „Turkiston“ saroyi haqida ma'lumot oladilar. Matn so'ngida berilgan savollar yordamida poytaxtimizda istiqlol yillari barpo etilgan yangi saroylar, katta qurilishlar haqida savol-javob tashkil etish

ham mumkin. 2- mashq ham ushbu matnning tadrijiy davomidir. Unda poytaxtimiz Toshkentning markaziy ko'chalaridan biri — Navoiy ko'chasi, u yerda joylashgan go'zal inshootlar haqida ma'lumot beriladi. Biroq mashq topshirig'i endi biroz murakkablashtirilgan. O'quvchilar matnni faqat o'qibgina qolmay, uni so'zlab berishlari, gapning bosh bo'laklari: ega va kesimni esa o'zлari topishlari kerak. Bu vazifa bajartirilgach, o'quvchilar diqqati savol va topshiriqlarga qaratiladi.

Avval muqaddas zaminimiz, uning poytaxti, poytaxtdagi go'zal inshootlar, ko'chalar bilan tanishgan o'quvchilar fikri endi ozod, mustaqil diyorimizning boshqa sarhadlari, uning viloyatlari, boshqa shaharlariga yo'naltiriladi. So'ng o'quvchilar o'zлari tug'ilgan shahar, qishloq, ular yashaydigan ko'cha haqida suhbat tashkil qilinadi. Ana shu tarzda vatanimizning naqadar bepoyonligi, buyukligi, go'zalligini ko'rsatish, ona-Vatanga, o'zi tug'ilib o'sgan joyga nisbatan muhabbat hissini uyg'otish, bizning shu aziz vatanning bir parchasi ekanligimizni ta'kidlash orqali o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, vatanni qadrlashni o'rgatib borish mumkin.

O'tilgan yangi mavzuni takrorlash, mustahkamlash uchun avvalo o'tilgan leksik materialni takrorlash, yangi so'zlar va so'z birikmalari ishtirokida bir necha gaplar tuzdirish, so'ogra o'zbek tilida ega va kesimning ifodalanishi takrorlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda ko'rgazmali vosita sifatida darsga olib kirilgan respublikamizning davlat ramzları: bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz haqida savol-javoblar tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quvchilar tuzgan gaplarning eng yaxshilarini avval doskaga, so'ng daftarga yozdirish hamda grammatik tahlil qildirish kerak.

Dars oxirida suhbat va savol-javoblarda faol qatnashgan har bir o'quvchining bilimini, yutuq va kamchiliklarini e'lon qilgan holda baholash kerak.

Uyga vazifa:

1. Darslikdagi savol va topshiriqlarga yozma javob yozish.

- Grammatik qoidani yod olish.
- „Yozgi ta'tilni qanday o'tkazdim?“ mavzusida suhbatga tayyorlanib kelish va 4—5 gapdan iborat matn tuzib kelish.

Uy vazifasini o'qituvchi, o'quvchilarga tushuntirib berishi, mashqlardagi 1- gapni doskaga albatta yozib ko'rsatishi kerak.



2 - DARS

TOSHKENT – O'ZBEKISTONNING POYTAXTI

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish, ularni mustaqil matn tuzishga o'rnatish; eganing jamlovchi ot, son va olmosh bilan ifodalanishi haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni o'z Vatanlarining davlat tilini, vatanning har bir ramzini hurmat qilishga chaqirish.

Darsning jihozlanishi: darslik, Toshkent shahri haqidagi bukletlar, kitoblar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborotlar	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzu bo'yicha savol-javoblar	7 daqiqa
3	„Yozgi ta'til“ mavzusida suhbat	8 daqiqa
4	Yangi grammatik qoida bilan tanishish	7 daqiqa
5	„Toshkent metrosi“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
6	Savol-javoblar	3 daqiqa
7	„Yodda tuting“ rukni	5 daqiqa
8	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** Darsni o'quvchilarning yangiliklar haqidagi axborotlarini tinglashdan boshlash kerak. 2-3 daqiqa vaqt ichida har bir darsda 3—4 o'quvchidan yangiliklar haqida qisqacha axborot eshitib borish o'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirishda juda ahamiyatlidir.

Avvalgi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash maqsadida uyga berilgan vazifa: 1 - mavzudagi savol va topshiriqlarga yozma javoblar ham o'qitilib, ham parta oralab yurib tekshirib chiqiladi.

Shundan so'ng avvalgi darsda uyga berilgan vazifa: „Men yozgi ta'tilni qanday o'tkazdim“ mavzusiga o'tiladi. O'qituvchi 7—8 o'quvchining tuzib kelgan matnlarini o'qittiradi va ayni paytda ular nutqida uchragan o'ziga xos nutq tovushlari mavjud bo'lgan so'z va so'z birikmalarini, ayniqsa, ular xato talaffuz qilganlarini doskaga (yoki audiotasmaga) yozib boradi. So'ngra matn mazmuni bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar bir-birlariga savollar berishlari va eshitilgan matn bo'yicha savol-javob tashkil etishi ham mumkin. O'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish maqsadida „Yozgi ta'til“ mavzusida ishlatalishi mumkin bo'lgan so'z va so'z birikmalarini ustida ishslash, ularning sinonim variantlari bilan tanishtirish kerak.

dam olmoq, sayr qilmoq, ovqat tayyorlamoq, yordam bermoq, bo'sh vaqtlarda, sayohat qilmoq, diqqatga sazovor joylar, shug'ullanmoq, qaytib kelmoq.

Bu so'zlar bir necha marta takrorlanadi, ularning tarjimasi eslatiladi, so'ngra ular ishtirokida gaplar tuzish orqali o'quvchilar nutqiga singdiriladi.

Shunday tayyorgarlikdan so'ng o'quvchilarga „Yozgi ta'til“ mavzusida uy inshosi yozib kelish topshiriladi. So'ngra o'quvchilar diqqatini o'qituvchi doskaga yoki audiotasmaga qaratadi. Ushbu so'z va so'z birikmalarining to'g'ri talaffuzi aytib ko'rsatiladi va o'quvchilarga birma-bir o'qitib chiqiladi. Bunga bor-yo'g'i 2—3 daqiqa vaqt ketadi, ammo bunday talaffuz mashqlarini muntazam o'tkazib borish o'quvchilarning nutqiy malakalarini shakllantirishda juda muhim va samaralidir.

So'ngra darslikning 6- betidagi grammatik qoida yordamida o'quvchilarga o'zbek tilida ega va kesimning ifodalanishi misollar vositasida tushuntiriladi. Bunda o'quvchilarning so'z turkumlari, kelishik kategoriyasini haqida quyisinfarda olgan bilimlarini yodga tushirish, aynan ot, olmosh, fe'l so'z turkumlarining xususiyatlarini eslatib o'tish zarur. Ushbu qoida darslikdagi 5- mashq yordamida mustahkamlanadi. O'quvchilar 5- mashq topshirig'iga ko'ra „Toshkent metrosi“ matnini o'qiydilar, har bir gapning bosh bo'laklarini topib, ularning qaysi so'z turkumlari bilan ifodalananayotganligini aytib beradilar. Mashq so'ngida berilgan savollarga javob berish o'quvchilar bilim darajasiga bog'liq. Ma'lumki, o'zbek oilalarining farzandlari ham rus mакtablarida tahsil olyaptilar. Shunday kuchli guruhi bor joyda, bemalol, 1—2-savolga javob talab qilish mumkin. Biroq agar guruhi kuchsizroq bo'lsa, faqat 3- savol bilan chegaralanish ham mumkin. 4- mashq ushbu matndan foydalaniб bajartiriladi. O'quvchilar „Toshkent metrosi“ matnidagi ma'lumotlardan foydalaniб, nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'ygan holda gaplarni to'ldirib ko'chiradilar, so'ngra har bir gapga o'zlarini savol tuzadilar.

Bu darsda o'quvchilar o'zbek tilida eganing jamlab ifodalanishi haqida ma'lumot beruvchi grammatik ma'lumot bilan tanishadilar. O'quvchilar quyisinfarda otlarning birlik va ko'plik shakllari bilan tanishganlar. Bu sinfda esa ularga jamlovchi otlarning ega vazifasini bajarganda kesim bilan birlik sonda moslashishi, o'zbek tilida *hamma keldilar* emas, *hamma keldi* deyilishi to'g'ri ekanligi haqida ma'lumot beriladi. O'z-o'zidan ma'lumki, rusiyabon o'quvchilar o'z ona tillari ta'sirida ko'pincha bunday jamlikni bildiruvchi so'zlarni kesim bilan ko'plik sonda moslab aytadilar. Qiyoslang:

Rus tilida

O'zbek tilida to'g'ri

Xato

Все пришли

Hamma keldi

Hamma keldilar

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida ot, son, olmosh so'z turkumlaridagi jamlikni ifodalovchi so'zlar berilgan. O'quvchilarga „Yodda tuting“ rukni va jamlikni ifodalovchi so'zlar ovoz chiqarib o'qitiladi.

O'quvchilarning bilimini baholab bo'lgach, uy vazifasi beriladi.

☞ **Uyga vazifa:** „Yozgi ta'til“ mavzusida insho yozish.
6- mashqni namunadagidek bajarish.



3 - DARS

O'ZBEK XALQI – BOLAJON XALQ

📘 **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish; berilgan matnni to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish; gaplarda uyushgan va uyushmagan egalarning qo'llanishi, ularda umumlashtiruvchi so'zlarning qo'llanishi bilan o'quvchilarni tanishtirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni o'zbek xalqining urf-odatlari, an'analarini bilan yaqindan tanish-tirish, ularga hurmat bilan qarashga o'rgatish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** „O'zbek tili“ darsligi, tarqatma kartochkalar, mavzuga oid qo'shimcha materiallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism Yangiliklar haqida axborotlar	3 daqiqa
2	Uy vazifasi (uy inshosi)ni o'qitish	10 daqiqa
3	Talaffuz mashqlari	2 daqiqa
4	O'tilgan grammatik qoidani takrorlash	6 daqiqa
5	Yangi grammatik ma'lumot	7 daqiqa

6	Yangi mavzuni mustahkamlash: „O'zbek xalqi — bolajon xalq“ matni ustida ishlash	15 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Yangiliklar haqida 6—7 o'quvchidan axborotlar eshitish.

Bunda albatta o'quvchilarning og'zaki nutqidagi xatolar tuzatib borilishi hamda tezkorlikka va takrorlar bo'lmasligiga e'tibor berilishi shart.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash: uy vazifasini tekshirish. O'qituvchi o'quvchilarga uy insholarini o'qitadi va ayni paytda parta oralab yurib, o'quvchilarning inshosini qanday yozganliklarini ham ko'rib chiqishi kerak. Barcha o'quvchilarga bittadan gapni o'qib, tahlil qildiriladi va tuzgan gaplarining ega va kesimi qanday ifodalangani, qanday joylashganini so'rash orqali o'tilgan grammatik mavzular takrorlab chiqiladi.

3. Talaffuz mashqlar:

Har bir darsda o'quvchilarning talaffuzini yaxshilash maqsadida talaffuz mashqi o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan, „q“ va „k“ tovushlarining talaffuziga e'tibor berib quyidagi so'zлarni o'qitish lozim:

„Q“	„K“
<i>mustaqil</i>	<i>kichik</i>
<i>istiqlol</i>	<i>katta</i>
<i>qoida</i>	<i>kamtar</i>
<i>qanot</i>	<i>kasb</i>

Bu so'zlar ishtirokida mavzuga oid bir necha gaplar ham tuzdiriladi.

4. O'tilgan grammatik qoidani takrorlash.

Ma'lumki, hamma o'z fikrini, avvalo, ona tilida ifodaydi, so'ng boshqa tilga o'giradi. Rus tilida umum-

lashtiruvchi so'z ko'plik sonda keladi va kesim ham ularga mos holda ko'plikda keladi. O'zbek tilida esa jamlikni ifodalovchi so'zlar predmetni ifodalaganda ega ham, kesim ham shakl jihatdan birlik sonda qo'llanadi. Ushbu grammatic ma'lumotni mustahkamlash uchun avval 7- mashq bajartiriladi.

5. Grammatika bo'yicha yangi ma'lumot — ega va kesim hamda boshqa bo'laklarning uyushgan holda qo'llanishi haqida tushuncha berilar ekan, ko'pincha uyushiq bo'laklar bilan birga keladigan umumlashtiruvchi so'zlarning jamlikni ifodalovchi so'zlar bilan ifodalanishiga va ularning kesim bilan shaxs-sonda moslashishiga e'tiborni qaratishi lozim. Bu, birinchidan, o'tilganlarni mustahkamlashga, ikkinchidan esa, rusiyabon o'quvchilarga o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatini tushunib olishlariga yordam beradi va xatoga yo'l qo'yilishining oldini oladi.

6. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Ushbu darsda 8- mashq sifatida berilgan „O'zbek xalqi — bolajon xalq“ matni ustida ishni quyidagicha tashkil etish mumkin:

1) avval matn o'qitiladi. Bunda uning mazmuniga e'tiborni ko'proq qaratish uchun abzaslarga bo'lgan holda 2 o'quvchiga o'qitgan ma'qul.

2) lug'at ishi. Ushbu leksik material bilan o'quvchilar tanishtiriladi:

<i>muqaddas</i> — священный	<i>farzand</i> — ребёнок, дитя
<i>istamoq</i> — хотеть	<i>egizak</i> — близнецы
<i>o'xshamoq</i> — быть похожим	<i>bo'y</i> — рост
<i>barobar</i> — равный, одинаковый	<i>yuvosh</i> — спокойный
<i>sho'x</i> — озорной	<i>ahil</i> — дружный

Notanish so'zlar o'quvchilarning lug'at daftarlariiga yozdiriladi, so'ngra ularning har birini talaffuziga e'tibor berib o'qitiladi, ularni bir necha marta o'zbek va rus tilida takrorlatish, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzdirish kerak bo'ladi.

Namuna: *muqaddas Vatan, mehribon farzand, ahil aka-uka, opa-singil, Fotima va Zuhraning bo'yłari barobar.*

3) so'ng matn oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob beriladi. Bunda 1- topshiriq: matn asosida savollar tuzishda quyidagicha savollar berish mumkin:

- O'zbek xalqi nima uchun farzandlari ko'p bo'lishini istaydi?
- Egizak farzandlarga qanday ism qo'yiladi?
- Egizaklar qanday kiyinishadi?
- Ular qaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi?
- Egizaklarni siz qanday ajratasiz? kabi.

Ushbu matn ustida ishslash o'quvchilarda qiziqish hosil qilishi tabiiy. Shuning uchun o'quvchilarga „Egizaklar“ mavzusida ijodiy matn tuzib kelishni uya vazifa sifatida topshirish ham mumkin.

7. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar bilimi baho-langach, uy vazifasi topshiriladi.

Uya vazifa:

- 1) matn mazmunini og'zaki so'zlab berish.
- 2) „Egizaklar“ mavzusida mustaqil matn tuzish.
- 3) 19- mashqdagagi tarjima matni ustida ishslash.



4 - DARS

MUQADDAS VATANIM

 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarning o'zbek tiliga qiziqishlarini uyg'otish; ularni o'zbek xalqining taniqli shoir va yozuvchilari bilan tanishtirish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda o'zi tug'ilib o'sgan yurt bilan faxrlanish hissini uyg'otish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, H.Olimjonning tanlangan asarlari, tarqatma kartochkalar, O'zbekistonni tasvirlovchi rasmlar, grammatik va fonetik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism a) yangiliklar haqida axborot b) savol-javoblar	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
3	O'tilgan mavzuni takrorlash va tarjima matni ustida ishlash	5 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot	5 daqiqa
5	Mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
6	Yozuv mashqi	7 daqiqa
7	„Vatanim“ qo'shig'ini tinglash	3 daqiqa
8	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqida o'quvchilarning axborotini tinglash.

2. Savol-javoblar. Bir yoki ikki o'quvchi doskaga chiqib, o'tirgan o'quvchilarga navbatma-navbat savol beradilar. Savollar o'tilgan mavzular bo'yicha yoki o'quvchilarning oilaviy ahvoli haqida bo'lishi mumkin.

Masalan: *Siz(sen) qayerda yashaysiz(san)? Oilangiz kattami? Oilangizda necha kishi bor? Qo'shnilaringiz kimlar? Oilangizda yoki yaqin tanishlarining orasida egizaklar bormi? Ularni qanday ajratasisz? va h. k.*

3. Uy vazifasini tekshirish, o'quvchilarning bilimini baholash; „O'zbek xalqi — bolajon xalq“ matni bo'yicha bir necha savollar berish, o'zaro suhbatlashish.

4. O'tilgan mavzuni mustahkamlash: 9- mashqni tekshirish, tarjimasi qiyin bo'lgan gaplarni birgalikda tarjima qilishga yordam berish kerak. Avval tarjimanini gapma-gap qilish, so'ng matn mazmunini to'liq o'zbek tilida so'zlab berish kerak bo'ladi.

4. Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish:

Ega va kesimning oddiy gapdag'i va she'riy asarlardagi o'rni haqida ma'lumot berish.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash: „O'zbekiston“ she'ri“. Avval „O'zbekiston“ she'rida uchragan notanish so'zlar lug'at daftariга yozdiriladi (tarjimasini o'quvchilarning o'zlari topishlari kerak). So'ngra ushbu so'z va iboralar bir necha bor takrorlatiladi. Shundan so'ng „O'zbekiston“, she'ridan keltirilgan parchani o'qituvchining o'zi ifodali o'qib berishi kerak. So'ngra she'r o'quvchilarga o'qitiladi, ega va kesimning gaplardagi o'rniiga e'tibor qaratiladi.

6. Yozuv mashqi. O'quvchilar she'rda inversiyaga uchragan ega va kesimni to'g'ri tartibda daftarlari ko'chirib yozadilar.

Namuna: *Boshlanadi ish. — Ish boshlanadi.*

Boshlanadi ijod va turmush. — Ijod va turmush boshlanadi.

Bir yoki ikki o'quvchi bu ishni doskada hajarishi ham mumkin. Shuningdek, jamlikni ifodalovchi so'zlarni aniqlash va qo'llanishini ko'rsatish ham o'tilgan mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

7. Adabiy o'qish uchun berilgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning „Vatanim“ she'rini avval audio-kassetada qo'yib eshittirish, so'ngra she'r matni ustida ishlatish maqsadga muvofiq. O'quvchilar qo'shiqni eshitish jarayonida darslikda berilgan she'r satrlarini birgalikda past ovozda takrorlab borishlari ham mumkin. Bu ish tugallangach, o'qituvchi she'rning umumiyligi mazmuni, shoirdagi vatanparvarlikning naqadar oddiy, ayni vaqtida yuksak tarzda ifodalanganligi, shu muqaddas ona-zaminimizdagi har bir tosh, har bir barg ham shu aziz Vatanning bir parchasi ekanligi, shuning uchun ularni qadrlashimiz kerakligi haqida gapirib, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini Vatanimizning ulug'ligini asrash, ardoqlash zarurligiga qaratadi.

8. *Uyga vazifa:*

- 1) she'rni yod olish, notanish so'zlar ustida ishlash, she'r so'ngida berilgan savol va topshiriqlarni bajarib kelish.
- 2) „Men yashaydigan joy“ mavzusiga tayyorlanib kelish.



5 - DARS

O'tilganlarni takrorlash „MEN YASHAYDIGAN JOY“ MAVZUSIDA YOZMA ISH



Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning yozma nutqlarini o'stirish, imlo savodxonligini mustahkamlash.



Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda o'z yurtiga sadoqatli bo'lish, Vatani bilan faxrlanish, xalqini e'zozlash tuyg'ularini shakllantirish.



Darsning borishi: ushbu dars „Mustaqil O'zbekiston — Vatanim“ mavzusi bo'yicha o'tiladigan yakunlovchi darsdir. Dars boshida o'tilganlar bo'yicha savol-javoblar asosida suhbat uyushtiriladi, 2—3 ta o'quvchiga „Men yashaydigan joy (shahar, qishloq, ko'cha, mahalla)“ mavzusida gapirtiradi. So'ng o'quvchilarga shu mavzuda ijodiy yozma ish yozish topshiriladi.

O'quvchilar ushbu ijodiy yozma ishni yozishda o'tilgan mavzular va matnlardan foydalanishlari nazarda tutilgan.

II MAVZU: BILIM BAXT KELTIRAR



6 - DARS

OLIM KIM?



Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga bilimning foydasi, ilm olishning natijalari haqida tushuncha berish; eganing birikmali ifodalananishi to'g'risidagi grammatik qoida bilan tanishtirish.

 **Darsning tarbiyaviy magsadi:** ilm haqidagi maqolalarning mohiyatini tushuntirish orqali o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishlarini orttirish; mustaqil fikrلashga intilishni, ijodkorlik ruhini uyg'otish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, buyuk allomalarning suratlari, iqtidorli talaba-o'quvchilar haqidagi maqola va fotosuratlar yoki videolavhalar.

Darsning blok chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	„Salom, maktab“ she'ri bilan tanishish	3 daqiqa
2	Savollar asosida suhbat	5 daqiqa
3	„Olim kim?“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
4	Mustaqil ish	7 daqiqa
5	„Vatanim“ she'rini yoddan ayttirish	8 daqiqa
6	Yangi grammatik ma'lumot	5 daqiqa
7	Mustahkamlash mashqlari	5 daqiqa
8	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars Maqsud Shayxzodanining „Salom, maktab!“, she'rini ifodali o'qitish bilan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi barcha bilimlarning beshigi mакtab, kaliti esa til ekanligini, shuning uchun qancha ko'p til bilsak, shuncha ko'p bilimga ega bo'lish mumkinligi haqida so'zlab, she'r so'ngida berilgan savollar yordamida bilimlar kuni, o'zbek xalqining buyuk allomalari, olimlari haqida kichik suhbat tashkil etadi.

So'ng mustaqil ish tashkil etiladi. Buning uchun „Mustaqillik kuni“, „Bizning oilamiz“, „O'zbek xalqi — bolajon xalq“ mavzularida o'quvchilar 3 variantga bo'linib, daftarlariiga 3 tadan gap tuzadilar. Bu ishga 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Mustaqil ish natijalari va uyga berilgan vazifalar bo'yicha o'quvchilar bilimi tekshirib baholanadi.

Uy vazifasini tekshirish: „O'zbekiston“ she'riни yoddan aytirish; Muhammad Yusufning „Vatanim“ she'ri bo'yicha savol va topshiriqlarga javoblarni so'rash.

Yangi mavzuni tushuntirish 11- mashqdagи „Olim kim?“ matni bo'yicha notanish so'zlarni lug'at daftariга yozdirishdan boshlanadi. Matn o'quvchilarga o'qitiladi, so'ngra o'qituvchi o'quvchilardan matndagi quyidagi so'zlarni o'zbek tilida aytishlarini so'rashi kerak: учёный, природа, общество, связано, событие, итог, будущее поколение, бесценный, идея, клад, мудрец, отрасль, заниматься, энциклопедист, восток, фундамент, открытие, развитие, труд.

O'qituvchi bu so'zlarni o'qiydi, o'quvchilar esa ularni matndan topadilar.

So'ngra matnga bir necha savol tuzdiriladi va matndan javobi topib o'qitiladi. O'quvchilar ushbu matn orqali qanday insonlar olim deb atalishi, bilimlar xazinasi bo'lmish kitoblar olimlarning mashaqqatli mehnati bilan yaratilishi, o'zbek xalqining buyuk donishmand allomalari haqida bilib oladilar. Mashq topshirig'iga ko'ra har bir gapning bosh bo'laklari — egasi va kesimini aniqlab chiqish va matn so'ngidagi savollarga javob berish bu ma'lumotlarni yanada mustahkamlaydi.

Grammatika bo'yicha ushbu darsda eganing birikmali ifodalanishi haqidagi ma'lumot berilgan. O'quvchilar avval darslikning 14- betidagi qoida bilan tanishtiriladi. Ushbu ma'lumotni mustahkamlash uchun 13- mashqni bajartirish maqsadga muvofiq. Mashqda birikmali egalar ajratib ko'rsatilgan bo'lgani uchun o'quvchilar uni og'zaki bajaradilar. O'quvchilarga gaplarning kesimlarini ham aniqlatib, har bir gapning yig'iq shaklini daftarga yozib borish topshirilishi ham mumkin.

„Bilib oling“ ruknida berilgan tarixiy sanalar bir necha marta takrorlab o'qitiladi.

☞ **Uyga vazifa:** ushbu sanalarni yodlab kelish va 12- mashqni yozma bajarish uyga vazifa qilib topshiriladi. Bunda o'quvchilarga mashq shartiga ko'ra avval bilim haqidagi,

so‘ngra mehnat haqidagi maqollarni ajratib yozish zarurligi tushuntirib berilishi kerak.



7 - DARS

INSON QADRI BILIMDA

Darsning ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarga ilm mas-kanlari haqida va qisqartma ot haqida ma’lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: bilim baxt keltirishini o‘quvchilarning ongiga singdirish, ularni bilim cho‘qqilarini egallashga chorlash.

Darsning jihozlanishi: darslik, eshitish matni, lug‘at, O‘zbekistonning daryo va tog‘lari haqidagi rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism a) yangiliklar haqida axborotlar b) talaffuz mashqi	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	5 daqiqa
3	Eshitish matni va qayta hikoyalash	8 daqiqa
4	Yangi grammatik ma’lumot	7 daqiqa
5	Mustahkamlash mashqlari	8 daqiqa
6	Mustaqil ish	10 daqiqa
7	O‘quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Avvalo vatanimizda, chet elda, shahrimiz yoki tumanimizda bo‘layotgan voqeа-hodisalar haqida axborot tinglash.

2. Fonetik mashqlar: „o“ va „o“ tovushlarining talaffuzi ustida ishlash.

„o“	„o“
o't	ot
o'r	or
o'z	oz
o'ra	ora

3. Uy vazifasini tekshirish va o'quvchilar bilimini baholash.

4. Eshitish matni. O'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun iqtidorli tengdoshlar: talabalar, o'quvchilar haqidagi videolavha namoyish qilish yoki maqolani o'qib eshittirish. O'qib eshittirilgan matnni o'quvchilar tushunib qayta so'zlay bilishlari kerak.

5. Yangi grammatik ma'lumot. O'quvchilarни qisqartirilgan otlar, tashkilotlar, joylarning nomlari qanday yozilishi haqidagi grammatik qoida bilan tanishtirish va ushbu qoidani mustahkamlash uchun darslikdagi 14- mashq topshiriqlarini bajartirish kerak.

15-mashqdan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin, chunki ushbu mashq topshiriqlari o'quvchilarning yozma nutqlarini yaxshilashga, imlo qoidalarini o'zlashtirish darajalarini aniqlashga qaratilgan. Ayni paytda o'quvchilar ushbu matn yordamida o'lkashunoslik fanidan olgan bilimlarini ham esga tushiradilar, Vatanimiz sarhadlari, daryo va tog'lari, vodiylari haqida suhbatlashadilar. Bu o'rinda rasm asosida yoki yozgi ta'tilda borilgan joylar haqida suhbat tashkil qilish ham mumkin.

☞ *Uya vazifa:* 16- mashqdagagi jadvalni to'ldirib kelish topshirilishi mumkin.



8 - DARS

INSON QADRI BILIMDA

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarni „Inson qadri bilimda“ matni bilan tanishtirish; o'quvchilarga otlashgan egalar, o'zbek tilida ularning qo'llanish xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga bilim dunyoni bilish kaliti ekanligini, bilimli odamlarning hamisha qadri yuksak bo'lishini tushuntirish orqali ilm olishga intilishni kuchaytirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, buyuk allomalarining suratlari.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborotlar	5 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash va baholash	8 daqiqa
3	Yangi grammatik ma'lumot	10 daqiqa
4	„Inson qadri bilmada“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
5	O'tilganlarni takrorlash (mustaqil ish)	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** O'quvchilar tomonidan yangiliklar haqidagi axborot eshitilib, uy vazifasi tekshirib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilar diqqatini darslikning 17- betidagi grammatik ma'lumotga qaratadi va o'zbek tilida boshqa so'z turkumlaridagi so'zlar ko'pincha ot o'rniда kelib, gapda ega vazifasida kelishi mumkinligini tushuntiradi. Bu o'rinda shunga alohida e'tibor berish kerakki, sifat, son, sifatdosh kabi so'zlarning ot o'rniда kelib otlashishi hodisasi o'zbek tilida rus tilidagidan boshqacharoqdir. Rus tilida otga bog'lanib keladigan barcha so'zlar moslashuv aloqasida bog'lanadi va son, kelishik, jins bo'yicha otga mos qo'shimchalarni olib keladi. Shuning uchun gapda ot tushib qolganda ham unga bog'langan so'zlar shaklan o'zgarmay qolaveradi. O'zbek tilida esa otga bog'lanib keladigan so'zlar bitishuv aloqasida bo'lgani uchun, ular faqat ot tushib qolgandagina, unga xos qo'shimchalarni olib kela oladi.

Misollarni qiyoslaylik:

Rus tilida

Больные люди *qanday?*
больные *kim?*

O'zbek tilida

kasal odamlar
kasallar

O'qituvchi rusiyabon o'quvchilarga o'zbek tilining ana shu o'ziga xos xususiyatini tushuntirib berishi kerak, aks holda o'quvchilar o'z ona tili bo'l mish rus tili ta'sirida ko'p xatoga yo'l qo'yadilar. Bu grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 19- mashq bajartiriladi.

So'ngra „Inson qadri bilimda“ matniga oid notanish so'zlar lug'at daftariiga yozdiriladi:

<i>aql-idrok</i> — сознание	<i>bilim</i> — знание
<i>qadr</i> — цена	<i>qiyingchilik</i> — трудность
<i>yengmoq</i> — побеждать, побороть	<i>yaramas</i> — годный
<i>tiyib turmoq</i> — удерживать	<i>hamisha</i> — всегда
<i>katta martaba</i> — высокая должность	<i>farog'at</i> — спокойствие, досуг

Bu so'zlarni har bir tovushning talafuziga e'tibor berib o'qitish, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzdirish mumkin.

Matn bilan tanishish quyidagicha amalga oshiriladi:

- matn bir necha o'quvchilarga o'qitiladi, 3—4 o'quvchiga mazmuni so'zlatiladi;
- matn asosida bir necha savol berib o'zaro suhbat tashkil qilinadi.

O'tilganlarni takrorlash, mustahkamlash uchun darslikdagi 18- mashqdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu mashqni mustaqil ish sifatida topshirish, tez va yaxshi bajargan o'quvchilarni baholab chiqish kerak.

☞ *Uyga vazifa* sifatida 20- mashqdagi matnni o'zbek tiliga o'girish va Q. Muhammadiyning „Kitob bizniki“ she'rini yod olish topshiriladi.



9 - D A R S

KITOB O'QISHNING HIKMATI

Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, nutqiy ko'nikmalar hosil qilish; sodda va qo'shma gaplarning o'zaro sinonim bo'lib qo'llanishini tushuntirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Darsning jihozlanishi: darslik, Ibn Sino rasmi, M. Qorievning „Abu Ali ibn Sino“ nomli romani, fonetik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborotlar	3 daqiqa
2	Talaffuz mashqi	2 daqiqa
3	Uy vazifasini tekshirish va baholash	15 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot	10 daqiqa
5	Savol-javoblar yordamida o'tilgan darsni mustahkamlash	8 daqiqa
6	Lug'at ishi	5 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqida axborot.
2. Talaffuz mashqi: „j“, tovushining talaffuzi. O'quvchilarga o'zbek tilidagi „j“, harfi 2 xil talaffuz etilishi, ya'ni rus tilidagi kabi sirg'aluvchi tovushni, shuningdek, portlovchi-sirg'aluvchi qorishiq „j“ tovushini ham ifodalashi tushuntirilib, ular quyidagi misollar yordamida qiyoslab ayttiriladi.

sirg'aluvchi „j“
jurnal

qorishiq „j“
jonajon

ajdar
jyuri

judä
ajdod

Rusiyabzon o'quvchilarga o'zbek tilidagi farqli tovushlar talaffuzini o'rgatib borish uchun shu tarzda o'ziga xos nutq tovushlari bo'yicha talaffuz mashqlari o'tkazib turish yaxshi natija beradi.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash. O'quvchilarga uyga vazifa qilib topshirilgan o'zbekcha matnning rus tiliga o'girilgan tarjimasini o'qitib tekshiriladi, xatolar tushuntirib to'g'rilanadi. So'ngra „Kitob bizni“ she'ri yoddan ayttiriladi. „Inson qadri bilimda“ matnining mazmuni bo'yicha savolvavob tashkil qilinadi.

4. O'qituvchi yangi grammatik ma'lumot — nutq bajaruvchisi qo'shma gaplar orqali ham ifodalaniishi mumkinligi, bunday qo'shma gaplar nutqda ko'pincha sodda gaplardagi otlashgan sifatdoshli birikmalarga sinonim bo'lib qo'llanishini tushuntiradi. O'quvchilar darslikda berilgan grammatik qoidani o'qib, keltirilgan misollar bilan tanishib chiqadilar.

5. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'qituvchi ushbu grammatik ma'lumotni va bilim haqida o'tilganlarni takrorlashga qaratilgan quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi:

1. Qanday odamlar bilimdon, donishmand bo'ladilar?
2. Ko'p bilim olgan kishi nimalarga erishadi?
3. Bilimlarning kaliti nimada?
4. Siz qaysi fanlarni yaxshi ko'rasiz?
5. Chuqur bilim olish uchun nima qilish kerak?

Ushbu savollarga 2 xil variantda javob berish tashkil qilinadi.

N a m u n a :

*Chuqur bilimga ega bo'lgan kishilar bilimdon deb ataladi.
Kim chuqur bilimga ega bo'lsa, o'sha bilimdon bo'jadi.*

Ko'p bilim egallagan kishilar xalq hurmatiga, e'tiboriga sazovor bo'ladilar. Kimki ko'p bilimga ega bo'lsa, o'sha xalq hurmatiga sazovor bo'jadi.

Bunday ish turlari o'quvchilarning nutqini boyitishga, o'zbek tilidagi sinonimik nutqiy konstruksiyalarni bilib olish va ulardan nutqda o'rinci foydalanishga yordam beradi.

6. O'quvchilarga adabiy o'qish uchun berilgan „Kitob o'qishning hikmati“ matni 1 va 2- abzasi o'qitiladi. O'qituvchi matnda uchragan notanish so'zlarni o'quvchilarga tanishtirib borishi, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzdirish orqali ushbu so'zlarni o'quvchilar nutqiga kiritishga harakat qilishi kerak. Bunda matn oxirida berilgan lug'atdan ham foydalanish mumkin. Kuchliroq guruhlarda matnga bir necha savol tuzish, o'zaro suhbat tashkil qilish.

7. O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa berish.

☞ **Uyga vazifa:** 1. Matnning 2- qismini o'qish, mazmunini so'zlab berish.

2. Adabiy o'qish oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob tayyorlab kelish.

III MAVZU: PAXTA - MILLIY BOYLIGIMIZ



10 - DARS

OLTIN KUZ

📘 **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish; lug'at boyligini oshirish.

◊ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otish.

㉑ **Darsning jihozlanishi:** kuz fasli, meva va sabzavotlar pishgan davrni tasvirlovchi rasmlar, darslik, fonetik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism a) yangiliklar haqida axborot b) talaffuz mashqi	5 daqiqa

2	Xatolar ustida ishlash	10 daqiqa
3	„Oltin kuz“ she'ri ni ifodali o'qish	8 daqiqa
4	Lug'at ustida ishlash	5 daqiqa
5	Kuz fasli haqida matn tuzish	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uygavazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: dars o'tkazilgan yozma ish bo'yicha xatolar ustida ish olib borish, yozma ishni tahlil qilishdan boshlanadi. So'ngra talaffuz mashqlari uchun doskaga quyidagi so'zlar yozilgan fonetik jadval ilinadi.

O'quvchilarga bu so'zlar to'g'ri talaffuz bilan o'qitiladi va ular ishtirokida so'z birikmalarini va gaplar tuzdiriladi.

„H“	„X“
<i>hosil</i>	<i>paxta</i>
<i>behi</i>	<i>xirmon</i>
<i>behad</i>	<i>xorij</i>
<i>jahon</i>	<i>xom ashyo</i>
<i>hamma</i>	<i>xato</i>

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga o'zbek tilida „h“ va „x“ tovushlarining talaffuzida farq bor ekanligini tushuntirishi, ya'ni „h“ tovushi yumshoq, „x“ tovushi esa qattiq talaffuz etilishini ta'kidlab, so'zlarni avval o'zi o'qib berishi, so'ngra shu so'zlarni o'quvchilarga o'qitishi va, albatta, noto'g'ri o'qisalar, ularning xatolarini tuzatib borishi kerak.

So'ngra doskaga yangi mavzu yoziladi. „Oltin kuz“ she'ri.

O'qituvchi shoira Zulfiyaning darslikda berilgan „Oltin kuz“ she'ri ni avval o'zi ifodali o'qiydi, so'ngra 2—3 o'quvchiga ovoz chiqarib o'qitadi. „Oltin kuz“ she'rida uchragan quyidagi yangi so'z va birikmalar o'quvchilarning lug'at daftariga yozdiriladi.

rangdor — цветной, красочный

yaproq — лист (растения)

yumshoq — мягкий

rang-barang — разноцветный

yayratoq — чувствовать себя свободным

porlamoq — блестеть, сиять

momiq — пух (перен. -мягкий, нежный)

engni shimarminoq — засучить рукава

xirmon — хирман, гумно, ток

nash'a — удовольствие, наслаждение

behad — безгранично

qavarmoq — покрываться мозолями

Bu so'zlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzdirish ham mumkin. So'ngra she'ming qisqacha mazmuni so'zlatiladi. Ayni vaqtida o'qituvchi she'r satrlari orqali o'quvchilar diqqatini darslikdagi paxtazor tasviriga qaratadi va berilgan savol va topshiriqlar yordamida suhbat tashkil etadi. Topshiriqqa binoan o'quvchilar 3 guruuhga bo'linib, kuz fasli haqida matn tuzadilar va har bir guruuh o'zлari tuzgan matnni so'zlab beradilar.

 *Uyga vazifa:* „Oltin kuz“ she'rini yod olish, yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzib kelish.

11 - DARS

PAXTA — BIZNING BOYLIGIMIZ



Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish; mehnat haqidagi maqollar bilan tanishtirish.



Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni mehnatsevar bo'lishga chaqirish.



Darsning jihozlanishi: darslik, paxta haqida qo'shimcha materiallar, g'o'za tupi (paxtasi bilan), eshitish matni.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Eshitish mashqi	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
3	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
4	„Paxta — bizning boyligimiz“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
5	Yozma topshiriq	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uygva vazifa	5 daqiqa

Darsning borishi:

1. Ushbu darsni eshitish mashqidan boshlash mumkin. Buning uchun quyidagi matn o'qib eshittiriladi.

Namuna: „Kecha bizning maktabimizda shaxmat bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Musobaqada 8—9- sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Bu musobaqada 8- „A“ sinf o'quvchisi Ivanov Sasha birinchilikni qo'lga kiritdi. Sinfdoshlari Sashani bu yutuq bilan tabrikladilar.“

O'qituvchi matnda ajratilgan so'zlarning mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi, so'ngra bu matnni o'qib eshittiradi. O'quvchilar eshitganlarini rus tiliga tarjima qiladilar, so'ngra o'zaro savol-javob o'tkazishlari mumkin.

2. Uy vazifasini tekshirish uchun:

a) 5—6 nafar o'quvchiga uygva berilgan she'rni o'qitish, uning mazmunini so'zlatish;

b) yangi so'zlar ishtirokida tuzilgan gaplarni o'quvchilarning daftarlardidan tekshirib chiqish;

d) lug'atlarini ko'zdan kechirish mumkin.

Shundan so'ng o'qituvchi paxta bizning asosiy boyligimiz ekanligi, paxtachilik kasbi va uning qadr-qimmati haqida so'zlab, o'quvchilarni 23- mashqda berilgan „Paxta — bizning boyligimiz“ matni bilan tanishtiradi. Ushbu matn ustida ishlashni quyidagicha tashkil etish mumkin:

Avval matn ovoz chiqarib o'qitiladi, notanish so'zlar aniqlanib, lug'at daftariga yozib olinadi, matndagi har bir gapning bosh bo'laklari aniqlab chiqiladi. So'ngra matnga berilgan savollarga og'zaki javob beriladi. Shu tarzda o'quvchilarga matn mazmuni singdirilgach, darslikdagi 24-mashqni yozma bajarish topshiriladi. **N a m u n a :**
O'zbekiston — juda boy mamlakat. Paxta — bizning boyligimiz kabi.

☞ **Uyga vazifa** sifatida darslikning 24- betidagi mehnat haqidagi maqollarni yod olish hamda „Oltin kuz,, she'riga berilgan topshiriqlarni bajarib kelish, ya'ni mustaqil o'qish uchun berilgan qismidan she'rning davomini va uning muallifi Zulfiya haqidagi ma'lumotni o'qib kelish topshiriladi.



12- DARS

ZULFIYA XONADONIDA

📘 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarda nutqiylar ko'nik-malarni o'stirish; o'quvchilarni atov gaplar haqidagi grammatik qoida bilan tanishtirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni o'zbek xalqining urf-odatlari bilan, mehnat haqidagi maqollar bilan yaqindan tanishtirish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar, kartochkalar, darslik, lug'at, ot-ko'makchilar yozilgan jadval, shoira Zulfiya portreti.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	8 daqiqa
3	Yangi grammatik qoida bilan tanishtirish	7 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
5	„Zulfiya xonadonida“ matni ustida ishlash	10 daqiqa

6	Kartochkalar bilan ishlash	7 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uygva vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqidagi axborot. Bunda o'quvchilardan viloyatlarda paxta terimining borishi haqidagi ma'lumotlarni so'rash mumkin.
2. Uy vazifasini tekshirish, tahlil qilishda o'quvchilarga
 - a) mehnat haqidagi maqollarni yoddan ayttirish, ularning mazmunini so'rash;
 - b) „Paxta - bizning boyligimiz“ matnining mazmunini so'rash;
 - c) „Oltin kuz“ she'rini ifodali o'qitish orqali o'quvchilar baholanadilar.
3. Yangi mavzu: atov gaplar.

Avval darslikning 25- betidagi grammatik qoida bilan o'quvchilarni tanishtirish kerak. Atov gaplar faqat ega tarkibidan iborat bo'lishi, ular bir so'zdan ham yoki yoyiq holda ham kelishi mumkinligi hamda so'z birikmalaridan tugallanganlik ohangi bilan farq qilishi misollar vositasida tushuntiriladi. Masalan: *Paxta dalasi. Kuz.*

Ushbu grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 25- mashqni variantlarga bo'lib bajartirish mumkin. 1- variant - 1,3,5,7,9- gaplarni, 2- variant - 2,4,6,8- gaplarni yozadilar. Bunda birinchi gapni og'zaki tushuntirish yoki doskaga namuna sifatida yozib qo'yish maqsadga muvofiq. Masalan: *Bahor. Gullagan o'rik daraxtlari, ko'm-ko'k maysalor kishiga huzur bag'ishlaydi.*

Grammatik mavzu shu tarzda mustahkamlangach, o'quvchilardan uygva vazifa sifatida mustaqil o'qish uchun topshirilgan shoira Zulfiya, uning tarjimai holi haqida so'raladi va 22- mashqdagi „Zulfiya xonadonida“ matniga o'tiladi.

„Zulfiya xonadonida“ matni ustida ishlashni bosh-

lashdan avval notanish so'zlar o'quvchilarning lug'at daftarlariiga yozdiriladi:

chechkada — в сторонке

burchakda — в углу

oynaband — стеклянный, зеркальный

kiraverishda — у входа

chap qo 'lda — с левой стороны

o'rtasida — в середине, в центре

ustida — на верху

nafis — изящный

Bu so'zlar bir necha marta rus va o'zbek tillarida o'qitilib, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzdirilgach, matn bilan tanishtirishga o'tiladi. Avval matn o'quvchilarga o'qitiladi, so'ngra matn asosida bir necha savollar tuzdiriladi:

Namuna: 1. *Zulfiya opaning mehmonxonalari qanday?*

2. *Xonaning bir chekkasida nima turibdi?*

3. *Ikki deraza o'rtasida nima bor?*

4. *Xonaning o'rtasida-chi?*

5. *Stol ustiga nima yozilgan?*

4. Ushbu savollar asosida matn mazmuni qisqacha so'zlab chiqilgach, o'tilganlarni mustahkamlash uchun quyidagi kartochkalar bilan ishlashni tashkil etish mumkin.

Kartochkalar namunalari:

1- kartochka

1. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing:

o'rtasida, ustida, burchakda

2. Tuzilgan gaplarga savol bering.

2- kartochka

1. So'zлами o'zbek tiliga o'giring:

noсередине, в углу, в сторонке, у выхода

2. Tarjima qilingan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing

So'ngra o'quvchilar mashq topshirig'iga ko'ra matndan atov gaplarni topib, ularning ifodalanishini tushuntiradilar.

Shu tarzda o'tilgan grammatik mavzu ham mustahkamlanadi. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarining bilimi baholanib, uyg'a vazifa topshiriladi.

☞ **Uyg'a vazifa:** 1. Matn mazmunini so'zlashga tayyorlanib kelish.

2. 26- mashqni yozma bajarish.

3. 29- mashqdag'i „Золотая осень“ matnini o'zbek tiliga o'girib kelish.



13- DARS

PAXTAKOR MEHNATI

📘 **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish; lug'at boyligini oshirish; rasm tasviri ustida ishslashga o'rnatish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarining tilga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** kech kuz faslini tasvirlovchi rasmlar, fonetik jadval, darslik, lug'at, bir tup g'o'za (paxtasi bilan) hamda paxtadan olinadigan ayrim mahsulotlardan namunalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Suhbat, savol-javoblar	10 daqiqa
2	Talaffuz mashqi	3 daqiqa
3	O'tilgan mavzuni takrorlash	10 daqiqa
4	Rasm asosida matn tuzish	10 daqiqa
5	„Paxtakor mehnati“ matni ustida ishslash	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyg'a vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Suhbat, savol-javoblar.

2. Fonetik mashg'ulot: „i“ tovushining talaffuzi: o'zbek

tilida agar „i“ tovushi so‘z o‘rtasida yoki so‘z oxirida kel-ganda, bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi, ya’ni juda qisqa aytildi. Faqat y tovushidan oldin va ayrim o‘zlashgan so‘zlardagina i aytildi. Misollarni qiyoslang:

qisqa „i“	cho‘ziq „i“
<i>zirak</i>	<i>ziyarak</i>
<i>sira</i>	<i>siyrak</i>
<i>qirq</i>	<i>hamisha</i>
<i>keldi</i>	<i>qiyn</i>

3. O‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini tek-shirish:

a) „Zulfiya xonadonida“ matnining mazmunini so‘rash;
b) Tarjima uchun berilgan „Золотая осень“ matni bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish. Bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Hozir kuz faslining qaysi oyi?
2. Sizga kuz fasli yoqadimi? Uning qaysi tomonlari sizga ko‘proq yoqadi?
3. Nima uchun biz kuzni „oltin kuz,, deb aytamiz?
4. Kuzda qanday meva, sabzavot va poliz ekinlarini yig‘ib-terib olamiz?
5. Nima uchun „Paxta — bizning boyligimiz“ deyiladi?
6. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
- a) uuga berilgan 6- mashqning bajarilishini tekshirib chiqish.

4. O‘tilganlar mustahkamlangach, 27- mashqdagi matn o‘qitiladi. O‘quvchilar mashq topshirig‘iga ko‘ra har bir gapga savol berib, bosh bo‘laklarni aniqlaydilar, ayni paytda paxtachilik va paxta mahsulotlari bilan tanishadilar. So‘ngra o‘qituvchi stol ustiga bir tup g‘o‘za va paxtadan olingan mahsulotlarni qo‘yadi va o‘quvchilarni 3 yoki 4 guruhga bo‘lib, paxtachilik to‘g‘risida dialog tuzdiradi. Har bir guruhga bilimdon o‘quvchilar sardor etib tayinlanishi va u o‘z guruhiga dialog tuzishda yordam berishi kerak.

So‘ngra doskaga 2 ta rasm osiladi va o‘quvchilar 2 variantga bo‘lingan holda rasmlarni tasvirlaydilar.

Rasmlar asosida yoziladigan ijodiy ishlarda o'tilgan grammatik ma'lumotlardan o'z o'mida foydalanish kerakligi o'quvchilarga eslatiladi.

Ushbu rasm asosida o'quvchilar taxminan quyidagicha ijodiy matn tuzishlari ko'zda tutiladi:

1- rasm. Paxta dalasida paxta terish mashinalari paxta teryaptilar.

Keng paxtazor. Paxtalar oppoq bo'lib ochilgan. Paxta terish mashinalari paxta teryapti. Uzoqda paxta xirmonlari. O'zbekistonda juda ko'p paxta yetishtiriladi. Respublikamiz paxta yetishtirish bo'yicha jahonda eng yuqori o'rnlardan birini egallaydi. Paxta oltin kabi bebahodir.

2- rasm. Ip yigirish, gazlama to'qish sexi.

Bu to'qimachilik kombinati. Dalalardan terib olingan paxtalar to'qimachilik kombinatiga keltiriladi. Avval ulardan iplar yigiriladi, so'ng yigirilgan iplardan turli gazlamalar to'qladi. Gazlamalardan esa kiyimlar tikiladi.

To'qimachilik kombinatidagi eng katta sexlardan biri ip yigirish sexidir. Sex to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, bir ishchi o'nlab dastgohlarga qaraydi.

Mening onam (otam yoki akam) kombinatdagi eng ilg'or to'qimachilardan. Men onam bilan faxrlanaman.

So'ngra doskaga yangi mavzu nomi — „Paxtakor mehnati“ yozib qo'yiladi.

O'qituvchi o'quvchilarni P. Qodirovning „Meros“ qissasidan parcha sifatida berilgan „Paxtakor mehnati“ matni bilan tanishtirishdan oldin, respublikamizning asosiy boyligi bo'lgan, barchamizni yedirib, kiyintiradigan va boqadigan paxta mashaqqatli mehnat bilan o'stirilishini, shuning uchun paxtakor dehqonlarni juda qadrlash

kerakligi haqida gapirib o'tadi. So'ng matn bo'yicha berilgan lug'at ustida ishlanadi va matnning 1-2- abzasi o'qitiladi.

☞ **Uyga vazifa:** matnning 3—4- abzasini o'qib kelish hamda savol va topshiriqlarga javob tayyorlab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.



14- DARS

O'tilganlarni takrorlash va mustahamlash KUZ FASLI HAQIDA IJODIY BAYON YOZISH

⌚ **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarning yozma nutqlarini o'stirish.

💻 **Darsning borishi:** darsning boshlanishida kuz fasli haqida, avval o'tilgan mavzular bo'yicha umumiy savol-javob o'tkazib olinadi. Bunda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Kuz fasli qaysi oydan boshlanadi?
2. Hozir kuzning qaysi oyi?
3. Kuzda qanday meva, sabzavot va poliz ekinlari pishadi?
4. Kuzda nima uchun paxta haqida ko'p gapiriladi?
5. Kuz fasli kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

6. Nima uchun biz kuzni „oltin kuz“ deb ataymiz?
7. Nima uchun paxta „oq oltin“ deyiladi?
8. Paxtakorlarning mehnati haqida nimalarni bilasiz?

O'tilgan leksik materiallarni shu tarzda takrorlab, mustahkamlab bo'lingach, adabiy o'qish uchun berilgan matnning qisqa mazmuni so'raladi. Ana shunday tayyorgarlikdan so'ng yozma ishni boshlash mumkin. O'qituvchi yozma ishning boshlanish qismini o'qib beradi.

Kuz (ijodiy bayon)

Mana, ona diyorimizda kuz fasli. Bu davrda dala, bog' va polizlarda sabzavot, meva va poliz ekinlari g'arq pishadi. Dehqonlarimiz ularni yig'ib-terib oladilar. Kuz faslining

birinchi oylarida boshlangan paxta terimi ham oxirlab qoladi. Paxtakorlarimiz mashaqqatli mehnat bilan paxtadan mo'l hosil yetishtirdilar.

Yozma ishning davomi o'quvchilarga mustaqil yozish uchun topshiriladi. O'quvchilar o'tilgan 3 dars davomida egallagan bilim va ko'nikmalari asosida ijodiy bayon yozadilar. Bunda ularga lug'at daftarlardan foydalanishga ruxsat berish mumkin.

Uyga vazifa: 1) „Paxtakorlar mehnati“ matnining oxirgi 5—6- abzasini o'qib kelish; 2) mustaqil o'qish uchun berilgan qismidan yozuvchi P. Qodirov tarjimayi holi bilan tanishish.

VI MAVZU: TIL BILGAN — EL BILADI



15 - DARS

TILGA E'TIBORSIZ — ELGA E'TIBORSIZ

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirish; Alisher Navoiyning til haqidagi hikmatlari bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarning o'rganilayotgan tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish.

Darsning jihozlanishi: mavzuga oid qo'shimcha materiallar, Navoiy surati, hikmatlar yozilgan jadval, darslik, lug'at.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Diktant tahlili	5 daqiqa
3	O'tilgan dars bo'yicha takrorlash	10 daqiqa
4	„Til bilgan — el biladi“ matni ustida ishlash	15 daqiqa

5	Alisher Navoiy hikmatlari bilan tanishish	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Darsni axborotlarni tinglash va savol-javoblar bilan boshlash maqsadga muvofiq.

Bu savol-javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin: birinchi savolni o'qituvchining o'zi boshlab beradi. Har bir o'quvchi o'z yonida o'tirgan o'quvchiga, u esa orqa partada o'tirgan o'quvchiga savol beradi. Bunda o'quvchilar bir-birlariga ismnii aytib, murojaat qilish shakllaridan foydalanishlari kerak.

— savol (Bu savolni o'qituvchi beradi): — Karina, ayt-chi, bugun qaysi kun? — Bugun seshanba kuni.

Karina esa yonida o'tirgan dugonasiga savol beradi: Svetlana, seshanba haftaning nechanchi kuni? — Seshanba haftaning ikkinchi kuni.

— Nodira, bir haftada necha kun bor? — Bir haftada 7 kun bor.

— Elvira, haftaning qaysi kunlari bizda o'zbek tili darsi bo'ladi? — Bizda faqat seshanba va payshanba kunlari o'zbek tili darslari bo'ladi.

— Nozima, o'quvchilar qaysi kuni dam olishadi?
— O'quvchilar faqat yakshanba kuni dam olishadi.

Savol-javob shu tarzda davom etadi.

2. O'tgan darsda yozilgan diktant tahlilini o'tkazish. O'quvchilarga yozma ish daftarlari tarqatiladi va xatolar ustida ish olib boriladi.

3. O'tilganlar bo'yicha takrorlash, mustahkamlash. O'qituvchi 3—4 ta gap bilan o'tilgan mavzu: faqat ega tarkibidan iborat gaplar haqida, bilim olishning foydasi va barcha bilimlar til vositasida egallanishi haqida gapiradi. So'ngra doskaga yangi mavzu nomini yozadi.

4. Yangi mavzu: „Til bilgan — el biladi“ matni.

Matn ustida ishlash o'quvchilarga matnda uchragan notanish so'zlarni lug'at daftarlariiga yozdirishdan boshlanadi:

<i>nutq</i> — речь	<i>urishtirmoq</i> — поссорить
<i>ulug'</i> — великий	<i>tushuntirmoq</i> — объяснять
<i>bog'lamoq</i> — связывать	<i>bir xil</i> — одинаковый
<i>yaqinlashtirmoq</i> — сближать	<i>narx</i> — цена
<i>vosita</i> — средство	<i>xaxolab kulmoq</i> — громко
<i>ko'prik</i> — мост	смеяться
<i>dil</i> — душа	<i>hamisha</i> — всегда
<i>tortishmoq</i> — спорить	<i>baqirmoq</i> — кричать

Bu so'zlarni o'quvchilarga bir necha marta o'qitib, ular ishtirokida so'z birikmali va gaplar tuzdiriladi. Ana shunday tayyorgarlikdan so'ng matn bilan tanishish, uning mazmunini so'zlatish mumkin. Avval matn o'qitiladi, so'ng matnga bir necha savol tuzib, o'zaro suhbatlashiladi. Kuchliroq guruhlarda matnni rollarga bo'lib so'zlatilishi ham mumkin. Bu darsni jonli o'tkazishga va matnning ta-sirchanligini oshirishga yordam beradi.

5. Alisher Navoiy hikmatlari bilan tanishish.

Ana shundan keyin o'qituvchi o'zbek xalqining buyuk mutasakkiri Alisher Navoiyning siymosi tasvirini doskaga ilib qo'yadi va Navoiyning hikmatlari va u yaratgan asarlar, inshootlar haqida qisqacha so'zlab beradi. So'ng Navoiyning suratini hamda uning hikmatlari yozilgan quyidagi jadvalni doskaga ilib qo'yadi:

1. Insonni til ayladi judo hayvondin,

Bilki guhari sharifroq yo'q ondin.

(В отличии от людей языка лишены звери,

Знай, что нет ничего почетней сего.)

2. Sihat tilasang, kam ye,

Izzat tilasang, kam de.

(Хочешь здоровья, ешь мало,

Хочешь почёта, говори мало.)

3. Tilga e 'tiborsiz — elga e 'tiborsiz.

(Нет внимания к языку, нет внимания к его народу.)

4. Bilmaganni so 'rab o 'rgangan olim,

Orlanib so 'ramagan o 'ziga zolim.

(Учёный тот, кто спрашивает то, что не знает сам,

А тот, кто стыдясь не спрашивает, сам себе враг.)

5. Tiling birla ko 'nglingni bir tut.

(Держи язык и душу вместе.)

Bu hikmatlarni o'quvchilarga o'qib berib, ularning chuqur ma'nosi tushuntiriladi. O'quvchilarga ularning har birini o'qitish va mazmunini sharhlatish kerak.

6. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar bilimi baholanadi.

 ***Uyga vazifa:***

- Navoiy hikmatlarini yod olish;
- mustaqil o'qish uchun berilgan materialdan Navoiyning tarjimayi holi haqida o'qib kelish;
- „Til bilgan — el biladi“ matni mazmunini so'zlash va matn topshirig'ini bajarish topshiriladi.



16 - DARS

O'ZBEK TILI O'ZBEKİSTONNING DAVLAT TİLİDİR



Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarni Davlat tili to'g'risidagi qonun, uning ahamiyati bilan tanishtirish; bajaruvchisi aniq va bajaruvchisiz gaplar; fe'lning aniq va majhul nisbatlari bilan tanishtirish.



Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda o'z Vatanining davlat tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish.



Darsning jihozlanishi: til haqida maqollar, qo'shimcha adabiyotlar, grammatik jadval, darslik, lug'at.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Suhbat, savol-javoblar	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	15 daqiqa
3	Mustaqil ish	8 daqiqa
4	Yangi grammatik mavzu	7 daqiqa
5	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	3 daqiqa
6	„Botir Zokirov xonadonida“ matni ustida ishlash	5 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Dars suhbat bilan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga bir necha savollar beradi:
 - a) bolalar, bugun nechanchi oktabr?
 - b) 21- oktabr qanday kun?
 - c) biz qachondan beri bu kunni „Til bayrami“ sifatida nishonlaymiz?
 - d) o'zbek tiliga qachon „Davlat tili“ maqomi berilgan?
 - e) siz til haqida qanday maqollarni bilasiz?
 - f) nima uchun „Tilga e'tibor — elga e'tibor“. „Til boyligi — el boyligi“ deymiz?
2. Uy vazifasini tekshirish:
 - a) Navoiyning hikmatli so'zlarini yoddan so'rash;
 - b) „Til bilgan — el biladi“ matnining mazmunini so'zlatish, ushbu maqol ma'nosini izohlatish;
 - c) Alisher Navoiy haqida, u yaratgan asarlar haqida so'rash.
3. O'tilganlar yuzasidan takrorlash, mustahkamlash. Bunda kartochkalar yordamida mustaqil ish turini tashkil etish kerak.
4. Yangi grammatik mavzu: Bajaruvchisi aniq va bajaruvchisiz gaplar. Fe'lning aniq va majhul nisbatlari. Buning uchun darslikning 32- betidagi grammatik qoida va

„Yodda tuting“ ruknidagi misollar yaxshilab o‘qitiladi. O‘quvchilarga savollar o‘rniga mos otlarni qo‘ydirgan holda bu misollarni birma-bir o‘qitish, har bir gap ma’nosini va fe’llarning ifoda shaklini izohlatib borish kerak. Shu tarzda fe'l aniq nisbatda kelganda gaplarning bajaruvchisini kesimi orqali topish mumkinligini o‘quvchilarga singdirish mumkin. Masalan: *Bugun maktabga bordim. — Men bugun maktabga bordim. — Я сегодня пошел в школу.*

Majhul nisbat shaklida esa gaplarning bajaruvchisini aniqlab bo‘lmaydi. Bunda fe’lga -*л*, -*ил*, -*н*, -*ин* qo‘sishim-chalari qo‘shiladi. Masalan: *Sinf tozalandi* — Класс вычищен (кем-то).

Bugun kechqurun teatrga boriladi — Сегодня вечером будем посещение театра.

Grammatik ma’lumotlarni mustahkamlash uchun 34-mashqni og‘zaki bajartirish kerak bo‘ladi.

So‘ngra o‘qituvchi har bir fuqaro o‘z ona tilidan tashqari yana o‘zi yashab turgan mamlakatning davlat tilini bilishi kerakligi, tilga nisbatan hurmat elga bo‘lgan e’tibor, Vatanga sadoqat ramzi ekanligi haqida gapirib, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida matn berilgan 33- mashqni o‘qitadi. O‘quvchilar mashqdagi har bir gapning bosh bo‘laklarini aniqlab, ifodalanishini tahlil qiladilar.

So‘ngra matnga berilgan savollarga og‘zaki, 1- topshiriqqa esa yozma javob yozdiriladi. Bu ishni quyidagicha tashkil qilish mumkin:

Doskaga 2 tadan o‘quvchi taklif qilinadi, har bir juftlik berilgan so‘z birikmalarini qatnashtirib gap tuzadi, so‘ng navbatdagi 2 o‘quvchi chiqadi. Tuzilgan gaplar qiyoslanib, o‘quvchilarga baho qo‘yib boriladi. Har bir juftlikka o‘quvchilar o‘tilgan mavzular bo‘yicha, davlat tiliga alo-qador qo‘sishma savollar berishlari ham mumkin. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga bajaruvchisi aniq va bajaruvchisi noaniq gaplar, ularning aniq va majhul nisbatdagi fe’llar bilan ifodalanishi haqida yana bir bor eslatib, o‘quvchilar diqqatini „Botir Zokirov xonodonida“ matniga

qaratadi. Bu matn 35- mashqda berilgan bo'lib, mashq topshirig'iga ko'ra avval o'quvchilarga o'qitiladi, o'quvchilar har bir gapdagi aniq va majhul nisbatdagi fe'l shakllarini aniqlab, ifodalanishini tahlil qiladilar. Matn mazmuni asosida o'quvchilarga savollar berib, o'zbekcha salomlashishning ma'nosi, salomni to'g'ri aytish, salomga to'g'ri javob qaytarish to'g'risida tushuntiradi. Ayni paytda Botir Zokirov haqida ma'lumot berib ketish ham mumkin.

 **Uyga vazifa:** 1) 36- mashq — salomlashish tarixi to'g'risidagi rus tilidagi matnni o'zbekchaga o'girib yozib kelish; 2) „Qaysi xalqlar qanday salomlashadilar“ mavzusida suhbatga tayyorlanib kelish; 3) aniq va majhul nisbatdagi fe'llarni yod olish.

5. O'quvchilar bilimini baholash.



17- DARS

KO'P TIL BILISHNING XOSIYATI

 **Darsning ta'limiy maqsadi:** til bilishning xosiyati nimada ekanligini o'quvchilarga tushuntirish; bajaruvchisiz gaplarda kesimlarning ifodalanishi haqida ma'lumot berish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarning ko'p til o'rganishga qiziqishlarini orttirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, til haqidagi maqollar, grammatik jadval va kartochkalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
3	Kartochkalar bilan ishlash	8 daqiqa
4	Yangi grammatik qoida	7 daqiqa
5	O'tilgan mavzuni inustahkamlash	5 daqiqa

6	„Ko‘p til bilishning xosiyati“ matni ustida ishslash	10 daqiqa
7	O‘quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi: til bayramlarining o‘tkazilishi haqidagi yangiliklar axboroti eshitilgach, o‘qituvchi uy vazifasi uchun berilgan tarjima matnini o‘quvchilarga o‘qitib tekshiradi. Ushbu matnga topshiriq sifatida berilgan savollarga javoblarni ham og‘zaki so‘rab baholaydi. So‘ngra o‘tilgan grammatik ma’lumotlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi tarqatma kartochkalar bilan ishslash mumkin:

1- kartochka

O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- Нет внимания к языку, нет внимания к его народу.
- Задание выполнено.
- Салима выполнила задание хорошо.

2- kartochka

Kerakli so‘zni qo‘ying.

- Hosil (etishtirildi, ko‘tarildi).
- She‘r (yod olinmoq, o‘qildi).
- Gul (ichmoq, uzildi).

3- kartochka

Rus tiliga tarjima qiling.

<i>o‘qildi</i>	<i>qurildi</i>
<i>yozildi</i>	<i>aytildi</i>
<i>saqlandi</i>	<i>olindi</i>

Shu tarzda o‘tilgan mavzular takrorlab va mustahkamlanib olingach, o‘quvchilar diqqati darslikning 34- betidagi grammatik qoidaga qaratiladi. O‘quvchilarga bajaruvchisi ifodalanmagan gaplarning kesimlari fe’lning majhul nisbat shakllaridan tashqari yana harakat nomi shaklidan keyin *kerak*, *zarur*, *lozim*, *mumkin* so‘zlarini keltirish, shuningdek, *bo‘ladi* (*bo‘lmaydi*), *to‘g‘ri keladi* (*kelmaydi*) so‘zları, *-mas* qo‘srimchali sifatdoshlar bilan

ham ifodalanishi mumkinligi tushuntiriladi hamda qoidada keltirilgan misollar o'qitiladi. Ushbu yangi nazariy ma'lumotni mustahkamlash uchun 37- mashq topshirig'i namuna asosida avval og'zaki bajartiriladi, so'ng daftarga yozdiriladi. So'ngra „Ko'p til bilishning xosiyati“ matni ustida ishlanadi. Buning uchun avval matnda uchragan notanish so'zlarni lug'at daftariga yozdiriladi, ularni bir necha marta takrorlab, keyin matn ovoz chiqarib o'qiladi. Matn 3—4 o'quvchiga o'qitilgach, matnga berilgan savollar va topshiriqlarga javob berdiriladi. O'quvchilar baholab chiqilgach, uyg'a vazifa topshiriladi.

Uyg'a vazifa: 39- mashqni yosma bajarish.



18 - DARS

„QALAM QANDAY IXTIRO QILINGAN?“

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish, lug'at boyligini oshirish; grammatik qoidalarni takrorlash, mustahkamlash, nisbat shakllarining kelishiklar bilan bog'liqligini tushuntirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda til o'rGANISHGA bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish.

Darsning jihozlanishi: shoir E.Vohidovning she'riy to'plami, darslik, lug'at, eshitish matni, fonetik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Talaffuz mashqi	2 daqiqa
3	Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
4	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	„Qalam qanday ixtiro qilingan“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
6	Adabiy o'qish. „Ona tilim o'lmaydi“ she'ri	7 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyg'a vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqida axborotlar eshitish.
2. Talaffuz mashqi. Ўайриш belgisi (lotin yozuvida ' tutuq belgisi) bilan yoziladigan so'zlarning talaffuzi. O'qituvchi o'zbek tilida bunday so'zlar 2 xil talaffuz qilinishi: undoshdan keyin kelganda rus tilidagi kabi pauza bilan, unlidan keyin kelganda esa cho'ziq aytishini eslatadi va qiyoslash uchun quyidagi misollar yozilgan sonetik jadvalni doskaga ilib, o'quvchilarga bir necha martadan o'qitadi:
pauza bilan cho'ziq

<i>sur'at</i>	<i>she'r</i>
<i>jur'at</i>	<i>da'vo</i>
<i>qal'a</i>	<i>Ra'no</i>
<i>mas'uł</i>	<i>sa'va</i>
<i>juz'iy</i>	<i>ma'no</i>
<i>qit'a</i>	<i>me'mor</i>

2. O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish va ularning bilimini baholash.

a) „Ko'p til bilishning xosiyati“ matnining mazmunini savollar berish orqali so'zlatish;

b) 39- mashq topshirig'iga ko'ra og'zaki o'qitish va yozma bajartirilib, o'quvchilarning daftarlaridan tekshirib chiqish;

d) o'tilgan grammatik qoidalar bo'yicha savollar berilib, bajaruvchisi noaniq gaplarning kesimlari ifoda-lanadigan fe'l shakllarini takrorlash. So'ng „Yodda tuting“ ruknidagi grammatik ma'lumot tushuntiriladi.

3. Yangi mavzu: „Qalam qanday ixtiro qilingan?“ matn ustida ishlash quyidagicha tashkil qilinadi:

a) matnda uchragan yangi so'zlarni yozdirish, lug'at-dan toptirish, yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzdirish;

b) matn bilan o'quvchilarni tanishtirish, ayrim qiyin iboralarни ularga tushuntirish. Masalan:

ingliz grafligi — английское графство

tag-tomiri bilan — с корнями

qo'porib tashladi — вывернул

almashib bo'lmaydi — нельзя заменить

d) matn mazmunini rus tilida so‘zlatish;

e) matnga og‘zaki savollar tuzdirish va o‘quvchilarga ketma-ket avval doskaga, so‘ng o‘quvchilarning daftarlariiga yozdirish.

4. Adabiy o‘qish matni. O‘zbekiston xalq shoiri E. Vohidovning „Ona tilim o‘lmaydi“ she’ri. Ushbu she’ni avval o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qib beradi, so‘ng o‘quvchilarga o‘qitiladi va mazmuni tushuntiriladi.

5. O‘quvchilar bilimi baholab chiqilgach, uya vazifa topshiriladi:

☞ **Uya vazifa:** 1. „Qalam qanday ixtiro qilingan?“ matnining mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab berishga tayyorlanib kelish.

2. Savol va topshiriqlarga javob topish.

3. „Ona tilim o‘lmaydi“ she’rini yod olish.

4. Shoir E.Vohidov va she’rda tilga olingan buyuk shaxslar haqida ma’lumot berishga tayyorlanib kelish.



19 - DARS

O‘tilganlarni takrorlash

(Yozma ish)

📘 **Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilar bilimini mustahkamlash; ularning yozma nutqlarini o‘stirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** tilga, o‘zbek xalqining urf-odatlariga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini orttirish.

✍ **Darsning borishi:** ushbu dars 1—2- mavzu — „Bilim baxt keltirar“ mavzulari bo‘yicha yakuniy dars bo‘lib, bu darsni o‘zaro savol-javoblar bilan boshlash va o‘tilganlarni biroz yodga solib, so‘ng yozma ish o’tkazish maqsadga muvofiq. Yozma ish 3 bosqichli bo‘lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin:

1- topshiriq. Savollarga yozma javob bering:

1. Mamlakatimizda „Bilimlar kuni“ va „Mustaqillik kuni“ bayramlarini qachon nishonlaymiz?

2. O‘rta Osiyoning qaysi shaharlarida metro bor? Toshkent metrosi qachon ishga tushgan?

3. O'zbeklar egizak farzandlariga qanday nom berishadi?
 4. Biz qanday insonlarni olim deb ataymiz?
 5. O'zbek olimlaridan kimlarni bilasiz?
 6. Ilm haqida qanday maqollarni bilasiz?
- 2- topshiriq.** Ushbu so'zlar va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing:

I- variant

*muqaddas zamin
Navoiy kutubxonasi
uchovimiz
bilim xazinasi*

II- variant

*ulug' ajdodlarimiz
milliy bezaklar
hamma
ilmlı*

3-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling:

I variant

1. *Мы должны гордиться, что живём в независимой стране.*

2. *Улица Навои одна из прекрасных и многолюдных улиц города Ташкента.*

3. *Рядом со зданием Олий Мажлиса Республики Узбекистан расположен парк имени Алишера Навои.*

II variant

1. *Начиная с 1991 года, мы каждый год отмечаем праздник дня независимости 1 сентября.*

2. *На полях начинается работа, творчество и жизнь.*

3. *Республика Узбекистан расположена в Центральной Азии.*

Yozma ishni bajarishda bilimi pastroq o'quvchilarga berilgan vazifalarni qisqartirib berish mumkin.

V MAVZU: DO'ST BILAN OBOD UYING



20 - DARS

DO'STLIK



Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish; shaxsi umumlashgan gaplar, ularda kesimning qo'llanish shakllari haqida ma'lumot berish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni do'stlik, ahillikning qadrini tushunishga, hamisha bir-biriga o'zaro yordam berish, saxovatli bo'lishga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** grammatik jadvallar, darslik, lug'at, mavzuga oid qo'shimcha rasmlar, E. Vohidovning she'riy to'plami.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkility qism: a) yangiliklar haqida axborot b) kuzgi ta'til haqida suhbat	10 daqiqa
2	Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining kirish so'zi	5 daqiqa
3	Yangi grammatik ma'lumot	15 daqiqa
4	Mustahkamlash mashqlari	8 daqiqa
5	„O'quvchiga esdalik“ she'rini ifodali o'qish	4 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa

 **Darsning borishi:** Ushbu mavzu taqvimiylar rejaga binoan II chorakning boshiga to'g'ri keladi, shuning uchun bu darsni o'quvchilarning kuzgi ta'tillarini qanday o'tkazganliklari haqida suhbat tashkil qilish bilan boshlash maqsadga muvofiq. So'ngra yangiliklar haqidagi axborotlar eshitiladi.

O'quvchilar bilan kuzgi ta'til haqida suhbat tashkil etish uchun quyidagicha savollar berish mumkin:

- a) bolalar, kuzgi ta'tilda qanday dam oldingiz?
- b) siz kuzgi ta'tilda kimlar bilan uchrashdingiz?
- d) siz muktabga kelib turdingizmi?
- e) muktabda ta'til vaqtida qanday to'garaklar ishladi?
- f) uyda ota-onangizga, aka va opangizga uy ishlarida yordam berdingizmi?
- g) kitoblar ham o'qidingizmi?
- h) sizga qanday kitoblar ko'proq yoqadi?

i) ta'til vaqtida do'stlaringiz bilan ko'rishib turdingizmi?

j) yangi do'stlar ham orttirdingizmi?

Oxirgi savol bevosita yangi mavzuga bog'lanishga yordam beradi. O'qituvchi bugungi darsning mavzusi „Do'stlik“ ekanligini aytib, mavzuni doskaga yozadi va haqiqiy do'stning fazilatlari, do'stning qadriga yetish, do'stlikni e'zozlash haqida, do'stlikning yoshlikdan boshlanishi, odamlar o'rtasidagi do'stlikning xalqlar o'rtasidagi, turli mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikka poydevor bo'lishi mumkinligi haqida gapirib berishi kerak. So'ngra o'quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga hamda savol va topshiriqlarga qaratadi. Ana shu yo'sinda suhbat o'tkazilgandan keyin hozirgi kunda juda ko'p o'quvchilar, talabalarining boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan o'zaro xat yozishib yoki internet orqali bog'lanib, do'stlik aloqalarini yo'lga qo'yganliklari haqida suhbatlashish ham mumkin. Bu o'rinda o'quvchilarning o'zlari ham misollar keltirishlari ko'zda tutiladi.

Yangi grammatik mavzu: Shaxsi umumlashgan gaplar.

O'qituvchi nutqda mazmunan har uchala shaxsga taalluqli gaplar ham uchrashi, bunday gaplar shaxsi umumlashgan gaplar bo'lib, ularning kesimi II shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanishini tushuntiradi hamda darslikdagi qoidani quyidagi misollar bilan tushuntiradi.

So'ngra darslikdagi 49- mashqda berilgan do'stlik haqidagi maqollar o'qitiladi, har bir maqol mazmuni sharhanadi va daftarga ko'chirtiriladi. Ushbu maqollarni yod olib kelish uyga vazifa sifatida topshiriladi. O'quvchilar mashq topshirig'iga ko'ra maqollarning 2- qismini o'z o'rniga qo'yib yozishlari va kesimning ifodalanishiga e'tibor berishlari kerak. O'qituvchi maqollarning mazmunini tahlil qildirar ekan, ular shaklan II shaxsga qaratilgan bo'lsada, mazmunan har 3 shaxsga taalluqli ekanligi, shuning uchun bunday gaplar shaxsi umumlashgan gaplar deb

atalishi hamda ularning kesimlari buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanishini tushuntirib, o'quvchilar diqqatini darslikdagi grammatik ma'lumotga qaratadi. Bunda avvalgi sinflarda o'tilgan mavzu — fe'lning buyruq maylida tuslanishini darslikdagi jadval yordamida yana bir bor alohida tushuntirib o'tish maqsadga muvofiq.

Buyruq maylidagi fe'llar quyidagicha tuslanadi:

I shaxsda fe'lga **-ay**, **-y** (birlikda), **-may**, **-aylik**, **-ylik**, **-maylik** (ko'plikda) qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

Men bu matnni o'qiy.

Men siz bilan boray.

Biz bugun kinoga boraylik yoki bormaylik.

Iltimos, xatni birga o'qiylik.

II shaxsda fe'lga **-ng**, **-ing**, **-ingiz** qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

Sen kitobni o'zing o'qi(-ma)

Siz bugun mакtabга ertaroq boring (iz).

Yangi qoidani yodlang (-masinlar).

III shaxsda fe'lga **-sin**, **-masin**, **-sinlar**, **-masinlar** qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

Akangga ayt ertaga biznikiga kelsin (-masin).

O'quvchilar imtihonga yaxshi tayyorlansinlar.

Ushbu qoidalarni mustahkamlash uchun 42- mashq og'zaki bajartiriladi. Donolar bisotidan olingan ushbu durdona fikrlarni o'quvchilarga singdirib borish tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. So'ngra 44- mashq topshirig'i yozma bajartiriladi. O'quvchilarga uyga vazifa sifatida topshiriladigan shoir Q. Muhammadiyning „O'quvchiga esdalik“ she'rining o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilishi maqsadga muvofiq.

☞ **Uyga vazifa:** a) yangi grammatik qoidani o'rganish va qoida asosida gaplar tuzish;

b) 43- mashq yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarga javob tayyorlash;

d) 44- mashqda berilgan shoir Q. Muhammadiyning „O'quvchiga esdalik“ she'rini yod olish va topshiriqlarni bajarish.



21 - D A R S

„DO'ST BILAN OBOD UYING“

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga berilgan she'rdagi asosiy fikrni ajrata olishni o'rgatish; buyruq maylidagi fe'llarning shaxsi umumlashgan gaplarda bo'lishli bo'lishsiz shakllarda qo'llanishi bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda do'stga bo'lgan mehr-oqibat, sadoqatlilikni tarbiyalash.

Darsning jihozlanishi. mavzuga oid qo'shimcha material, darslik, grammatik va fonetik jadvallar, E. Vohidovning she'riy asarlari to'plami.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Fonetik talaffuz mashqlari	2 daqiqa
3	Uy vazifasini tekshirish va o'quvchilarni baholash	15 daqiqa
4	O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat	7 daqiqa
5	Yangi grammatik qoida bilan tanishish va uni mustahkamlash	8 daqiqa
6	„Do'st bilan obod uying“, she'ri matni ustida ishlash	8 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqida axborot eshitish.
2. Fonetik talaffuz mashqlari. Quyidagi jadvaldagি so'zlarni ovoz chiqarib, to'g'ri o'qitish va ular ishtirokida so'z birikmalari, ulardan esa gaplar tuzdirish orqali o'zbek tilining o'ziga xos nutq tovushi „g“ ning to'g'ri talaffuz qilinishiga erishish:

„g“	„g“
<i>beg'araz</i>	<i>gar</i>
<i>g'anim</i>	<i>dugona</i>
<i>qirg'oq</i>	<i>keng</i>
<i>to'g'ri</i>	<i>bugun</i>
<i>yolg'on</i>	<i>begona</i>

3. Uy vazifasini tekshirish:

- a) 43- mashqdagi matn mazmunini so'zlatish;
- b) buyruq mayldagi fe'llarni aniqlatish;
- d) qoida asosida tuzilgan gaplarni o'quvchilarning daftarlardan tekshirib chiqish;
- e) 43- mashqqa berilgan savol va topshiriqlar javobini og'zaki so'rash;
- f) Q. Muhammadiyning „O'quvchiga esdalik“ she'rini yoddan ayttirish;
- g) do'stlik haqidagi maqollarni yoddan so'rash, ularning mazmunini so'zlatish.

4. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar bilan suhbat tashkil etish mumkin. O'zaro suhbatlashishni davom ettirish uchun quyidagi so'zni doskaga yozib qo'yish mumkin: *haqiqiy, rostgo'y, mehribon, aldamaydi, yordam beradi, kamtar, kamsitmaydi, maqtanchoq emas, tarbiyali, odobli, fazilat*.

Bu so'zlar yordamida quyidagicha suhbat o'tkazish nazarda tutiladi:

N a m u n a :

- Nodira, sening eng yaqin dugonang kim?
- Mening eng yaqin dugonam — Sveta.
- Sveta qanday qiz?
- Sveta juda tarbiyali, odobli qiz.
- Nodira, senga Svetaning qaysi fazilatlari yoqadi?
- Menga Svetaning mehribonligi, rostgo'yligi, maqtanchoq emasligi yoqadi.
- Uni haqiqiy do'st desa bo'ladimi?
- Ha, uni haqiqiy do'st desa bo'ladi. Chunki u hech qachon birovlarni aldamaydi, kamsitmaydi.

— Nodira, sen o'z dugonang bilan faxrlansang bo'ladi.

5. Yangi grammatik mavzu: Buyruq maylidagi fe'llarning bo'lishsiz shakli. O'quvchilarga darslikning 40- betidagi grammatik qoida o'qitiladi va ushbu qoidani mustahkamlash uchun „O'quvchiga esdalik“ she'ridan buyruq maylidagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni topdirilib, tahlil qildiriladi. Bunda buyruq maylidagi fe'llarning o'qilish ohangiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. So'ngra 45-mashqda berilgan matn o'qitiladi va topshirig'i og'zaki bajartiriladi. „O'zbek xalq ertaklari“dan olingan bu matn juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi bu mavzudagi ertaklar barcha xalqlarda ham mavjudligi haqida eslatib o'tadi. Bunga misol sifatida o'quvchilar o'zлari o'qigan, bilgan ertaklarining nomlarini aytadilar. Shu tarzda o'quvchilar bilan do'stlik, yaxshilik, do'stga sadoqatlilik mavzusida o'zaro suhbat tashkil qilinadi.

6. „Do'st bilan obod uying“ she'ri ustida ishlash. Bunda avval she'rda uchragan yangi so'zlar lug'at daftariga yozdiriladi:

gar, agar — если

vayrona — разруха, развалина

qadam — шаг (переступить порог)

koshona — дворец

davrasida — в кругу

shoda — связка, киста чего-либо

marvarid — жемчуг

bisyor ko'r erur — довольно много будет

hamroz — обоюдно, взаимно

o'rtanmoq — мучиться

beg'araq — безвозмездный

Bu so'zlar bir necha bor takrorlatiladi va ular ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuzdiriladi. So'ngra O'zbekiston xalq shoiri E. Vohidovning „Do'st bilan obod uying“ she'ri bilan tanishiladi. Bunda o'qituvchi avval E. Vohidov haqida qisqacha ma'lumot beradi, so'ngra she'rni o'zi ifodali qilib

o'qib beradi, keyin 3-4 o'quvchiga o'qitadi va she'r mazmuni so'zlatiladi;

7. O'quvchilar bilimini baholash.

☞ **Uyga vazifa:**

- 1) „Do'st bilan obod uying“ she'rini yod olish;
- 2) she'rga berilgan 3- topshiriq bo'yicha javob tayyorlash;
- 3) 47-va 48- mashqlarni yozma bajarish.



22 - DARS

HAMMA VAQT DO'ST TUTMOQLIKNI ODAT QIL

☰ **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarga xalq maqolalaridagi chuqur mazmunni singdirish; shart maylidagi fe'llar, shaxsi umumlashgan gaplarning qo'shma gap shaklida kelishi bilan tanishtirish.

⌚ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga insoniy fazilatlar haqida, qanday insonlarning do'sti ko'p bo'lishi haqida ma'lumot berish.

䎲 **Darsning jihozlanishi:** darslik, maqollar yozilgan jadvallar, „Qobusnoma“ „Ma'naviyat darslari“ kitoblari.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Talaffuz mashqi	2 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash va o'quvchilarni baholash	15 daqiqa
3	„Qanday bo'lish kerak?“ (Savol-javoblar)	5 daqiqa
4	Mustaqil ish	8 daqiqa
5	Yangi grammatik ma'lumot	8 daqiqa
6	Mustahkamlash va uyga vazifa	7 daqiqa

☞ **Darsning borishi:**

1. Talaffuz mashqi.

Avvalgi darsda **g'** tovushi o'zbek tilidagi **g** tovushiga qiyoslab tushuntirilgan. O'qituvchi **g'** tovushining o'zbek tilining o'ziga xos nutq tovushlaridan biri ekanligini, bu undosh tilning eng orqa qismida **q**, **x** tovushlari bilan bir joyda hosil bo'lishini tushuntiradi va rus tilidagi **g** tovushi bilan qiyoslab talaffuz qildiriladi.

g'	g
<i>g'olib</i>	<i>голубь</i>
<i>g'araz</i>	<i>гараж</i>
<i>g'oz</i>	<i>газ</i>
<i>tog'a</i>	<i>рога</i>
<i>g'allა</i>	<i>Галя</i>

So'ngra uyg'a berilgan vazifalar so'raladi. O'quvchilarga E. Vohidovning „Do'st bilan obod uying“ she'ri yoddan ayttiriladi, ayni vaqtida o'qituvchi shoir E. Vohidov haqida ham savol so'raydi, savol va topshiriqlarga berilgan javoblar tekshirib chiqiladi. So'ngra 47—48- mashqlar o'qitiladi hamda o'quvchilarga qanday bajarish kerakligi uqtiriladi. O'tilgan mavzuni takrorlash uchun 49- mashqni mustaqil ish sifatida bajartirish maqsadga muvosfiq. O'quvchilar 1- ustunda berilgan maqollarning davomini 2- ustundan topib qo'yadilar. Vazifaning bajarilishi baholanadi, so'ngra maqollarning mazmuni izohlab tushuntiriladi.

Ushbu darsda shaxsi umumlashgan gaplarning qo'shma gaplar vositasida berilishi, ularda shart maylidagi fe'llarning qo'llanishi to'g'risidagi yangi grammatik ma'lumot beriladi. Buning uchun o'quvchilarga 43- betdagi grammatik qoida o'qitiladi va shaxsi umumlashgan gaplarning ko'pincha qo'shma gaplar bilan ifodalanishi, bunday gaplarning sodda gaplarga sinonim bo'lib qo'llana olishi misollar bilan tushuntiriladi. Sodda va qo'shma gaplarning ma'nodosh bo'lib kelishini tushuntirish rusiyabon o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi bunda qo'shma gaplar tarkibidagi 1- gapning kesimi shart maylidagi fe'llar bilan, ya'ni **-sa** qo'shimchasiga shaxson qo'shimchasini qo'shish bilan ifodalanishini grammatik

jadval va misollar yordamida tushuntiradi. Ushbu grammatik qoidani mustahkamlash uchun 50- mashqni yozma va og'zaki bajartiriladi. Mashqning davomini uygaz vazifa qilib topshirish ham mumkin.

 **Uyga vazifa:**

- 50- mashqning davomi;
- do'stlik haqidagi maqol va aforizmlardan 10 ta misol yozib kelish.



23 - DARS

MAQTANCHOQLIK – ZARARLI ODAT

 **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni rivoyat, maqol, masal va aforizmlar bilan tanishtirish, ularning chuqur mazmunini bilishga va hayotda qo'llashga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, tarqatma kartochkalar, grammatik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Uyga vazifani tekshirish	8 daqiqa
2	Kartochkalar bilan ishlash	10 daqiqa
3	O'tilganlarni takrorlash va o'quvchilar bilimini baholash	10 daqiqa
4	„Pushaymonlik“ masali ustida ishlash	15 daqiqa
5	Uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Dars uyga berilgan vazifalarni so'rash bilan boshlanadi. Avvalgi darsda she'rni yodlab kelmagan va baholanmagan o'quvchilarga „Do'st bilan obod uying“ she'ri yoddan

ayttiriladi. She'rni eshitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning daftarlardan 50- mashqning qanday bajarilganini aylanib yurib tekshirib chiqadi. So'ngra 3-4 o'quvchini doskaga chiqarib, qolganlarga esa daftardan o'qitib, yozib kelingan maqol va aforizmlar tekshiriladi.

2. Ayni paytda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun ayrim o'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalardan namunalar:

1- kartochka

Maqollarning davomini toping va rus tiliga tarjima qiling.

1. Olim bo 'lsang, ...
2. Yaxshiga yondosh, ...
3. Qozonga yaqin yursang, ...

2- kartochka

O'zbek tiliga tarjima qilib yozing:

1. Уважай родителей.
2. Не груби, будь вежлив.
3. Не зазнавайся. Почитай тех, кто тебя уважает.

3- kartochka

Rus tiliga tarjima qilib yozing:

1. Men 1- mashqni o'qiy. Biż siz bilan boraylik.
2. Uy ishlarini vaqtida bajar, vaqtida dam ol. Uyingizga yaxshi yetib oling.
3. Nozimaga ayt, ertaga saat 9 da mакtabga kelsin. Boshqa o'quvchilar ham kelsinlar.

Bu kartochkalarni o'qituvchining o'zi yana qo'shimcha kartochkalar tayyorlagan holda o'quvchilarga tarqatadi va har bir kartochka olgan o'quvchi boshqa o'quvchilarga eshittirib javob beradi, o'qituvchi esa ularning javoblarini baholaydi.

So'ngra M. Sulaymonovning „Pushaymonlik“ masali ustida ishlashga o'tish mumkin. Masalni o'zlashtirish uchun isjni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- 1) Avval masaldagi yangi so'zlar bilan tanishiladi.
qaddini ko 'tarmoq — подниматься

maqtana boshlamoq — начать хвастаться
betakror — неповторимый
e'zozlamoq — почитать
ta'zim qilmoq — поклоняться, приклоняться
achchig'i kelmoq — сердиться, злиться
bino qo'ymoq — лелеять, слепо налагаться (на кого либо)
baxsh etmoq — посвятить
tenglashtirmoq — равнять приравнивать
kibrlanmoq — высокомерничать, зазнаваться
ranjimoq — обижаться, огорчаться
parvarish qilmoq — ухаживать

pushaymon bo'ymoq — раскаиваться, сожалеть

So'ngra masal 3—4 o'quvchiga rollarga bo'lib o'qitiladi va masal mazmunni qisqacha so'zlatiladi, masal bo'yicha o'zaro savol-javoblar tashkil qilinadi.

☞ *Uyga vazifa:*

- 1) masal mazmunini so'zlashga tayyorlanib kelish;
- 2) shu masalga o'xshagan hayotiy voqealardan so'zlab berish;
- 3) „Pushaymonlik“ masali bo'yicha 4—5 savol tuzib, daftarga yozib kelish;
- 4) „Nima eksang shuni o'rasan“ rivoyatini o'qib kelish.



24 - DARS

NIMA EKSANG, SHUNI O'RASAN

(*ijodiy bayon*)

Darsning ta'limiylari maqsadi: o'quvchilarning yozma nutqlarini o'stirish; o'tilgan grammatik qoidalarni takrorlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga, ota-onani qadrlash, milliy urf-odatlarni e'zozlashga o'rgatish.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	„Nima eksang, shuni o'rasan“ rivoyati asosida savol-javob	7 daqiqa

2	Ijodiy bayon	36 daqiqa
3	Uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** O'qituvchi o'quvchilardan uyga vazifa qilib topshirilgan „Nima eksang, shuni o'rasan“ rivoyating qisqacha mazmunini gapirib berishni so'raydi va ushbu matn bo'yicha o'zaro savol-javob tashkil etadi.

Savol-javoblar namunasi:

O'qituvchi:

- Ayting-chi, bolalar, sizning buvingiz yoki bobongiz bormi?

Karima:

- Ha, mening bobom va buvim borlar.

O'qituvchi:

- Siz ularga qanday munosabatda bo'lasiz?

Sveta:

- Men bobomni juda hurmat qilaman, ularni hech xafa qilmayman.

O'qituvchi:

- Siz ulardan hech narsani ayamaysizmi?

Nodira:

- Bizning uymizda oyim, dadam, akam va men bobomdan hech narsani ayamaymiz.

O'qituvchi:

- Bolalar, siz buvingiz yoki bobongizga kerak bo'lganda yordam berasizmi?

Alisher:

- Ha, albatta, menimcha, hamma bolalar va qizlar o'z buvilarini yoki bobolariga doim yordam berishlari kerak, chunki kelajakda biz ham ota-ona, buvi yoki bobo bo'-lamiz.

Shu tarzdagi tayyorgarlikdan so'ng „Nima eksang, shuni o'rasan,, mavzusida o'quvchilarga ijodiy bayon yozdiriladi. O'quvchilar bayonda o'z ota-onalari, buvi-bobolariga munosabatlari, kelajakda ular qarib, mehnatga

yaroqsiz bo'lib qolganlarida ularga ko'rsatiladigan e'tibor haqida, vataniga, eliga, yor-do'stlariga sadoqatli farzandlari orqasida rohat-farog'atda yashayotgan insonlar yoki noqobil farzandlari tufayli aziyat chekib, yolg'izlik azobini ko'rayotgan, qariyalar uylarida g'am-tashvishda yashayotgan ayrim ota-onalar xususida o'z fikrlarini yozishlari mumkin. Albatta, o'qituvchi bunga yo'llanma berishi, o'zaro suhbat chog'ida ana shu mavzularga ham to'xtalib o'tishi kerak. Shundagina darsning ta'limiylarini maqsadiga erishiladi.

 **Uyga vazifa:** o'tilgan grammatik qoidalarni takrorlab kelish.

VI MAVZU: VIJDON VA BURCH



25 - DARS

BURCH NIMA?

 **Darsning ta'limiylarini maqsadi:** o'quvchilarni O'zbekiston konstitutsiyasining moddalari bilan tanishtirish; o'zbek tilida to'ldiruvchining ifodalanishi va gapdagagi o'rni haqida ma'lumot berish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga o'z burchlarini bajarishga barcha sadoqatli bo'lishga chaqirish.

 **Darsning jihozlanishi:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, grammatik jadval, darslik, lug'at.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: yangiliklar haqida axborot	2 daqiqa
2	Ijodiy bayon tahlili va xatolar ustida ishlash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bo'yicha kirish suhbatli	2 daqiqa
4	„Burch nima“ matni ustida ishlash	10 daqiqa

5	Yangi grammatik ma'lumot	10 daqiqa
6	Yangi qoidani mustahkamlash	10 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uygaz vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) o'quvchilar bilan hafta ichidagi yangiliklar haqida biroz suhbatlashilgach, avvalgi darsda yozilgan ijodiy bayon natijalari tahlil qilinadi. Bunda eng yaxshi bajarilgan 3-4 bayon o'qib beriladi. Xatolar tushuntirilib, imlo xatolari to'g'rilanadi. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'qituvchi bir nechta kartochkalar yoki testlar tuzib kelishi maqsadga muvofiq. Bunda quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin. Kartochkalarga quyidagicha topshiriqlar qo'yish mumkin:

1- kartochka topshirig'i

1. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

2- kartochka topshirig'i

2. So'roqlar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

Test topshiriqlaridan namunalar:

1. Qaysi qatorda to'ldiruvchili gap berilgan?

2. Berilgan gapdagি nuqtalar o'rniga qaysi qo'shim-chalarni qo'yish mumkin?

3. Ajratib ko'rsatilgan so'z gapda qaysi bo'lak bo'lib kelyapti?

4. Ushbu gapning to'g'ri tarjimasi ko'rsatilgan javobni ko'rsating.

Shundan so'ng o'qituvchi O'zbekiston Konstitutsiyasi kitobini qo'liga olib, bu kitob davlatimizning bosh Qomusi ekanligi, unda respublikamizda yashovchi barcha fuqarolarning huquq va burchlari yozib qo'yilganligi haqida gapiradi va mavzuning boshidagi savollarga o'qituvchilar diqqatini jalb qiladi. O'quvchilarning javoblari eshitilgach,

Konstitutsianing darslikda berilgan moddalari o'qitiladi va ularning mazmuni tushuntiriladi.

So'ngra o'qituvchi doskaga yangi mavzu: „Burch nima?“ matni ustida ishlash deb yozib qo'yadi va o'quvchilarni matndagi ayrim notanish so'zlar bilan tanishtiradi:

insolfi — справедливый

qadrlanmoq — ценить, дорожить

rostgo 'ylik — правдивость

xiyonat — измена, предательство

to 'liq — полностью

rioya qilmoq — соблюдать

alloma — великие люди

o'git — наставление

nasihat — совет, наставление

odob-axloq — нравственность

O'quvchilar „Burch nima?“ matnini o'qiydilar, har bir gapni o'z ona tillariga tarjima qiladilar. So'ngra matnga berilgan savollar yordamida savol-javob uyuştiriladi. O'zaro savol-javobdan keyin o'qituvchi matndan asosiy fikrni ifodalovchi gapni topishni so'raydi. O'quvchilar „Burch nima?“ so'rog'iga javob bera oladigan gapni topib berishlari kerak. Bu „Axloq qoidalariiga to'liq rioya etish insonning jamiyat oldidagi burchidir“ jumlesi bo'lib, undan keyingi gap „Ana shu burchlarga amal qilgan insonlargina ma'naviy barkamol shaxslar hisoblanadi“ gapi esa ushbu fikrning xulosasidir. Ushbu gaplarni o'quvchilar o'z daftarlariiga yozib oladilar. So'ngra o'quvchilar grammatik qoida bilan tanishtiriladi. Darslikning 48- betida gapda to'ldiruvchining o'rni, to'ldiruvchining kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar qo'llanishi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, o'quvchilar to'ldiruvchining so'roqlari, kesimga bog'-lanishini chizmalar orqali o'zlashtiradilar. Ushbu grammatik qoidani mustahkamlash uchun 53- mashq bajariladi. Unda har bir gapdagisi to'ldiruvchilar ajratib ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilar ularga mos so'roqlar qo'yadilar va ifoda lanishini aytib beradilar. Har bir savolga og'zaki misollar

ayttiriladi. Savol-javoblarda faol ishtirok etgan o‘quvchilar bilimi baholab bo‘lingach, 54- mashqni yozma ravishda bajarish uygaz vazifa sifatida topshiriladi. Bunda 1- gap namunasini ko‘rsatib, tushuntirib berish kerak.

N a m u n a : *Har bir inson o‘z Vatanini sevishi kerak.*

Shuningdek, darslikning 47- betida berilgan O‘zbekiston Konstitutsiyasining moddalari yod olish uchun topshiriladi.

 **Uyga vazifa:**

- qoidalarni takrorlash;
- O‘zbekiston konstitutsiyasining darslikda berilgan moddalarini yod olish.



26 - D A R S

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

 **Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarni she’riy asar va maqollar, sohibqiron o‘gitlari bilan tanishtirish; she’riy asarlar va maqollarda tushum kelishigining ishlatalishini tushuntirish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarni vatanni sevishga, odamlarga yaxshilik qilishga, aql bilan ish yuritishga undash.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, fonetik jadval, tarqatma kartochkalar, qish tasviri tushirilgan rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) qish haqida savol-javob b) qish tasviri nrasmi asosida suhbat	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
3	Eshitish matni va savol-javob	8 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot	8 daqiqa

5	Yangi mavzuni mustahkamlash mashqlari	7 daqiqa
6	„O'zbekiston“ she'ri ustida ishlash	5 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Ob-havo haqida suhbat. Suhbat uchun savollar: Bolalar, bugun havo qanday? Bugun kuz faslining nechanchi sanasi? Qish fasli boshlanishiga ham bir necha kun qoldi, shunday emasmi? Ayting-chi, qish faslida O'zbekistonda havo sovuq bo'ladimi? O'qituvchi doskaga qish faslini tasvirlovchi rasm osib qo'yadi va o'quvchilardan rasmdagi tabiat, qor o'ynayotgan bolalar, ularning yuzlaridagi tabassum, xursandchiligin aks ettiruvchi gaplar tuzishini so'raydi.

O'quvchilar 2 guruhga bo'linib gap tuzishlari mumkin.

2. Uy vazifasini tekshirish. O'quvchilarga uyga berilgan 54- mashq o'qitilib tekshiriladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniغا foydalananish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, tuzgan matnlarini o'qib beradilar va gapdag'i to'ldiruvchilarni ko'rsatib, so'roqlari, ifodalananishini tushuntirib beradilar. Shu yo'sinda o'tilgan grammatik qoida ham takrorlab chiqiladi.

3. Eshitish matni bilan o'quvchilarni tanishtirish.

— Bolalar, ertaga biz Konstitutsiya kunini nishonlaymiz. Sizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya kuni 1992- yilda tasdiqlangan. Biz har yili bu kunni bayram sifatida nishonlaymiz. Bu kunda barcha O'zbekiston fuqarolari dam oladilar.

Konstitutsiya bizga juda ko'p huquqlarni beradi. Bundan tashqari, bizning burchlarimizni ham aniqlab beradi. Biz bu burchlarimizni bilishimiz va ularni bajarishimiz kerak“.

Bu matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va matn mazmuni o'quvchilarga gapirtiriladi. So'ngra quyidagi savollar yordamida o'zaro savol-javoblar o'tkaziladi:

1. Ertaga biz qanday kunni nishonlaymiz?
2. Bu kun qachon tasdiqlangan?
3. Biz qachondan beri bu kunni nishonlaymiz?
4. Bu kunda biz nima qilamiz?
5. O'zbekiston Konstitutsiyasi bizga qanday huquqlarni beradi? (bilim olish, dam olish)
6. Vatanimiz, ota-onamiz oldida qanday burchlarimiz bor?

So'ngra Konstitutsiya moddalari yoddan so'raladi. Ayni vaqtida o'quvchilarga burch haqida, insoniylik fazilatları, insonlarning o'z yaqinlari, do'st-birodarlar, oilasi, qarindosh-urug'lari, Vatani oldidagi, farzandning ota-onsa oldidagi burchlari haqida savollar berib, suhbat tashkil etish ta'limiy va tarbiyaviy jihatdan nihoyatda ahamiyatlidir.

4. Yangi grammatik mavzu: to'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanishi.

Rusiyabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda grammatik bilimlarni rus tiliga qiyoslab tushuntirish yaxshi natija beradi. Jumladan, to'ldiruvchining kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar vositasida shakllanishi va kesimga bog'lanishi rus va o'zbek tillarida bir xil. Ammo o'zbek tilidagi ayrim kelishiklarning (qaratqich va tushum) ba'zan qo'shimchasiz qo'llana olishi, ya'ni belgili yoki belgisiz qo'llanishi rus tilidagi padejlarda mutlaqo uchramaydi. Shuning uchun o'qituvchi tushum kelishigida keladigan vositasiz to'ldiruvchilarning (rus tilida *прямое дополнение*) belgili-belgisiz qo'llanishi, bunda ularning ma'nosidagi farqlarga alohida to'xtalib o'tishi kerak. Darslikning 49- betidagi grammatik qoidada to'ldiruvchilarning qanday hollarda belgili qo'llanishi berilgan. Vositasiz to'ldiruvchilar tushum kelishigi qo'shimchasi bilan kelganda aniq, konkret ma'noni bildirishi, qo'shimchasiz kelganda esa umumiylikni anglatishi misollarda ko'rsatilgan. O'qituvchi bu qoidani mustahkamlash uchun ko'proq misollar keltirishi zarur. Darslikdagi 55- va 56-mashqlar ushbu grammatik qoidani mustahkamlashga

qaratilgan, ularni bajarishga barcha o'quvchilarni jalg qilish kerak. 55- mashqni og'zaki, 56- mashqni esa doskada yozma bajartirish ham mumkin.

Mashqlar bajarib bo'lingach, o'quvchilar diqqati „Yodda tuting“ ruknida berilgan tushum kelishigi *men* va *sen* olmoshlari bilan qo'llanganda bitta **n** harfining tushib qolishi, shuningdek, tushum kelishigining qisqartirilgan shakllari **-n** va **-in** shaklida qo'llanishi haqidagi ma'lumotga qaratiladi. So'ngra 57- mashq sifatida berilgan H. Olimjonning „O'zbekiston“ she'ridan keltirilgan parcha ustida ishlanadi. O'quvchilar mashq topshirig'iga ko'ra nuqtalar o'rniغا mos qo'shimchalarni qo'ygan holda ifodali o'qiydilar. O'qituvchi she'rda tasvirlangan go'zal Vatanimiz sarhadlari haqida, jannatmakon o'lkamizning haqiqatan ham o'xhashi yo'qligi haqida gapirib, bunday Vatanni har kim sevishi, e'zozlashi, qadrlashi kerakligini ta'kidlaydi. „Vatanni sevmoq iymondandir“ degan hikmatning mazmunini tushuntiradi.

Dars yakunida faol qatnashgan o'quvchilar bilimi baholanadi.

☞ **Uyga vazifa:** She'rni to'liq yod olish, she'r dan to'ldiruvchili birikmalarni ko'chirib yozish, she'r dan keyin berilgan savol va topshiriqlarga javob tayyorlash.



27- DARS

SADOQAT VA VAFODORLIK

☰ **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish; maqollar va Amir Temur o'gitlari bilan tanishtirish; to'ldiruvchining ko'makchilar vositasida ifodalanishi, kelishikli birikmalarga sinonim bo'lib qo'llanishini tushuntirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda sadoqat, vafodorlik hissasini uyg'otish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** darslik, lug'at, grammatik jadval, sohibqiron Amir Temur portreti va „Amir Temur“ o'gitlari risolasi.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: Yangiliklar haqida axborot	2 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	8 daqiqa
3	O'tilganlarni takrorlash (savol-javoblar)	5 daqiqa
4	Mustaqil ish — kartochkalar bilan ishlash	5 daqiqa
5	Yangi grammatik mavzu	8 daqiqa
6	Grammatik o'yin — „Kuchsiz halqa“	10 daqiqa
7	„It—insonning do'sti“ matni bilan tanishish	5 daqiqa
8	O'quvchilar bilimini baholash va uygva vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

3. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning yangiliklar haqidagi axborotlari eshitilgach, ularga uygva vazifa qilib topshirilgan shoir H. Olimjonning „O'zbekiston“ she'rini yoddan aytib berish hamda savol va topshiriqlarning bajarilishi so'raladi. O'quvchilar o'zлari mustaqil ravishda o'qib o'zlashtirgan shoir H. Olimjonning tarjimayi holi, she'rning mazmuni haqida ham so'zlab beradilar. Savol-javob jarayonida o'qituvchi nima uchun „Vatanni sevmoq iymondandir“ deyilishini ham so'raydi. O'quvchilar bunga javoban biz shu Vatan farzandi ekanligimizni, Vatanimizda bizning o'qimishli, har tomonlama barkamol bo'lib yetishishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratilganligini, shuning uchun qaysi millat farzandi bo'lishimizdan qat'iy nazar Vatanimizni sevishimiz, e'zozlashimiz bizning burchimiz ekanligi, vijdonli, iymonli odamlar bunga hamisha rioya qilishlari haqida gapirishlari kerak.

O'tilgan grammatik mavzu — tushum kelishigining belgili-belgisiz qo'llanishi mavzusini mustahkamlash uchun quyidagi kartochkalardan foydalanish mumkin:

1- kartochka

Nuqtalar o'rniga kerakli tushum kelishigining qo'shim-chasini qo'ying:

1. Ko'rgazmada rasmlar ... tamosha qildik.
2. Sen ... ko'rganimdan juda xursandman.
3. Nodira, bu kitob ... olma, stoldagi kitobni ol.

2- kartochka

O'zbek tiliga tarjima qilib yozing:

1. Возьми эту книгу.
2. Вчера я видела твою маму.
3. Кто меня позвал?

So'ngra darslikdagi 58- mashq yozma bajartiriladi.

2. Yangi grammatik mavzu: To'ldiruvchilarning ko'makchilar vositasida ifodalanishi va kelishik qo'shimchalariga sinonim bo'lib kelishi. Ushbu mavzuni tushuntirish uchun o'quvchilarga 52- betdagi grammatik qoida yaxshilab o'qitiladi. O'quvchilar grammatik jadvalda ajratib ko'r-satilgan kelishik qo'shimchalari va ko'makchilarning o'zaro ma'nodosh konstruksiyalar hosil qilishini qiyoslab ko'radilar. Masalan:

1. Bu kitobni ukamga oldim.
Bu kitobni ukam **uchun** oldim.
2. Oynayi jahondan ko'p yangiliklarni bilib olamiz.
Oynayi jahon **orqali** ko'p yangiliklarni bilib olamiz.
3. Doskaga bo'nda, daftarga ruchkada yozish kerak.
Doskaga bo'r **bilan**, daftarga ruchka **bilan** yozish kerak.

O'zbek tilida *uchun*, *bilan*, *orqali* ko'makchilaridan tashqari *haqida*, *to'g'risida*, *vositasida*, *kabi*, *singari* ko'makchilari ham mavjud.

Masalan: Biz film *haqida* suhbatlashdik. Shaltingiz *to'g'risida* aytib bering. Bozordan olma, uzum, sabzi, piyoz *kabi* meva va sabzovotlarni sotib oldim.

59- mashq va „Yodda tuting“ ruknida berilgan ko'makchilar ushbu qoidani mustahkamlash uchun katta yordam

beradi. Ushbu ma'lumotlarni mustahkamlash uchun 59-mashqni bajartirish maqsadga muvofiq.

N a m u n a : 1) hammaga foydali - hamma uchun foydali.

2) hayotga zarur - hayot uchun zarur.

3) baxtni kuylamoq - baxt haqida kuylamoq.

60- mashqda berilgan so'roqlarga „Kuchsiz halqa“, grammatik o'yinini tashkil qilish mumkin. O'quvchilar 2 guruhga bo'linib, bir-birlariga tez-tez savollarni beradilar. Javobida to'xtalib qolgan guruham to'plagan ballarini yo'qotadi. Faol qatnashgan o'quvchilar va g'olib guruham baholangach, berilgan javoblarni kelishikli va ko'makchili birikma tarzida 2 variantda daftarga yozdiriladi.

61- mashqdagagi „It — insonning do'sti“ matni bilan tanishish. Matnda uchragan yangi so'zlarni lug'at daftariga yozdirish:

hamroh — спутник, собеседник

ko'zim tushib qoldi — увидел

oqshom — вечер

yotavermadik — долго не ложились

titkilamoq — шарить,искать

to'satdan — внезапно

qo'zg'almoq — сдвигаться (с места)

quturmoq — беситься

miltiq — ружьё

shu zahoti — в этом же миг

qulab tushmoq — рухнуть

vayron bo'lmox — разрушиться

☞ ***Uyga vazifa:*** matnni o'qish, mazmunini so'zlash hamda savol va topshiriqlarga tayyorlanib kelish.



28 - DARS

AMIR TEMUR O'GITLARI

Darsning ta'limiylar maqsadi: o'tilgan grammatik qoidalarni takorlash; mustaqil matn tuzishga o'rgatish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Amir Temur o'gitlarining mazmunini singdirish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish; o'quvchilarni sadoqatli, vafodor va vijdonli bo'lishga chaqirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, sohibqiron Amir Temur portreti va „Amir Temur o'gitlari“ risolasi, grammatik jadval, tarqatma kartochkalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Uy vazifasini tekshirish	5 daqiqa
2	„It — insonning do'sti“ matni ustida ishlash	8 daqiqa
3	Amir Temur o'gitlari ustida ishlash	7 daqiqa
4	O'tilgan grammatik mavzularni mustahkamlash	7 daqiqa
5	Adabiy o'qish: „Nomus“ hikoyasi ustida ishlash	10 daqiqa
6	Vijdon va vijdon azobi haqida suhbat	5 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa

 **Darsning borishi:** o'qituvchi uyga vazifa qilib topshirilgan 60—61- mashqlarni topshirig'i bo'yicha tekshirib chiqadi. Bunda 60- mashqning namuna asosida bajarilganligini o'quvchilarning daftarlaridan ko'rib chiqadi. 61-mashqdagi matn og'zaki so'zlatiladi va savol-topshiriqlar asosida o'quvchilarning fikr, munosabatlari so'raladi. O'quvchilar „It — insonning do'sti“ matnidagi itning sadoqati, vafodorligi haqida gapirib, insonlarda ham ana shu oliv fazilat bo'lishi kerakligini aytib o'tadilar. So'ngra doskaga buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur surati ilinib, Amir Temur haqida biroz suhbat uyuştırıldı. So'ngra „Amir Temur o'gitlari“ risolasidan olingen ayrim o'gitlar tarjimasi bilan yozilgan jadval doskaga ilib qo'yiladi:

1. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

(Хороший человек строит страну, а плохой её разрушает).

2. *Yaxshini yomon kunda sinar.*

(Хороший человек познаётся в беде).

3. *Aqli dushman johil-u nodon do'stdan yaxshiroq.*

(Умный враг лучше глупого друга).

4. *Bugungi ishni ertaga qoldirma.*

(Не оставляй сегодняшнее дело на завтра).

5. *Odamlarga ishon, ammo shubha qil.*

(Доверяй людям, но сомневайся будь внимателен).

O'gitlarning mazmuni yaxshilab tushuntirilgach, ular grammatik jihatdan tahlil qildiriladi, ya'nini har bir gapdagiga to'ldiruvchilar aniqlanib, ularning ifodalanishi tushuntiriladi.

Shundan so'ng adabiy o'qish uchun berilgan „Nomus“ hikoyasi matni ustida ishlanadi. Buning uchun avval o'quvchilar bilan lug'at ustida ish olib boriladi, so'ng matn o'qitiladi va asosiy mazmuni abzaslarga bo'lingan holda gapirtiriladi.

☞ **Uyga vazifa:** matnni to'liq so'zlab berish va savol-topshiriqlarga javob yozib kelish. Shuningdek, barcha o'tilgan mavzularni takrorlab kelish.



29 - DARS

O'tilganlarni takrorlash

(Yozma ish)

📘 **Darsning ta'limiylar maqsadi:** o'quvchilarning yozma nutqlarini o'stirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda vijdon va burch, vafo va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.

📘 **Darsning borishi:** o'quvchilarga quyidagi mavzulardan birini tanlagan holda erkin mavzuda kichik insho yozish topshiriladi:

1. Vatanni sevmoq iymondandir.
2. Farzandlik burchimni oqlayman.
3. Hamisha sadoqatli bo'laylik.
4. Vijdon azobi.

VII MAVZU: **BUYUK ALLOMALARIMIZ**



30 - DARS

MOVAROUNNAHR — ALLOMALAR YURTI

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarni butun dunyoga mashhur buyuk allomalarimiz bilan tanishtirish; gapda belgi bildiruvchi so'zlar - aniqlovchilar, ularning ifodalananishi va gapdagi o'rni haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda buyuk allomalarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini, ularda barkamol inson bo'lib yetishishga intilish hissini uyg'otish.

Darsning jihozlanishi: darslik, tarqatma kartochkalar, buyuk allomalarning suratlari, ular haqidagi asarlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Suhbat	5 daqiqa
2	O'tkazilgan yozma ish tahlili	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bo'yicha kirish so'zi	5 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot	15 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi: darsni suhbat bilan boshlash mumkin. Suhbatni o'qituvchi ma'lum bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga savol berishdan boshlaydi, o'quvchilar esa birin-ketin bir-birlariga savol berib, savol-javobni davom ettiradilar.

Mavzular quyidagicha bo'lishi mumkin:

„Mening ish kunim“, „Mening dam olish kunim“, „Bizning oilamiz“, „Bizning shahrimiz“, „Bizning sinsimiz“, „Mening eng yaqin do'stim (dugonam)“.

2. O'tgan darsda yozilgan yozma ish bo'yicha tahlil o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilarining xatolarini ko'rsatib o'tadi, eng yaxshi yozilgan ishlar o'qib beriladi, darsda yozishga qiynalgan ba'zi o'quvchilarining uyda yozib kelgan yozma ish daftarlari yig'ib olinadi.

So'ngra o'qituvchi bugun yangi mavzu rukni „Buyuk allomalarimiz“ mavzusi boshlanishini aytib, o'quvchilar diqqatini mavzu boshidagi savol va topshiriqlarga qaratadi. O'quvchilar o'qituvchining yordami, yo'llanmasi bilan bilganlarini gapirishga harakat qiladilar. So'ngra o'qituvchi katta harflar bilan doskaga (o'quvchilar esa o'z daftarlariiga) mavzuni va nutqiy qurilma sifatida berilgan gapni yozib qo'yadi hamda sinf diqqatini Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy va boshqa buyuk allomalarimizning suratlariga qaratadi. O'qituvchi bu buyuk donishmandlar qatoriga yana al-Farg'oniy, at-Termiziy, al-Buxoriy, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlarni ham kiritish mumkinligi, ular juda ko'p fanlarning asoschilarini ekanliklari va biz ular bilan faxlanishimiz kerakligi haqida gapirib beradi. O'quvchilarga „Kimlar donishmand deb ataladi?“, „Olim kim?“, „Alisher Navoiy kim edi?“, „Ibn Sino yoki al-Buxoriy haqida nimalarni bilasiz?“ kabi savollarni berish ham mumkin.

So'ngra o'quvchilar diqqatini darslikning 56- betidagi grammatik qoidaga qaratadi. O'qituvchi o'zbek tilida belgi bildiruvchi so'zlar aniqlovchi vazifasida kelishi, ularning gapdag'i o'rni haqida ma'lumot beradi. Biroq o'zbek tilida sifatlovchi-aniqlovchi rus tilidagi kabi o'zi bog'langan so'zlar bilan rod, son va kelishikda moslashmasligi, aksincha, hech qanday alohida qo'shimcha bilan o'zgarmasdan qo'llanishi, ya'ni bitishuv yo'li bilan bog'lanishini misollar bilan qiyoslab tushuntirishi kerak. Masalan:

Rus tilida
красивые цветы
высокое здание

O'zbek tilida
chiroyli gullar
baland bino

O'quvchilarning o'zlariga ham shu kabi misollar topdirib, tarjima qildirish orqali ushbu grammatik ma'lumot mustahkamlanadi, so'ngra 63- mashqdagi matn o'qitilib, topshirig'i og'zaki bajartiriladi. Matn ustidagi ishning davomi uyg'a vazifa qilib topshiriladi.

 **Uyg'a vazifa:**

1. Matnni yaxshilab o'qish va so'zlab berishga tayyorlanib kelish.
2. Matndagi aniqlovchilarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozish.
3. Savol va topshiriqlarga yozma javob yozish.



31 - DARS

ABU ALI IBN SINO

 **Darsning ta'limiy maqsadi:** buyuk olim Ibn Sinoning tarjimayi holi bilan tanishtirish; o'quvchilarga aniqlovchilarning so'roqlari va ifodalanishi haqida ma'lumot berish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarning ilmga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, ibn Sino portreti, ibn Sino haqidagi videolavha, grammatik va fonetik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Hafta ichidagi yangiliklar	3 daqiqa
2	Uyg'a vazifani tekshirish va o'quvchilarni baholash	15 daqiqa
3	„Yodda tuting“ rukni bilan tanishish	5 daqiqa
4	O'tilgan qoidani mustahkamlash	5 daqiqa

5	„Abu Ali ibn Sino“ matni ustida ishlash	8 daqiqa
6	Adabiy o'qish: „Tabiblarning tabibi“	7 daqiqa
7	Uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** hafta ichidagi yangiliklar haqida axborotlar eshitilgach, uyga berilgan vazifa: 63- mashqdagi matn mazmuni gapirtiriladi, savol va topshiriqlarga berilgan javoblar eshitiladi. O'qituvchi parta oralab yurib, o'quvchilarning daftarda bajargan yozma topshiriqlarni tekshirib chiqadi, ayni paytda o'quvchilar matndan ko'chirib yozgan aniqlovchili birikmalarni o'qiydilar va aniqlovchi yuzasidan o'qituvchi bergen savollarga javob beradilar. O'qituvchi ayrim o'quvchilarni baholagach, o'quvchilar diqqatini „Yodda tuting“ rukniga qaratadi. Unda berilgan misollar va chizmalar orqali o'quvchilar aniqlovchilarning so'roqlari va bog'lanishi haqida ma'lumot oladilar. Ushbu ma'lumotlarni mustahkamlash uchun 66- va 65- mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

65- mashqni bajarishda 1 o'quvchi doskaga chiqadi va belgi bildiruvchi so'zlarni aytib turadi. O'tirgan o'quvchilar esa ketma-ket bittadan so'z birikmalarini aytib turadilar va daftarga yozadilar.

N a m u n a : *murakkab topshiriq
bolalar aravachasi
beg'ubor osmon
serquyosh o'lka
yozgi imtihon
sadoqatli do'st*

Vaqt yetarli bo'lsa, har bir so'z birikmasiga og'zaki ravishda gaplar tuzish mumkin. N a m u n a : *Sinfimiz o'quvchilari murakkab topshiriqni a'lo darajada bajar-dilar.*

So'ngra 64- mashqdagi Abu Ali ibn Sino haqidagi matn ustida ishlanadi. Avval nuqtaclar o'rniiga foydalanish uchun

berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib chiqiladi, so‘ngra ushbu so‘zlarning gapdagi vazifasi, ifodalanishi, qaysi so‘zga bog‘lanishi, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi tahlil qilinadi. **N a m u n a :** *Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf va shoir edi.*

So‘ng bu matn o‘qiladi, uning mazmuni so‘zlatiladi, matnga bir necha savollar tuziladi va matnda uchragan ba‘zi notanish so‘zlarni doskaga yozib qo‘yiladi:

o ‘smirlilik — отечество

faoliyat — творчество

og ‘ir dard — тяжёлое заболевание

davolamoq — лечить

shu tariqa — таким образом

muyassar bo ‘lmoq — удаваться, достигаться

boyitmoq — обогащать

Shundan so‘ng matnning mazmuni so‘zlab beriladi. Buning uchun avval matnga bir necha savol tuzdiriladi. Chunonchi:

1. Abu Ali ibn Sino kim edi?
2. U qayerda tug‘ilgan?
3. Ibn Sino qanday qilib Buxoro amirining kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi?
4. Ibn Sino haqida yana nimalarni bilasiz?
5. G‘arbda Ibn Sinoni qanday ataydilar? kabi.

Ana shunday suhbatdan so‘ng mavzuning oxirida yozuvchi M.Qoriyevning „Ibn Sino“ nomli romanidan adabiy o‘qish uchun berilgan „Tabiblarning tabibi“ matnnini o‘qishga o‘tiladi. Ushbu romanidan berilgan parcha tarbiyaviy va ta‘limiy jihatdan o‘quvchilarni kitob o‘qishga qizi-qishlarini oshirishda nihoyatda ahamiyatli. Shu bois ushbu mavzuda adabiy o‘qish matnnini 4 qismga bo‘lgan holda har darsda o‘qib borish maqsadga muvofiq.

Dars yakunida darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar bilimi baholanadi.

☞ ***Uyga vazifa:*** Grammatik qoidalarni takrorlash; „Tabiblarning tabibi“ matnining 1- qismini (61- betgacha) o‘qib kelish.



32 - DARS

RASM ASOSIDA MATN TUZISH

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilar nutqini sinonim so'zlar va birikmalar bilan boyitish; o'quvchilarga rasm asosida matn tuzish yo'llarini o'rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda o'zidan kattalarni hurmat qilish hissini uyg'otish, ularni ozoda-orastalikka o'rgatish.

Darsning jihozlanishi: darslik, mavzuga oid rasmlar, tarqatma kartochkalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism:	1 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	7 daqiqa
3	Grammatik ma'lumotni takrorlash	3 daqiqa
4	Sinonim so'z va iboralar bilan tanishitirish	5 daqiqa
5	Mustahkamlovchi mashq	8 daqiqa
6	Rasm asosida matn tuzish	20 daqiqa
7	Uyga vazifa	1 daqiqa



Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: salomlashish, o'zaro savol-javob.
2. Uy vazifasini tekshirish:
 - a) Abu Ali ibn Sino haqida suhbatlashish, matn mazmunini so'zlatish, ayrim so'zlarning mazmunini so'rash;
 - b) aniqlovchilarning gaplarda qo'llanishi, ularning qanday savollarga javob berishini takrorlash.
3. O'tilganlarni mustahkamlash.
4. Yangi mavzu: O'quvchilarni sinonim so'z va so'z birikmalari bilan tanishtirish.
 1. Ozoda, orasta, saranjom — yog' tushsa yalaydigan.

Nozima orasta, saranjom qiz. Nozima yog' tushsa yalaydigan qiz.

2. *Quvnoq, xushchaqchaq — bir qop yong'oq.*

Mening amakim juda quvnoq, xushchaqchaq odam. - Qo'shnilarimiz ularni bir qop yong'oq, odam deyishadi.

3. *Bo'sh, lapashang — og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadigan.*

Sinfimizda bo'sh, lapashang bolalar yo'q. Men og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadiganlarni yoqtirmayman.

4. *Beparvo, beg'am, loqayd — dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi.*

Hech qachon beparvo, beg'am, loqayd bo'l mang, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan bo'lsangiz, hayotda juda qiynalasiz.

5. *Chaqqon, epchil, uddaburon — tegirmonga tushsa, butun chiqadi.*

Do'stilarimning hammasi chaqqon, epchil, uddaburon, chunki ular sport bilan shug'ullanadilar. Ular tegirmonga tushsa, butun chiqishadi.

68- mashqni o'quvchilarni 2 variantga bo'lib bajartirish, daftarga gaplar tuzdirib yozdirish.

N a m u n a :

1. *Quvnoq — bir qop yong'oq.*

2. *Loqayd — dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan.*

3. *Pahlavon — tog'ni ursa talqon qiladigan.*

4. *Soya-salqin — tangadek oftob tushmaydigan.*

5. *Tug'ilib o'sgan — kindik qoni to'kilgan.*

5. Rasm asosida matn tuzish o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan o'rgatib kelinadi. Yuqori sinflarda o'quvchilarning yozma monologik nutqini rivojlantirish uchun ushbu ish turidan ham foydalanish samaralidir. Biroq bunda endi o'quvchilarning lug'at boyligiga e'tibor berish, o'tilgan mavzulardagi grammatik qoidalarni tatbiq etishlariga ko'maklashish kerak. Shu bois o'quvchilarni rasmni tas-virlashda ishlataladigan quyidagi so'z va iboralar bilan tanishtirish:

1) rasmning old qismida;

- 2) rasmning chap va o'ng tomonida;
- 3) rasmning orqa qismida;
- 4) tasvirlangan;
- 5) musavvir quyidagi ranglarni ishlatgan;
- 6) menga yoqdi, menga yoqmadidi;
- 7) menimcha, sening fikringcha, birinchidan, ikkinchidan, shubhasiz,

Bu ishni bajarishda o'qituvchi o'quvchilarga har xil mavzudagi rasmlarni tarqatishi mumkin. Har bir o'quvchi o'zining rasmi bo'yicha o'tgan darslarda o'tilgan so'z va so'z birikmalarini eslab, ulardan foydalanib, mustaqil holda kichik matn tuzishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarning o'zlariga 1 dars oldin turli mavzudagi rasm olib kelishlarini vazifa qilib berishi mumkin. Namuna:

Mehmonxonada

Musavvir bu rasmda juda chiroqli, shinam, ozoda, yorug' mehmonxonani tasvirlagan. Mehmonxona o'rtasida katta stol va uning atrofiga esa stullar qo'yilgan. Mehmonxonaning chap tomonida katta servant, uning ichida esa billur idishlar, choynak, piyola, lagan va kosalar bor. Mehmonxonaning o'ng tomonida esa 2 kreslo, ularning orasida divan turibdi. Divan ustida esa chiroqli atlas ko'rpancha va 2 ta duxoba yostiq bor.

Mehmonxona devorida va polda gilamlar, 3 ta katta derazalarda esa oppoq deraza pardalar osilgan. Bu mehmonxonani tasvirlashda musavvir har xil: qizil, sariq, jigarrang, ko'k, yashil, oq, havo rang, pushti ranglarni ishlatgan.

Menimcha, bu rasm juda chiroqli chizilgan, u menga juda yoqdi.

O'quvchilar 2 guruhgaga bo'linib, 1- va 2- rasmlarni tasvirlab, daftarlariiga yozadilar, so'ngra 3—4 ta o'quvchi tuzgan matnlarini o'qib beradi.

☞ *Uyga vazifa:* a) 69- mashqni yozma bajarish;

b) „Tabiblarning tabibi“ matnining 2- qismini o'qib, so'zlab berishga tayyorlanib kelish.



33 - DARS

MUSO AL-XORAZMIY

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga Muhammad Muso al-Xorazmiy haqida ma'lumot berish; o'zbek tilidagi qarashlilikni bildiradigan aniqlovchilar, ularning qo'shimchali va qo'shimchasiz qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda Muhammad Muso al-Xorazmiyning algebra fani asoschisi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish va ularni bilim cho'q-qilarini egallashga chaqirish.

Darsning jihozlanishi: darslik, al-Xorazmiy portreti, al-Xorazmiy haqidagi videolavha, grammatik va fonetik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Ibn Sino haqidagi videolavhani tomosha qilish	7 daqiqa
2	Ibn Sino haqida so'zlab berish	8 daqiqa
3	„Tabiblarning tabibi“ matnini qisqacha so'zlab berish	10 daqiqa
4	Yangi grammatik mavzu	7 daqiqa
5	Mustahkamlovchi mashqlar	4 daqiqa
6	„Al-Xorazmiy“ matni ustida ishlash	8 daqiqa
7	Uyga vazifa	1 daqiqa

Darsning borishi: darsni, agar imkonni bo'lsa, ibn Sino haqidagi filmdan olingan videolavha bilan boshlash, so'ng o'quvchilardan ibn Sino haqida gapirib berishni so'rash maqsadga muvofiq. So'ngra uyga vazifa qilib topshirilgan „Tabiblarning tabibi“ matnining 1- qismi mazmuni qisqacha so'zlatiladi va o'quvchilar bilimi baholanadi. Notanish va qiyin so'zlar doskaga hamda o'quvchilarning lug'at daftarlariiga yozdirilib, ular ishtirokida

so'z birikmalari va gaplar tuzdirish orqali o'quvchilar nut-qiga singdiriladi. Matnning 2-qismi uyga vazifa sifatida topshirilib, yangi grammatik ma'lumot bilan tanishtirishga o'tiladi.


Yangi grammatik mavzu: Qarashlilikni ifodalovchi aniqlovchilar.

O'zbek tilida qaratqich-aniqlovchilar deb ataluvchi aniqlovchilarning ushbu turi rus tilidagidan farqli ekanligi, o'zbek tilidagi qaratqich kelishigining vazifasi rus tilidagi roditelniy padejda aniqlovchi sifatida kelmasligi misollarni qiyoslash bilan tushuntiriladi. Masalan:

Rus tilida	O'zbek tilida
<i>Дом отца</i>	<i>otamning uyi</i>
(to'ldiruvchi)	(aniqlovchi)

Qaratqich-aniqlovchilarning Kimning? Nima-nning? so'roqlariga javob berishi, egalik qo'shimchasini olgan so'zlarga bog'lanishi tushuntirilgach, uning ba'zan qaratqich kelishigi qo'shimchasisiz kelishi hollari haqida ma'lumot beriladi.

O'qituvchi darslikda berilgan grammatik qoidadagi misollar bilan cheklanmay, o'quvchilarga ko'proq misol ayttirishi, *bizning uyimiz - uyimiz, mening singlim - singlim* tipidagi misollarni daftarga ham ko'proq yozdirishi kerak. Shuningdek, ushbu darsda qarashlilik ma'nosi ayrim so'zlar—leksik vositalar orqali ifodalanishi mumkinligi haqida ma'lumot berilishi va bu ma'lumotni 70- mashqni yozma bajartirish orqali mustahkamlash ham nazarda tutilgan. Yangi mavzu shu tarzda mustahkamlangach, 71- mashqda berilgan „Al Xorazmiy“ matni ustida ishlanadi. Matn topshirig'iga ko'ra o'quvchilar matnni o'qiydilar, belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozadilar. Matndagi har bir gapga o'zları savol qo'yadilar va boshqa bir o'quvchidan savolga javob berishni so'raydilar. O'quvchilar shu tarzda algebra fanining asoschisi, X asrda yashab ijod etgan buyuk alloma Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati bilan tanishadilar. Ushbu matnni so'zlab berish, matn oxiridagi savollarga yozma javob berish hamda

 **Uyga vazifa:** „Tabiblarning tabibi“ matnining 3-qismini o‘qib kelish topshiriladi.

34 - DARS

BUYUK SOHIBQIRON AMIR TEMUR

 **Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish; aniqlovlchili birikmalarning nutqda qo‘llanishini takrorlash.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarda buyuk sohibqiron Amir Temurga hurmat va ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, sohibqiron Amir Temur haqida qo‘srimcha materiallar, grammatik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so‘rash va o‘quvchilarni baholash	10 daqiqa
3	Grammatik o‘yin	7 daqiqa
4	O‘tilgan grammatik qoidani mustahkamlash	5 daqiqa
5	Amit Temur haqida savol-javoblar	5 daqiqa
6	Rasm asosida tasviriy matn tuzish	12 daqiqa
7	O‘quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: yangiliklar haqida axborot;
2. Uy vazifasini tekshirish. Avvalgi darsda uyga vazifa qilib berilgan Muso al- Xorazmiy va „Tabiblarning tabibi“ matnlarini so‘zlab berishni so‘rash.
3. Grammatik o‘yinda doskaga har bir qatordan 1 tadan o‘quvchi chiqariladi va o‘qituvchi ularga quyidagicha topshiriq beradi:

1- o'quvchi doskaga so'roq so'zlarni yozib o'tiradi.
Masalan: *qanday?*, *qanaqa?*, *qancha?*, *nech-ta?*, *nechanchi?*, *qaysi?*

2- o'quvchi doskaga bunga javob beradigan belgi bildiruvchi so'zlarni yozadi. Masalan: *buyuk*, *aqli*, *zukko*, *beshta*, *yuzlab*, *sakkizinchi*, *ukamning* kabi.

3- o'quvchi shu so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzadi. Masalan: *buyuk sohibqiron*, *aqli bola*, *zukko o'quvchilar*, *beshta daftар*, *yuzlab odamlar*, *sakkizinchi sinf*, *ukamning ruchkasi* kabi.

Bu o'quvchilarning bilimi o'qituvchi tomonidan baholanadi.

2. Uy vazifasi: 9- mashqni tekshirish.

3. O'tilgan grammatik qoidalarni takrorlash, mustahkamlash.

Aniqlovchining **-ning** qo'shimchasi bilan qo'llanadigan turi qarashlilikni bildirishi, **-ning** qo'shimchasi ba'zan tushirib qo'llanishi mumkinligini takrorlash uchun quyidagi misollar doskaga yozdirib tahlil qildiriladi:

Onamning onalari menga buvi bo'ladiilar.

Buxoro, Samarcand va Xivaning tarixiy obidalarini tomosha qildik.

So'ngra „Tabiblarning tabibi“ matnining 2- qismi mazmuni so'zlatiladi. O'quvchilar matndan aniqlovchili birikmalarni topib, tahlil qiladilar.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Bolalar, aytinchchi, biz Amir Temurni kim sifatida bilamiz? (Javob: sohibqiron, lashkarboshi, davlat arbobi, va h. k.).

2. Amir Temur nomi bilan ataladigan qanday yodgorliklarni bilasiz?

3. Siz Amir Temur muzeyida bo'lganmisiz?

4. Amir Temur ordeni haqida nimalar bilasiz?

5. Amir Temurning qurdirgan qanday me'morchilik obidalarini bilasiz?

Shundan so'ng ana shu tarixiy yodgorliklarning rasmalaridan 1-2 tasi ko'rsatiladi va o'quvchilar ushbu obidalar haqida tasviriy matn tuzadilar. O'quvchilarga ushbu madrasalarda buyuk odamlar ta'lif olganliklari, shulardan biri buyuk alloma Mirzo Ulug'bek ekanligi aytilib, keyingi mavzu Mirzo Ulug'bekka bag'ishlanishi aytildi.

Bolalar, Mirzo Ulug'bek sohibqiron Amir Temurning nabirasi bo'ladi. Keyingi darsga Mirzo Ulug'bek haqida bilganlaringizni eslab, takrorlab keling.

☞ **Uyga vazifa:**

1. Darslikning 55- betidagi „Mirzo Ulug'bek“ matnini o'qib kelish.
2. „Tabiblarning tabibi“ matnini oxirigacha o'qib kelish.



35 - DARS

MIRZO ULUG'BEK

Darsning ta'limiylar maqsadi: buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bekning tarjimayi holi bilan tanishtirish; o'quvchilarga aniqlovchilarning so'roqlari va ifodaolanishi haqida ma'lumot berish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarning ilmga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish.

Darsning jihozlanishi: darslik, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek suratlari, P. Qodirovning „Yulduzli tunlar“ romanini, M. Shayxzodaning „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasi, videolavha.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash	7 daqiqa
3	Kartochkalar bilan mustaqil ishslash	8 daqiqa

4	Yangi mavzu: „Mirzo Ulug‘bek“ matni ustida ishlash	7 daqiqa
5	„Mirzo Ulug‘bek“ tragediyasini rollarga bo‘lib o‘qish	17 daqiqa
6	O‘quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa

 **Darsning borishi:** yangiliklar haqida axborot eshitilgach, uyga vazifa: „Tabiblarning tabibi“ matni so‘zlatiladi va o‘quvchilar baholanadi.

O‘qituvchi bu darsda „Mirzo Ulug‘bek“ haqida suhbatlashishini aytib, uning portretini doskaga ilib qo‘yadi. So‘ng o‘quvchilarga kartochkalar beradi.

1- kartochka

Quyidagi sonlarni doskada so‘z bilan yozing:
15, 147, 1665, 1858

2- kartochka

Quyidagi sonlarni son bilan yozing:

1. Bir ming to‘qqiz yuz o‘n yettinchi.
2. Bir ming to‘qqiz yuz qirq uchinchi.
3. Bir ming to‘rt yuz qirq to‘qqizinchi.

3- kartochka

Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling:

1. Мирзо Улугбек был великим, справедливым правителем.
2. Мудрых людей все знают.
3. В нашем классе много умных, находчивых мальчиков и девочек.

4- kartochka

Savollarga javob qaytarining:

1. Nima uchun Ulug‘bek 15 yoshida Movarounnahrga hukmdorlik qilgan?
2. Bizning sinfimizda qanday o‘quvchilar bor?
3. Mirzo Ulug‘bek qanday inson bo‘lgan?

5- kartochka

Aniqlovchiga savollar tuzing:

1. Mirzo Ulug'bekning o'lmas ishlari butun dunyoda abadiy yashaydi.

2. Mirzo Ulug'bek astronomiya sohasining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olim.

2 o'quvchi 1—2- kartochkalar bilan doskada ishlaydi. O'quvchilar raqamlarni ovoz chiqarib o'qiydilar va daftarlari yozib oladilar. Bu raqamlar yangi matnda mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning matnni qiyalmay o'qishlariga yordam beradi. Qolgan o'quvchilar esa kartochkalarni o'tirgan joylarida bajaradilar.

4. Yangi mavzu: Mirzo Ulug'bek matni.

a) matnda uchragan yangi so'zlarni o'quvchilarga tanishtirish:

sohibqiron — полководец

nabira — внук, внучка

hukmdorlik — господство

mukammal — в совершенстве

ulkan — большой, великий

sayyora — планета

bosilib chiqmoq — издаваться

tarjima qilmoq — переводить

hisoblanmoq — считаться

odil — справедливый

hukmdor — правитель

tashviqot — агитация

b) matnga oid 5—6 ta savol tuzish:

N a m u n a : 1. Mirzo Ulug'bek sohibqiron Amir Temurga kim bo'lgan? Amir Temur haqida nimalarni bilasiz?

2. U necha yoshdan Movarounnahrga hukmronlik qilgan?

3. Mirzo Ulug'bek fanning rivojiga qanday hissa qo'shgan?

4. Ulug'bekning eng yirik asari qaysi?

5. Uning bu asari qaysi mamlakatlarda bosilib chiqqan?

6. Ulug'bek necha yoshida va kim tomonidan o'ldirilgan?

7. Nima uchun uning nomi, o'lmas ishlari butun dunyoda abadiy yashaydi?

O'quvchilar savollarga matndan foydalangan holda javob beradilar.

O'quvchilarga uyga vazifa qilib berilgan Mirzo Ulug'bek matni bo'yicha savol-javob o'tkaziladi va o'quvchilar bilimi baholanadi. Shundan so'ng yozuvchi Maqsud Shayxzodaning „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasidan olingen parcha o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitiladi. Asarni avval o'quvchilar o'tirgan joylarida o'qiydilar, so'ngra doska oldida obrazga kirib ijro etadilar. Bunda mumkin qadar ko'proq o'quvchilarni jalg etish kerak. O'zbek tili darslarida ana shunday ish turlaridan foydalanish o'quvchilarda abadiyotga, san'atga mehr uyg'otadi, tilning kuchini, so'z sehrini anglashga yordam beradi va o'zbek tilida sof gapirish, tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rganishga yordam beradi. Bu kabi ijodiy ish turlarini darsdan tashqari to'garaklar mashg'ulotlarda, fakultativ darslarda muntazam olib borish kerak.

☞ **Uyga vazifa:**

1. O'tilgan grammatick mavzularni takrorlash.
2. Buyuk allomalardan biri haqida ijodiy insho yozib kelish.

VIII MAVZU: MEHNAT BAXT KELTIRAR



36 - DARS

HASHAR

Darsning ta'limi maqsadi: o'quvchilarga mehnat bayrami bo'lmish hashar haqida ma'lumot berish; ularni mehnat haqidagi maqollar bilan tanishtirish; harakatning belgisini ifodalashda ravish va ravishdoshlardan foydalanish haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni mehnat-sevar bo'lishga chorlash, qadimiy urf-odatlarimizni qadrashga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, fonetik jadval, mavzuga oid qo'shimcha mashqlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Qishki ta'til haqida suhbat	3 daqiqa
3	Rasm asosida matn tuzish	9 daqiqa
4	Savol-javoblar yordamida o'tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
5	Yangi grammatik ma'lumot	8 daqiqa
6	„Hashar“ matni ustida ishslash	8 daqiqa
7	Yangi mavzuni mustahkamlash. „Beruniy“ haqidagi matn ustida ishslash.	7 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism. Yangiliklar haqida axborot eshitilgach, qishki ta'til haqida suhbat o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Bolalar, qishki ta'til qachon boshlandi?
2. Qishki ta'tilda siz qayerlarda bo'ldingiz?
3. Nima bilan shug'ullanadingiz?
4. Qanday kitoblar o'qidingiz?
5. Ta'tilda buvingiznikiga mehmonga bordingizmi?
6. Yangi yilni qanday kutib oldingiz?
7. Buvizinga uy-ro'zg'or ishlarida yordam berdingizmi?
8. Har faslda: kuzda, qishda, bahorda, yozda qanday ishlar qilinadi? Jumladan, kuzda qanday ishlar qilinadi?

Shundan so'ng o'quvchilar diqqati darslikning 64-betidagi rasmga qaratiladi. O'quvchilarga 72- mashqda berilgan so'z va so'z birikmalari yordamida rasmdagi tasvirni so'zlab berish topshiriladi. So'ngra berilgan savol va topshiriqlar asosida savol-javob o'tkaziladi.

Yangi grammatik mavzu: Harakatning belgisini ifodalash.

O'quvchilar ravish va ravishdoshlar bilan quyi sinflarda tanishganlar. Shuning uchun bu darsda faqat ushbu so'zlarning kesimga bog'lanib, gapda hol bo'lib kelishi, ya'ni harakatning belgisini ifodalashi, ularning gapdag'i o'rni haqida ma'lumot beriladi. Grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 66-betda „Eslab qoling“ ruknida berilgan ravishlar va ravishdoshlarni fe'llarga bog'lab, so'z birikmalarini tuzdirish yaxshi natija beradi. So'ngra 75-mashqdagi topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar matnni o'qiydilar va ajratib ko'rsatilgan birikmalar (*ikki martagina, erta turib, yuvinib-taranib, liboslarni kiyib, keyin, to qosh qorayguncha, qo'sh qo'shib*)ning ifodalanishi, gapdag'i vazifasini ko'rsatadilar. So'ng har bir gapga o'zлari savol tuzib, savol-javob o'tkazadilar. Ana shundan keyin yangi nutqiy mavzu „Hashar“ mavzusi ustida ish boshlash mumkin. Buning uchun avval o'quvchilar matndagi quyidagi notanish so'zlar bilan tanishtiriladi:

hashar — хашар

umumxalq — общенародный

odat — обычай

qarindosh-urug'lar — родственники

yeng shimarib — принялся за дело засучив рукава

og'irini yengil qilmoq — облегчить трудности

barpo etmoq — создавать

ulkan qurilish — большая стройка

bunyod etmoq — создавать

qazimoq — копать, рыть.

So'ngra matn o'qitiladi va matn bo'yicha savol-javob o'tkaziladi:

1. Hashar nima?

2. Hasharda kimlar ishtirot etadi?

3. Hashar yo'li bilan qanday qurilishlar barpo etilgan?

4. Siz hasharda ishtirot etganmisiz?

So'ngra 74- mashq yozma ravishda bajarish uchun topshiriladi.

Namuna: O'zbekistonda hashar umumxalq bayrami, mehnat bayrami hisoblanadi.

☞ **Uyga vazifa:**

- 1) 74- mashqning davomini bajarish;
- 2) mehnat haqidagi maqollarni yod olish, ularning mazmunini tushuntirib berish;
- 3) holatni ifodalovchi so'zlarni yod olish;
- 4) adabiy o'qish uchun berilgan „To'maris“ afsonasining 1- va 2- abzasini o'qish, holat belgisini bildiruvchi so'zlarni aniqlash.



37 - DARS

SUV — HAYOT MANBAYI

Darsning ta'limi maqsadi: o'quvchilarga tabiiy resurslardan foydalanish yo'llari haqida ta'lim berish; nutqda ravishdoshlarning bo'lishli-bo'lishsiz shakllaridan foydalanish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** hayat manbayi — suvdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishga o'rnatish, yaxshi so'zning ahamiyatini tushuntirish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** darslik, masal va maqollar to'plami, maqollar va ularning tarjimasi yozilgan jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash	10 daqiqa
3	Grammatik mavzuni takrorlash	7 daqiqa
4	Maqollar ustida ishlash	7 daqiqa
5	„Donishmand el va o'jar suv“ masali ustida ishlash	15 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa



Darsning borishi: Dars yangiliklar haqidagi axborotlarni eshitishdan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi uyga berilgan 74- mashqni aylanib yurib tekshirib chiqadi. „To'maris“ afsonasining 1- qismi mazmuni qisqacha gapirtirilib, matnda uchragan holat belgisini bildiruvchi so'zlar tahlil qilinadi. Shu tarzda o'tilgan mavzu takrorlanadi va mustahkamlanadi. So'ngra o'qituvchi rus va o'zbek tillarida mehnat haqidagi maqollar yozilgan jadvalarni doskaga ilib qo'yadi hamda o'zbek tilidagi maqollarning rus tilidagi ekvivalentlari topdiriladi, ularning mazmuni sharhlatiladi. O'qituvchi mehnat orqali juda ko'p foydali ishlar qilinishi mumkinligi, jamiyatimizning hozirgi sivilizatsiyasiga ham mehnat orqali erishilganligi, inson o'z aqli, zakovati, bilimi bilan tabiat resurslaridan oqilona foydalana olishi haqida gapirib beradi. Masalan:

Suvni olsak. Suv — hayot manbayi. Suvsiz hayot bo'lmaydi. Insonlar ham, o'simliklar ham suv orqali tirik. Suv bizning uylarimizga chiroq bo'lib kiradi. Biroq undan tejamkorlik bilan, oqillik bilan foydalanish kerak. Shu mavzuda turli kashfiyotlar, ixtiolar qilingan, xalq esa maqollar, matal va masallar yaratgan. Bugun biz sizlar bilan ana shunday masallardan biri bilan tanishamiz.

Yangi mavzu: „Donishmand el va o'jar suv“.

O'quvchilar avval masalni o'qiydilar, o'qituvchi matnda uchragan atoqli otlar — Sepoya polvon, To'g'on polvon, Qorabuvra polvonlar nimani anglatishini tushuntirib beradi. O'quvchi avval masalning o'zini so'ngra esa masalda yashiringan mazmunni gapirib beradi. „Suvning charog'-bonlik qilishi“ - TESlar ekanligi haqida to'xtalib, O'zbekistonligi TESlar haqida suhbat tashkil etiladi. TESlar qanday mehnat evaziga harpo etilishi, Katta Farg'ona kanali qurilishidagi xalq hasharlari haqida savol-javoblar o'tkaziladi.

So'ngra darslikning 67- betidagi grammatik qoida o'qitiladi va masalda uchragan ravishdoshlar tahlil qilinadi. 77- mashqni bajarish uchun o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbat katta yordam beradi.

Uyga vazifa:

- 1) Fe'llarni ishtirok ettirgan holda „Suv - hayot manbai“ mavzusida ijodiy insho yozish.
- 2) „To'maris“ afsonasining 2- qismini o'qib kelish.



38 - DARS

ZARDO'ZLIK FABRIKASIDA

 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarni o'zbek milliy kiyimlari bilan tanishtirish; ravishdoshli birikmalarning to'ldiruvchili birikmalarga sinonim bo'lib qo'llanishi haqida grammatik ma'lumot.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda o'zbek xalqining milliy urf-odatlariga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.

 **Darsning jihozlanishi:** mavzuga oid rasmlar, milliy kiyimlardan namunalar (atlas ko'yak, to'n, do'ppi, belbog', lozim, nimcha), milliy libosdagi qiz-yigitlar rasmi.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) talaffuz mashqlari; b) uy vazifasini tekshirish.	2 daqiqa 8 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
3	Yangi grammatik ma'lumot	7 daqiqa
4	Rasm asosida matn tuzish	12 daqiqa
5	O'tilganlarni mustahkamlash	8 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa



Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Yangiliklar haqida axborot tinglash.
2. Uy vazifalarini tekshirish: uyga berilgan inshoni

o'qitib tekshirib chiqish va „To'maris“ afsonasining
2- qismini so'zlab berishni so'rash.

3. Holatni ifodalovchi so'zlarni takrorlash, ular ishti-
rokidagi quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qilish:

1. U o'z so'zida ohista davom etdi.
2. Men Buxorodagi dugonamga tez-tez xat yozib
turaman.

3. Paxtakorlar hormay-tolmay mehnat qildilar.

4. Sekinroq gapirsangiz bo'lmaydimi?

5. Kunlar asta-sekin o'ta boshladi.

6. Toma-toma ko'l bo'lur.

4. Yangi grammatik mavzu. O'quvchilarga qoidada
berilgan misollar o'qitilib, ma'nodosh so'zlar vositasida
gaplar tuzdiriladi. Masalan:

*Mehmonlar zardo'zi do'ppilarni hayrat bilan
(hayratlanib) tomosha qildilar.*

Ushbu ma'nodosh so'z va so'z birikmalarini yordamida
gap tuzishda 79- mashqdan foydalaniш mumkin. Shu tarzda
yangi mavzu mustahkamlanib olingach, o'quvchilarga 78- mashq topshirig'i bajartiriladi. O'quvchilar „Zardo'zlik
fabrikasida“ rasmi asosida matn tuzadilar. Avval rasmida
uchragan notanish so'zlar o'qituvchi yordamida tarjima
qilinadi, shundan so'ng o'quvchilar rasmni tasvirlay
boshlaydilar. Rasmni tasvirlashda oldingi darslarda berilgan
so'z va so'z birikmalarini ham esga olish va nutqda qo'llashga
e'tibor qilish darkor. O'quvchilar rasm asosida „Zardo'zlik
fabrikasida“ mavzusida matn tuzadilar va berilgan savollarga
javob beradilar. So'ngra zardo'zlik namunalarini bo'lgan milliy
kiyimlar namoyish qilinadi, o'quvchilar ularni ta'rif-
laydilar, o'qituvchi esa ular qanday mehnat natijasida
yuzaga kelishini, bular ayni vaqtida san'at asari ham
hisoblanishi, shuning uchun xorijlik sayyoхlar ko'pincha
ana shunday liboslarni, zardo'zlar tikkan kashtali buyum-
larni esdalik sovg'asi sifatida xarid qilib olib ketishlarini
tushuntiradi. Milliy kiyimlarni milliy qadriyat sifatida
qadrlash kerakligini uqtiradi. Ana shunday suhbatdan so'ng
o'quvchilar tuzgan matnlar o'qitiladi va suhbatda faol

qatnashgan o'quvchilar baholanib, uyg'a vazifa sifatida „Milliy kiyimlar“ mavzusida ijodiy insho yozib kelish, shuningdek, „To'maris“ afsonasining 3- qismini o'qib, so'zlashga tayyorlanib kelish topshiriladi.

Darslikning 68- betidagi grammatik qoida bilan tanishish. Ushbu grammatik qoida orqali o'quvchilarga o'zbek tilida ravishdoshlar ko'makchili birikmalarga sinonim bo'lib qo'llanishi mumkinligi haqida ma'lumot oladilar. O'quvchilarga qoidada berilgan misollar o'qitilib, ma'nodosh so'zlar vositasida gaplar tuzdiriladi. Masalan: *Mehmonlar zardo'zi do'ppilarni hayrat bilan yoki hayratlanib tomosha qildilar*.

Ushbu ma'nodosh so'z va so'z birikmalari yordamida gap tuzishda o'quvchilar 79- mashqdan foydalanishlari mumkin. Masalan: *ilhom bilan — ilhomlanib. Men zardo'zi kashtalarни ilhom bilan tikaman. Mehmonlar mening qilayotgan ishimni ilhomlanib kuzatishdi*.

Yangi grammatik qoidani mustahkamlash uchun 79- mashq namunadagidek bajartiriladi. O'quvchilar mashqda ajratib ko'rsatilgan barcha so'zlarni shu tarzda ma'nodosh so'zlar bilan almashtirib ko'chirib yozadilar. Bu ularning nutqini boyitishga katta yordam beradi.

5. O'tilganlar yuzasidan takrorlash, mustahkamlash.

6. O'quvchilar bilimini baholash.

☞ *Uyg'a vazifa:*

1) „Milliy kiyimlar“ mavzusida mustaqil matn tuzish, uni so'zlashga tayyor bo'lish.

2) „To'maris“ afsonasining 2- qismini o'qib kelish.



39 - DARS

MEHNATNING NONI SHIRIN

📘 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish; o'tilgan leksik va grammatik materiallarni takrorlash.

♩ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni mehnat-

sevar va halol bo'lishga undash, ko'cha qoidalariga rioya etishga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** tarqatma kartochkalar, darslik, lug'at.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot b) uy vazifasini tekshirish	2 daqiqa 3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash: a) savol-javoblar b) kartochkalar bilan ishlash	5 daqiqa 10 daqiqa
3	Rivoyat tahlili	15 daqiqa
4	„Ko'ngilsiz voqeа“ matnini o'qish	7 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	3 daqiqa

 **Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism: Yangiliklar haqida axborot, savol-javoblar.

2. Uy vazifasini tekshirish:

a) o'quvchilarning „Milliy kiyimlar“ mavzusida tuzilgan uy insholarini o'qitish;

b) „To'maris“ afsonasi haqida suhbatlashish.

Tarqatma kartochkalar bilan ishlash.

1- kartochka

So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gap tuzing.

1. С радостью. 2. С удивлением 3. С сожалением.

2- kartochka

Quyidagi maqollarni to'ldiring:

1. Mehnatdan kelsa boylik,
2. Daryo suvini bahor toshirar,
3. ..., katta-katta osharsan.

3- kartochka

Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying:

1. Men onamni bilan kutib oldim.
2. Ular bir-biriga bilan bosh chayqab qo‘yardilar.
3. Sayyoohlар baland minoralarning hashamatiga bilan qaradilar.

4- kartochka

Savollarga javob bering:

1. Siz Buxoro shahrida bo‘lganmisiz?
2. O‘zbek milliy kiyimlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Chet elliq sayyoohlар har yili O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlarida bo‘ladilar?
3. Yangi mavzu: „Mehnatning noni shirin,,,

O‘quvchilarga 86- mashqda berilgan rivoyat o‘qitiladi. O‘quvchilar matndan harakat belgisini bildiruvchi so‘zlarni aniqlab, har bir gapga savol tuzadilar. So‘ngra matnnning qisqacha mazmunini so‘zlab beradilar. Rivoyatda nima nazarda tutilgani, unga nima uchun „Mehnatning noni shirin,, deb sarlavha qo‘yish mumkinligi to‘g‘risida suhbatlashiladi.

4. So‘ngra 81-mashqdagi „Ko‘ngilsiz voqeа“ matni o‘qitiladi, mazmuni so‘zlatiladi.

☞ *Uyga vazifa:* matnni davom ettirish va mashq topshiriqlarini bajarish, shuningdek, „To‘maris“ afsonasining oxirgi 4- qismini o‘qib kelish. O‘quvchilar bilimi baholanib, dars yakunlanadi.

IX MAVZU: SPORT — SALOMATLIK GAROVI



40- DARS

ALPOMISHLAR YURTIDA ALP YIGITLAR BELLASHUVI

Darsning ta’limiy maqsadi: o‘zbek tilidagi o‘rin-joy munosabatini bildiruvchi so‘zlar bilan tanishtirish, ushbu ma‘nodagi so‘z birikmalari va gap tuzilishini o‘rgatish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirish; o'zbek sport turlari bilan tanishtirish.

 **Darsning jihozlanishi:** mavzuga oid qo'shimcha adabiyotlar, rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) sport haqida suhbat; b) talafluz mashqlari	5 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash a) „Ko'ngilsiz voqeа“ mavzusidagi ijodiy bayonni o'qish; b) „To'maris“ afsonasi bo'yicha suhbat	10 daqiqa
3	Yangi grammatik mavzu bilan tanishish	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash a) kartochkalar bilan ishlash b) mashqlar bajarish	10 daqiqa
5	„Algomishlar yurtida alp yigitlar bellashuvi“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
6	Savol va topshirirqlarga og'zaki javob berish	3 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** mavzu boshida berilgan savol va topshiriqlar asosida suhbat o'tkaziladi.

Tashkiliy qism: o'qituvchi bugungi yangi mavzu — „Sport — salomatlik garovi“ mavzusi boshlanishini aytib, darsni o'quvchilar bilan sport haqida suhbat uyuştirishdan boshlaydi:

1. Ayting-chi, bolalar, siz sportga qiziqasizmi?
2. Sportning qaysi turlarini bilasiz?
3. O'zbekistonda sportning qaysi turlari rivojlangan? (kurash, chavandozlik, qilichbozlik, dorbozlik).

4. O'zbekistondagi mashhur sportchilardan kimlarni bilasiz?

Savollarni shu tariqa o'quvchilarning o'zları ham davom ettirishlari mumkin.

Uy vazifasini tekshirish: a) „Ko'ngilsiz voqeа“ matni bo'yicha o'quvchilar yozib kelgan ijodiy bayonlarni o'qitish;

b) „To'maris“ matnining mazmunini rus tilida so'zlatish.

Yangi grammatik mavzu: O'rinn-joy ma'nosini ifodalash.

Darslikning 74- betidagi grammatik qoidani yaxshilab o'qitish orqali o'zbek tilida o'rindosh ma'nosini ifodalovchi so'zlar, ularning so'roqlari, gapdagi o'rni haqidagi grammatik ma'lumot tushuntiriladi. O'quvchilarning o'zlariga ham qoidadagi kabi misollardan tuzish topshiriladi. Eng yaxshi tuzilgan gaplarni doskaga yozdirish o'rinn-joyni anglatuvchi so'zlarning shakli va bog'lanishini ajratib ko'rsatish kerak. Ushbu grammatik ma'lumotni mustah-kamlash uchun kartochkalar bilan ishlashni tashkil etish yaxshi natija beradi.

1- kartochka

Savollarga javob bering:

1. Siz sportning qaysi turiga qiziqasiz?
2. Maktabimizdagи sportchilardan kimlarni bilasiz?
3. Nima uchun sport bilan shug'ullanish kerak?

2- kartochka

Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying:

1. Menga muz ustida ... juda yoqadi.
2. Sportning ..., ..., ..., ..., ... kabi turlarini bilaman.
3. O'zbekistonliklar ..., ..., ... bilan faxlanadilar.

3- kartochka

Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing:

1. Chet elga, chet eldan, chet elda.
2. Toshkentda, Toshkentgacha, Toshkentdan.
3. O'zga yurtlarda, o'zga yurtlarga.

So'ngra 82- mashq topshirig'i bajartiriladi. Ushbu mashq uchun berilgan matn, ayni paytda, o'quvchilarning avvalgi

darsda olgan bilimlari va uygaga berilgan „To‘maris“ haqidagi adabiy o‘qish mavzusiga ham bog‘lanadi. O‘qituvchi avval 1- mashqda berilgan matndagi notanish so‘zlar bilan o‘quvchilarni tanishtirishi lozim. So‘ngra matn ovoz chiqarib o‘qitiladi va mazmuni so‘zlattiriladi. O‘quvchilar matn bo‘yicha o‘zaro suhbatlashish va savollarga javob berish orqali qadimgi Sharqda mavjud bo‘lgan sport turlari: chavandozlik, qilichbozlik, nayzabozlik, kurash haqida ham ma‘lumotga ega bo‘ladilar. 83- mashq ushbu mashqning tadrijiy davomi bo‘lib, undagi topshiriqlar yozma ravishda bajariladi. So‘ngra o‘zbek tilida o‘rin-joy ma’nosini ifodalovchi so‘zlar qanday qo‘sishimchalar bilan qo‘llanishi, ularning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi va qaysi so‘zga bog‘lanishi tushuntiriladi va darslikdagi grammatik qoida bilan tanishtiriladi. Ushbu grammatik qoidani mustahkamlash uchun o‘quvchilarga matn asosida so‘z birikmalari va gaplar tuzdiriladi. **N a m u n a :**

1. O‘zbekistonda (qayerda?) turli millat vakillari yashaydi.
2. O‘lkamizga (qayerga?) har yili chet eldan mehmonlar tashrif buyurishadi.
3. Yaponiyadan (qayerdan?) kelgan mehmonlar orasida mening tanishim ham bor edi.
4. Uydan (qayerdan?) maktabgacha (qayergacha?) 5 daqiqali yo‘l.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimi baholab bo‘lingach, yangi mavzu: „Alpomishlar yurtida alp yigitlar bellashuv“ haqida suhbatlashiladi. Ushbu matn o‘quvchilarga birma-bir o‘qitib chiqiladi. Notanish so‘zlar lug‘atdan topdirilib, ma’nosи izohlanadi.

nafaqat — не только

alp, polvon — богатырь, силач

bellashuv — состязание

e ‘tirof etmoq — признавать

milliy kurash — национальная борьба

ilk — впервые

targ'ib etmoq — пропагандировать

mutaxassis — специалист

qiziqish — интерес

Matnga nima uchun shunday sarlavha qo'yilgani o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

☞ ***Uyga vazifa:*** matnni yaxshilab o'qish, savol va topshiriqlarga javob yozish va mashq topshirig'iga ko'ra payt va o'rinn-joy ma'nosini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozib kelish.



41- DARS

SPORT TURLARI

Darsning ta'limiy maqsadi: o'rinn-joy ma'nosini bildiruvchi so'zlar, ularning yasalishi bilan tanishish; lug'at ishi. O'quvchilarni o'zbek xalqining milliy sport turlari bilan tanishtirish, sport anjumanlari, musobaqalari haqida suhbatga chorlash.

☝ ***Darsning tarbiyaviy maqsadi:*** o'quvchilarni sportga qiziqtirish, sport turlari bilan shug'ullanishga chaqirish.

📋 ***Darsning jihozlanishi:*** darslik, mavzuga oid qo'shimcha materiallar, rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: sport xabarları bo'yicha axborot	3 daqiqa
2	O'tilgan grammatik qoidani so'rash	5 daqiqa
3	„Alpomishlar yurtida alp yigitlar bellashuvi“ matni tahlili: a) kug'at ishi b) matnni so'zlab berish; d) savollarga yozma javoblarni tekshirish	10 daqiqa
4	Yangi grammatik qoida bilan tanishish	5 daqiqa

5	Grammatik qoidani mustahkamlash: a) tub va yasama o'rin-joy otlari va ravishlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzish; b) mashqlar bajarish	10 daqiqa
6	„Sport turlari“ mavzusida rasmlar asosida suhbat	10 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa



Darsning borishi:

1. Sport xabarlari bo'yicha axborotlarni tinglash.
2. Uyga berilgan vazifani tekshirish: o'quvchilarga „Alpomishlar yurtida alp yigitlar bellashuvi“ matni gapirtililadi. Savol va topshiriqlarning bajarilishi tekshiriladi. Yangi so'zlar ma'nosi izohlatiladi.
3. Yangi grammatik mavzu: „Yodda tuting“ ruknida berilgan o'rin-joy ma'nosini ifodalovchi tub va yasama otlar, ravishlar o'qitiladi, ular ishtirokida so'z birikmalari tuzdiriladi. So'ogra 85- mashqni mustaqil ish sifatida bajarish topshiriladi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan ayrim so'z birikmalari va gaplar doskada yozdirilib, tahlil qildiriladi.

O'quvchilar bilan darslikning 76- betidagi rasmlar asosida sport turlari haqida suhbat tashkil etiladi. O'quvchilardan har bir sport turi bo'yicha eng kuchli sportchilar haqida, ushbu sport turlarining qayerdan kelib chiqqanligi haqida so'rash mumkin.

Grammatik tahlil va suhbatda faol qatnashgan o'quvchilar baholangach, 87- mashqda berilgan „Как произошли шахматы?“ rus tilidagi matnni o'zbek tiliga o'girib kelish va o'rin-joy munosabatini bildiruvchi so'zlarning rus va o'zbek tillarida ifodalanishini qiyoslab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

4. O'quvchilar bilimini baholash.



Uyga vazifa: 1. 4- mashq (yozma ravishda).

2. Tarjima matni bo'yicha suhbatga tayyorlanish.



42 - DARS

DORBOZLIK

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda milliy sport turlariga qiziqish uyg'otish.

Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarga milliy sport turlarida bo'lmish — dorbozlik haqida ma'lumot berish; o'zbek tilidagi o'rinni joy ma'nosini ifodalovchi ot ko'makchilar va ularning qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

Darsning jihozlanishi: darslik, mavzuga oid qo'shimcha materiallar, adabiyotlar, dorbozlik haqida rasmlar, „Dorbozlar“ filmidan parcha.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot b) shaxmat bo'yicha suhbat	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish va baholash	8 daqiqa
3	O'tilganlarni mustahkamlash	7 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot	5 daqiqa
5	Mustahkamlash mashqlari	5 daqiqa
6	„Dorbozlik“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
7	Savol va topshiriqlar	4 daqiqa
8	Uyga vazifa	1 daqiqa

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: a) avval hafta yangiliklari haqida axborot eshitiladi;
b) sportning shaxmat turi, uning kelib chiqishi, shaxmat vatani haqida suhbatlashiladi. „Shaxmat — aql gimnastikasi“ tasviriy ifodasining mazmunini sharhlash.
2. Uy vazifasini tekshirish: tarjima matnnini o'qitib, mashqlarni esa daftarlarni ko'rib tekshiriladi.

3. O'tilganlarni mustahkamlash uchun matndagi o'rinoyni ifodalovchi so'zlarni takrorlash, ular ishtirokida gaplar tuzdirish maqsadga muvofiq.

4. Yangi grammatik mavzu: o'rin-joy ma'nosini ko'makchi so'zlar vositasida ifodalash.

O'quvchilarga o'zbek tilidagi o'rin-joy ma'nosini faqat otlar, ravishlar bilangina emas, balki ko'makchi so'zlar vositasida ham ifodalanishi tushuntiriladi va darslikning 77- betidagi grammatik qoida o'quvchilarga o'qitiladi.

5. Yangi grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 88- mashq avval og'zaki, so'ngra yozma bajartiriladi.

6. „Dorbozlik“ matni ustida ishslash. Bunda ishni quydagicha tashkil etish mumkin:

a) matnga oid yangi so'zlarni tushuntirish;

dorbozlik — канатоходство

taxminan — примерно

ko'pincha — часто

yig'ilmoq — собираяться (где либо)

masxaraboz — клоун

polvon — силач

alohida — отдельно

b) matn bilan tanishtirish. O'quvchilarga matnni gaplarning talaffuziga, ohangiga e'tibor berib o'qittirish, gaplarning mazmunini so'rash, agar imkonи bo'lsa, „Dorbozlar“ filmidan lavha tomosha qilinsa, darsning jonli va qiziqarli o'tishiga katta yordam berar edi.

d) „Savol va topshiriqlar“dagi 5- topshiriqni yozma ravishda bajarishni tushuntirish. Namuna: *o'zbek dorbozları* — *O'zbek dorbozları chet ellarda o'zlarining mahoratlarini namoyish etdilar va tomoshabinlarni lol qoldirdilar.*

7. O'quvchilar bilimini baholash.

☞ **Uyga vazifa:** „Dorbozlik“ matnidagi savol va topshiriqlarga 5- topshiriqni namuna asosida yozma bajarib kelish.



43- DARS

UCH BUYUK TABIB

Darsning ta'limiy maqsadi: mashhur sarkardalar haqida ma'lumot berish; sportchilar haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: sport bilan shug'ullanishning salomatlik uchun foydasi katta ekanligini tushuntirish;

Darsning jihozlanishi: Mashhur sarkardalar, sportchilarning rasmlari, ular haqida yozilgan kitoblar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) sport yangiliklari b) sport turlari bo'yicha suhbat	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'zlash: „Dorbozlik“ matni tahlili	10 daqiqa
3	O'tilgan mavzuni mustahkamlash: (savol va topshiriqlarga javob berish)	5 daqiqa
4	Yangi mavzu: „Uch buyuk tabib“ matni ustida ishlash	15 daqiqa
5	„O'zbek polvonim“ she'rini ifodali o'qish va mazmunini so'zlash.	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi: darsni sport turlari bo'yicha suhbat bilan boshlash mumkin. Bunda o'quvchilardan O'zbekistonning va jahoning taniqli sportchilari, olimpiada o'yinlari, sportning eng qadimgi turlari haqida so'rash mumkin. O'quvchilar ana shu savollar va uyga berilgan 89- mashqdagagi matn asosida sport qayerda qanday rivojlangani haqida, qadimiy Sharqda sportga bo'lgan e'tibor

haqida, mashhur sarkardalar haqida so'zlab beradilar. Sarkardalarning suratlari, ular haqida yozilgan risolalar ko'rsatiladi. Bunday ma'lumotlar o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'ularini hosil qilishga yordam berishi, tabiiy. So'ngra o'quvchilarning „Dorbozlik“ matni bo'yicha uya berilgan savollarga javoblari eshitiladi, 5- topshiriqning yozma javobi daftardan tekshiriladi.

Yangi mavzu: „Uch buyuk tabib“.

Ushbu matnni rollarga bo'lib o'qitish mumkin. Bunda ayniqsa gaplarning ifoda talabiga mos o'qilishiga e'tibor berish kerak. Matnni bir necha juft o'quvchi o'qigach, ular orasidan eng yaxshi o'qiganlarini doskaga chiqarib, g'olibni aniqlash uchun o'tilgan mavzu asosida qo'shimcha savollar berish darsning qiziqarli va samarali bo'lishiga yordam beradi. Savollarni o'quvchilarning o'zları berishlari kerak.

„Bilasizmi?“ ruknida berilgan qiziqarli ma'lumotlar yuzasidan ishni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- 1) matnlarni ovoz chiqarmay o'qib chiqish;
- 2) har bir qismiga alohida savollar tuzib chiqish;
- 3) savollarga og'zaki javob berish;
- 4) savollarga yozma javob berish.

Adabiy o'qish uchun tavsiya qilinayotgan S. Xolbekovning „O'zbek polvonim“ she'ri avval o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilishi, ayrim qiyin so'zlar, atamalar sharhlab berilishi, so'ngra o'quvchilarga o'qitilishi va 3- bandi yod olish uchun vazifa qilib berilishi mumkin.

Bunda, ayniqsa, quyidagi so'zlarning sharhi yoki tarjimasи, ularning qo'llanishi haqida albatta ma'lumot berilishi kerak.

chilni sol — дать подожку

marra — финиш

na'ra tortmoq — оттянуть силой

depsinmoq — стукаться, топать

e'zoz — восхвалять (с уважением)

hiyla-nayrang — хитрость

☞ **Uya vazifa:** 90- mashqdagи „Конные спортивные игры“ matnini o'zbek tiliga o'girish va savollarga javob berish.



44- DARS

SPORT — SALOMATLIK GAROVI

(*O'tilganlarni takrorlash*)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Vatanimizning mashhur sportchilari bilan faxrlanish, o'quvchilarni mashhur sarkardalarimiz kabi kuchli, jasur bo'lib yetishishga chorlash.

Darsning borishi: „Sport — salomatlik garovi“ mavzusidagi darsni „Zukkolar o'yini“ tarzida tashkil etish maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchilar 6 guruhga bo'linadilar. Har bir guruh ma'lum bir sport turi bo'yicha o'ziga nom qo'yadi va o'ziga sardor tayinlaydi. Guruhlarni „Chavandoz“, „Qilichboz“, „Shaxmatchi“, „Dorboz“, „Polvon“, „Tennischi“ deb atash mumkin. Har bir o'yining 1- shartiga ko'ra guruh a'zolari o'zi tanlagan sport turi bo'yicha savollar tayyorlaydi va o'zlari istagan guruhga beradi. Raqib guruhda savolga javob bera olsa, ball oladi va savol berish huquqini qo'lga kiritadi hamda navbatdagi guruhga savol beradi. Javob noto'g'ri yoki qoniqarsiz bo'lsa, ochko ham, savol berish huquqi ham savol bergen guruhda qolaveradi. O'yining 2- shartiga ko'ra esa mashhur sarkadalardan birining portreti ko'rsatiladi va u haqda gapirib berish so'raladi. O'yining 3- shartida esa sport va sog'lom bo'lish mavzusidagi maqollardan birining mazmunini sharhlab berish so'raladi.

Dars oxirida o'quvchilar yig'gan ballar e'lon qilinadi va baholanadi.

X MAVZU: O'LKAMIZDA NAVRO'ZI OLAM



45- DARS

„O'RIK GULLAGANDA“

Darsning ta'limiy maqsadi: o'zbek xalqining milliy bayrami Navro'z haqida, Navro'z udumlari, an'analari

haqida ma'lumot berish; o'zbek tilida payt ma'nosining ifodalaniishi, uning so'roqlari, bog'lanishi haqida ma'lumot berish, payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar, sodda va qo'shma gaplar konstruksiyalarini o'rgatish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga milliy qadriyatlarni e'zozlash, ularni asrab-avaylashni o'rgatish, Navro'z Sharq xalqlarining mehr-muruvvat bayrami ekanligini singdirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, bahor fasliga oid rasmlar, shoir H. Olimjonning she'riy to'plami, fonetik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot eshitish b) talaffuz mashqlari	5 daqiqa 5 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash va baholash	5 daqiqa
3	„O'rik gullaganda“ she'ri ustida ishlash	5 daqiqa
4	Yangi grammatik mavzu	8 daqiqa
5	Mustahkamlash mashqlarini bajarish	8 daqiqa
6	„Yodda tuting“ qoidasi bilan tanishtirish	5 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uygavazifa	4 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars har doimgidek hafta yangiliklari bilan boshlanadi. So'ngra talaffuz mashqlari uchun tayyyorlangan fonetik jadval ilib qo'yiladi: Takror qo'l- langan undoshlar talaffuzi.

O'qituvchi o'zbek tilida takror undosh tovushli so'zlar rus tilidagidan farqli aytishini tushuntirib, quyidagi so'zlarni o'quvchilarga to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatadi: avval, tizza, katta, sodda, varrak, g'alla, pashsha, gumma, tikka.

Avval o'quvchilar diqqati darslikda berilgan bahor lavhasi rasmi va H.Olimjonning „O'rik gullaganda“ she'ridan keltirilgan parchaga qaratiladi. O'qituvchining o'zi esa ushbu she'mi obrazga kirgan holda to'liq yod aytib berishi kerak. So'ngra she'r mazmuni, shoir haqida hamda derazadan ko'rinib turgan bahor fasliga uyg'unligi haqida biroz tushuncha beradi. So'ngra she'r 3—4 o'quvchiga ifodalni o'qitiladi. Ayni vaqtida o'quvchilar diqqati vaqt-payt tushunchasiga qaratiladi va vaqtini qadrlash, undan unumli foydalanish to'g'risida biroz suhbat uyushtiriladi.

So'ngra o'quvchilarga grammatika ruknidagi qoida o'qitiladi va o'qituvchi o'zbek tilida payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar gapda kesimga bog'lanib kelishini misollar orqali tushuntiradi. 92- mashq topshirig'i ushbu grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun berilgan bo'lib, unda payt ma'nosidagi so'zlar ajratib ko'rsatilgan. Ayni paytda Sharq xalqlarining tarovatli, ulug' bayrami Navro'z haqidagi bu matn o'quvchilarni qadimiy milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirishga yordam beradi. Umuman, yuqori sinf o'quvchilariga mashqlarda bog'lanishli matnlardan ko'proq foydalanish, har bir mashqda ham grammatik bilimni mustahkamlash, ham yangi leksik material berish vositasida o'quvchilarning nutqini o'stirish va ularning tushunchasini yangi tushunchalar bilan boyitib borish zarur.

O'quvchilarda hosil qilingan nutqiy malaka va yangi fikrlarni mustahkamlash uchun esa mashqlar bo'yicha berilgan savol va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, 92- mashqdan keyin berilgan „Ushbu yangi so'zlar va so'z birikmalarini eslab qoling“ topshirig'i va savol-topshiriqlar o'quvchilarni mashq matnnini qayta-qayta o'qishga, savollarga og'zaki javob berish esa ularning nutqiy malakalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Kuchliroq guruhlarda yoki sinfdagi ayrim kuchliroq o'quvchilardan „Navro'z — mehr-oqibat bayrami“ tushunchasini kengroq izohlatish, umuman, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish haqida kengroq suhbatlashish

ham mumkin. So'ngra 93- mashq topshirig'i yozma bajariladi. Bu mashqni doskada ishlatalish ham mumkin.

☞ **Uyga vazifa:** a) 94- mashqdagagi „Navro'z“ matnini o'zbek tiliga tarjima qilish uchun uyga vazifa sifatida topshirish maqsadga muvofiq; b) darslikning mustaqil o'qish uchun berilgan qismidan „O'rik gullaganda“ she'rini topib, yod olish; d) shoir H. Olimjonning tarjimayi holi bilan tanishish va u haqdagi ma'lumotlarni bilib olish.



46- DARS

NAVRO'Z TAOMLARI

📘 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarga Navro'zda tayyorlanadigan taomlar, Navro'z ko'katlari haqida ma'lumot berish; ularni payt ma'nosini bildiruvchi otlar, sonlar va ravishlar bilan tanishtirish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** Navro'z sayllari rasmi, Navro'z taomlaridan namunalar, Navro'z ko'katlari, grammatik jadval.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot eshitish	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash: a) „O'rik gullaganda“ she'rini yoddan ayttirish; b) H.Olimjon haqida so'rash; d) „Navro'z“ matni tarjimasini tekshirish	15 daqiqa
3	„Navro'z taomlari“ matni ustida ishlash. („Zukkolar o'yini“)	15 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumot bilan tanishish	6 daqiqa

5	Mustahkamlash mashqlarini bajarish	4 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uygavazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars o'zbek tiliga tarjima qilish vazifa qilib topshirilgan „Navro'z“ matnini tekshirishdan boshlanadi. 7-8 o'quvchiga uy vazifasi o'qitilgach, o'quvchilar diqqati „prazdnichnie kushanya“ atamasiga tortiladi va 4-mashqdagi „Navro'z taomlari“ matni o'qitiladi. Ushbu mashq shartini bajarishda o'quvchilarni 4 guruhga bo'lish va har biriga „Yodda tuting“ ruknida berilgan 4 turdag'i Navro'z taomlarining tayyorlanish jarayonini, taomlarning foydali tomonlarini aytib berish topshirig'ini berish, ya'ni guruhlar musobaqasini tashkil etish orqali o'tish mumkin. Bu darsning qiziqarli va ijodiy o'tishiga yordam beradi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

- 1- guruhga topshiriq: Sumalak qanday tayyorlanadi?
- 2- guruhga topshiriq: Halim qanday tayyorlanadi?
- 3- guruhga topshiriq: Ko'k somsaning foydasи va uni tayyorlash jarayonini gapirib bering.
- 4- guruhga topshiriq: Chuchvara bilan ko'k chuchvaraning farqi nimada?

Shuningdek, guruhlar bir-birlariga „Yodda tuting“ ruknidagi vaqt va sanani bildiruvchi so'zlar va payt ravishlari ishtirokida gaplar tuzishga qaratilgan savollar, darslikning mustaqil o'qish uchun berilgan materiallardan, „Navro'z ko'katlari“ mavzusidan ham qo'shimcha savollar berishlari mumkin. Har bir savol 0,5 balldan baholab boriladi. Ushbu musobaqada 97- mashqdagi savollardan foydalanish ham mumkin.

G'olib guruh aniqlangach, o'yin yakunlanadi. Eng faol talabalar va g'olib guruh a'zolari to'plagan ballari e'lon qilingach, o'quvchilar „Grammatika“ bo'yicha berilgan

ma'lumot bilan tanishtiriladi. O'qituvchi 1-2 ta misolni doskaga yozib tushuntingani ma'qul. So'ng ushbu grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun berilgan 96-mashq yozma bajariladi.

☞ *Uyga vazifa:*

1. 98- mashq. Ushbu mashqni bajarishda o'quvchilar berilgan namunadan payt ma'nosini ifodalovchi so'z va so'z birikmalari jadvalidan foydalanib, matnni davom ettiradilar.

2. Payt haqida berilgan maqollarni yod olish va ma'nolarini izohlash.



47- DARS

ONAJONLAR BAYRAMI

Darsning ta'limiy maqsadi: payt ma'nosini qo'shma gaplar vositasida ifodalash, bunday gaplarning tuzilishi va ularda qo'llaniladigan grammatik vositalar haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: onajonlarni e'zozlash, ayollarni hurmat qilish tuyg'ularini shakllantirish.

Darsning jihozlanishi: darslik, shoir A. Oripovning she'rlari to'plami, grammatik jadval, lug'at.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Uy vazifasini so'rash: a) 98- mashqning bajarilishini tekshirish; b) payt ma'noli maqollarni yoddan aytirish	7 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Maqollar mazmunini sharhlatish	4 daqiqa
3	Yangi grammatik mavzuni tushuntirish	7 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	„Sovg'a“ („Подарок“) matni tarjimasi ustida ishslash.	10 daqiqa

6	„Alisherning onasi“ she'ri ustida ishlash	5 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash	1 daqiqa
8	Uyga vazifa	1 daqiqa



Darsning borishi: 47- darsda uy vazifasi 5—6 o'quvchiga o'qitilib, qolganlarining esa daftarlari aylanib yurib tekshirib chiqilgach, vaqt, payt to'g'risidagi maqollar yoddan ayttiriladi, maqollardagi payt ma'nosini ifodalanovchi so'zlar so'rab chiqiladi va shunga ko'ra baholanadi. So'ngra yangi grammatik material tushuntiriladi. O'qituvchi payt munosabati qo'shma gaplar vositasida ham ifodalanishini aytib, o'zbek tilidagi payt ergash gapli qo'shma gaplar konstruksiyalarini doskaga yozib ko'rsatishi yoki darslikda berilgan chizmalarga o'quvchilar diqqatini jalb etishi lozim. O'quvchilar ushbu gap qurilmalarini o'z daftarlariga yozib oladilar. O'quvchi bu o'rinda shu ma'lumotni mustahkamlash uchun payt ma'nosining so'zlar va so'z birikmalarini vositasida sodda gaplar orqali ifodalanishi va qo'shma gaplarda qo'llanadigan qo'shimchalar, ularning gapdagi o'rni va tinish belgilaringin qo'yilishini yana bir bor tushuntirib bergandan keyingina mustahkamlovchi mashqlarga o'tish mumkin. Buning uchun 100- va 101- mashqlar bajariladi. Bunda avval, 101- mashqni og'zaki, so'ngra 100- mashqni esa doskada yozma bajarilgani ma'qul. Ushbu mashqlarni bajarishda barcha o'quvchilar jalb qilinishi zarur. Ayniqsa, yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilarni albatta doskaga chiqarish kerak. So'ngra 102- mashqda berilgan „Podarov“ („Sovg'a“) matnini o'zbek tiliga tarjima qildiriladi. Buning uchun avval o'quvchilarga mustaqil fikrlash uchun bir oz vaqt beriladi. O'qituvchi bu vaqtida parta oralab yurib, ishning borishini kuzatishi, qiynalayotgan o'quvchilarga yo'llanma berish lozim. Ayrim so'zlar va birikmalar tarjimasi lug'atdan topdirilib, doskaga yozib qo'yilishi ham mumkin. Masalan:

приятен — yoqimli

ценность — qadriyat

не зарабатывающие — ishlab topilmagan

сувенир — sovg'a

пустячок — keraksiz buyum

Tarjima jarayoni tugagach, mumkin qadar ko'proq o'quvchilarga o'qitib tekshiriladi, xatolar tushuntirib beriladi. Bu o'rinda kimga qanday sovg'a tayyorlash haqida bir oz suhbat uyuştirish ham mumkin. So'ngra ushbu matnni uyda yaxshilab bexato yozib kelish va shu asosda 102- mashq topshirig'i — „Mening onam“ mavzusida kichik insho yozib kelish topshiriladi. Shuningdek, adabiy o'qish uchun berilgan O'zbekiston xalq shoiri A. Ori povning „Alisherning onasi“ she'rini yod olib kelish topshiriladi. „Zulmat ichra nur“ qissasidan olingan parcha, „Iste'dodli yoshlar homiysi“ matni ustida ham ishlashni boshlash tavsiya etiladi. Mazkur matnning ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgani uchun kichik-kichik qismlarga bo'lgan holda o'qib kelish va har darsda o'quvchilarga o'qiganlarini so'zlab berishni talab qilib borish lozim. Bunda, albatta, avval qiyin so'zlarning tarjimasi bilan tanishtirish, ayrim arab tilidan o'zlashgan va arxaik (eskirgan) *andog'*, *iste'dod*, *qilqalam*, *naqqosh*, *musavvir*, *mavlono* kabi so'zlarga izoh berish, ularning talaffuzini o'rgatish kerak bo'ladi.

☞ *Uyga vazifa:* „Mening onam“ mavzusida kichik insho yozib kelish.



48- DARS

O'LKAMIZGA NAVRO'Z KELDI

 *Darsning ta'limiyligi maqsadi:* bahor faslida tabiatda yuz beradigan o'zgarishlar haqida ma'lumot berish; payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar, sodda va qo'shma gaplar konstruksiyalarini nutqda qo'llashga o'rgatish.

☝ *Darsning tarbiyaviy maqsadi:* o'quvchilarga tabiat hodisalarini kuzatishni, tabiatdan ilhomlanish, uni asrashni, va'daga vafo qilishni o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, grammatik va fonetik jadvallar, peyzaj tasviri ifodalangan rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot eshitish b) talaffuz mashqlari	5 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash: a) „Alisherning onasi“ she'rinin yoddan aytish; b) „Mening onam“ mavzusidagi uy inshosini tekshirish	15 daqiqa
3	O'tilgan grammatik mavzularni mustahkamlash	5 daqiqa
4	99- va 103- mashqlarni bajarish	8 daqiqa
5	Rasm asosida va tabiatni kuzatish asosida insho yozish	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa („Va'daga vafo“ matnini o'qish)	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** Dars yangiliklar haqida axborot bilan boshlanadi. So'ngra 2 daqiqlik talaffuz mashqlari o'tkaziladi.

„j“ va „ch“ tovushining talaffuziga e'tibor berib o'qing:

„j“ tovushi

jo'ja
jo'ra
jizza

„ch“ tovushi

chug'urchuq
chora
chizma

So'ngra A.Ori povning „Alisherning onasi“ she'ri yod-dan so'raladi. „Mening onam“ mavzusida yozib kelingan uy insholari o'qitib tekshiriladi. O'tilgan grammatik mavzular og'zaki takrorlanib, 99- va 103- mashqlar yordamida mustahkamlanadi. O'quvchilar 99- mashq matnini o'qib, tabiat hodisalarini kuzatish va tasvirlashni

o'rganadilar. So'ngra o'zлari peyzaj tasviri asosida kichik insho yozadilar. „O'lkamizga Navro'z keldi“ mavzusida o'quvchilar bilan bahor faslida tabiatda yuz beradigan o'zgarishlar haqida, tabiat hodisalari, bahor faslining uyg'onish fasli ekanligi, bahordagi bayramlar haqida suhbatlashish, bahorga, Navro'zga, onalarga bag'ishlab yozilgan she'rlardan yod oldirish rusiyabon o'quvchilarni ana shu mavzu doirasida keng fikrlashga va muloqot yuritishga o'rgatadi. Aynan, 99- mashq va 103- mashqlar shu maqsadga yo'naltirilgandir. Har ikkala mashqni ham avval og'zaki, so'ngra yozma bajartirish maqsadga muvofiq.

So'ngra sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek haqidagi „Va'daga vafo“ matnini o'quvchilarga birma-bir o'qitib chiqish, mazmunini so'zlatish, payt ma'nosini ifodalovchi gaplarni esa yozdirib borish kerak. Ushbu adabiy o'qish matni orqali o'quvchilar buyuk alloma Mirzo Ulug'bekning bolalik yillari, sohibqiron Amir Temur nabirasining iste'dodini rivojlantirishga bergen e'tibori haqida, ilm va hunarning foydasi to'g'risida yana bir bor ma'lumot oladilar.

Shundan keyin o'quvchilar bilimi baholanadi va dars yakunlanadi.

☞ *Uyga vazifa:*

- 1) „Va'daga vafo“ matnini o'qib kelish;
- 2) tabiat hodisalarini kuzatish asosida ijodiy ish yozib kelish topshiriladi.

XI MAVZU: O'ZBEKISTON— QADIMIY SHAHARLAR O'LKASI



49- DARS

SAMARQAND — SHARQ DURDONASI

Darsning ta'limiy maqsadi: o'zbekistonning qadimiy shaharlari, milliy madaniy merosimiz bo'lgan tarixiy obidalar, u shaharlarda tavallud topgan buyuk allomalarimiz

haqida ma'lumot berish, Samarqand shahri bilan kengroq tanishtirish; o'zbek tilidagi maqsad ma'nosini ifodalashda qo'llanadigan grammatik vositalar, sintaktik qurilmalar bilan tanishtirish, ularning nutqda qo'llanishini tushuntirish.

⌚ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda o'z Vatani bilan faxlanish tuyg'usini uyg'otish, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylashga o'rnatish.

📋 **Darsning jihozlanishi:** O'zbekistonning geografik xaritasi, Samarqand tasviri tushirilgan rasmlar, shoir E. Vohidovning she'riy to'plami.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	O'tilganlar bo'yicha takrorlash: 1) o'zaro savol-javob; 2) kartochkalar bilan ishlash	6 daqiqa
2	„Va'daga vafo“ matni ustida suhbat	5 daqiqa
3	E. Vohidovning „O'zbegim“ she'rini o'qish	5 daqiqa
4	„Biz yashayotgan zamin“ matni ustida ishlash	10 daqiqa
5	Grammatik ma'lumot: maqsad ma'nosini ifodalash	7 daqiqa
6	„Samarqand“ matni bilan tanishish	10 daqiqa
7	O'quvchiilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

⌚ **Darsning borishi:** „O'zbekiston-qadimiy shaharlar o'l-kasi“ mavzusini 4 ta darsga bo'lib o'tish rejalashtirilgan. Mavzuda O'zbekistonimizning butun jahonga mashhur qadimiy shaharlari — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent haqida ma'lumot beriladi, shuning uchun har bir dars bittadan shaharga sayohat tarzida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Dars „O'lkamizga Navro'z keldi“ mavzusi bo'yicha barcha o'tilgan mavzular, grammatik ma'lumotlar yuza-

sidan savol-javob o'tkazish bilan boshlanadi. O'qituvchi buning uchun savollarni oldindan tayyorlab kelishi lozim. Ayrim savollarni frontal tarzda berish, ayrim savollarni kartochkalarga yozib, o'quvchilarga tarqatish kerak bo'ladi. Shunday qilinganda nofaol o'quvchilarni ham baholash imkonи paydo bo'ladi. So'ngra uyga berilgan „Va'daga vafo“ matni ustida suhbat tashkil qilinadi. O'quvchilar sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi alloma Mirzo Ulug'bek haqidagi bu rivoyatning mazmunini so'zlab beradilar. O'qituvchi buyuk sohibqironning farzandlar tarbiyasiga, ayniqsa ularning ilm olishiga naqadar katta e'tibor qaratganligini, shu bois temuriylar orasidan Mirzo Ulug'bekdek buyuk allomalar, Alisher Navoiydek buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqanligini, ularning ko'pchiligi Samarqand shahridagi madrasalarda o'qiganliklarini aytib bu mavzuni xulosalaydi.

So'ngra O'zbekistonning butun jahonga dovrug'i ketgan Samarqand shahri, uning tarixiy me'morchilik yodgorliklari, Samarqandda tug'ilib o'sgan va ta'lim olgan buyuk allomalarimiz haqida suhbatlashiladi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini O'zbekiston xalq shoiri E. Vohidovning „O'zbegim“ qasidasidan berilgan parcha hamda savol va topshiriqlarga jalb qilib, qadimiy shaharlarimiz, ularning butun jahonga mashhur obidalari, muzey-shahar deb nomlanishining sababi, O'zbekistonga ko'plab xorijliklarning kelishdan maqsadi haqida suhbat uyuشتiradi.

So'ngra „Biz yashayotgan zamin“ matni (105- mashq) o'qitiladi va har bir shaharning qayerda joylashgani O'zbekiston xaritasidan topdiriladi, qadimiy nomlar izohlanadi. Bunda 105- mashq so'ngida berilgan „Eslab qoling“ ruknidan foydalanish ham mumkin. Matndagi ma'lumotlar asosida biroz suhbatlashilgach, mashq topshirig'i bajartiriladi. O'quvchilar mashqda ajratib ko'rsatilgan payt ma'nosini ifodalovchi so'zlarni izohlab beradilar. Shu tarzda o'tilganlar mustahkamlanadi. So'ngra o'qituvchi mashqdagи maqsad ma'nosini ifodalovchi gaplarga e'tiborni

qaratadi va o'quvchilarga maqsad ma'nosining ifodalananishi haqida ma'lumot beradi. Darslikdagi grammatik ma'lumotni o'qitish orqali dars mustahkamlanadi. Shundan keyingina 106- mashqni yozma bajartirish mumkin. O'quvchilar mashq topshirig'iga ko'ra nuqtalar o'rniغا payt, sabab va maqsad ma'nosini ifodalovchi so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldirishlari kerak. Buning uchun ular bir marta „Biz yashayotgan zamin“ matnini o'zlar o'qib chiqadilar va undagi ma'lumotlardan foydalaniib, topshiriqnı mustaqil bajaradilar. Shu tarzda avvalgi mashqda olingan ma'lumotlar o'quvchilar nutqiga singdiriladi.

O'qituvchi ushbu darsda O'zbekistonning durdona shaharlaridan biri — Samarqand haqida suhbatlashilishini ayтиб, Samarqand tasvirlangan rasmlarni doskaga ildiradi, shuningdek, o'quvchilar diqqatini darslikdagi Registon maydoni rasmiga ham jalb qiladi. So'ngra „Samarqand“ matni (107- mashq) o'qitiladi. Matnda berilgan tarixiy joylar nomlarini eslab qolish uchun daftarga ko'chirtiriladi. So'ngra matn so'ngida berilgan savollar asosida og'zaki savol-javob tashkil qilinadi. Bu o'rinda Samarqandga borgan o'quvchilardan 3—4 tasi o'z taassurotlari to'g'risida so'zlab berishlari ham mumkin. Shundan so'nggina ushbu savollarga yozma javob yozdirish mumkin.

☞ **Uyga vazifa:** Topshiriqnı davom ettirish, shuningdek, 108- mashqni yozma bajarib kelish.



50- DARS

BUXORO — MUZEY-SHAHAR

📘 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarga Buxoro shahri haqida, uning nima uchun muzey-shahar deb atalishi haqida ma'lumot berish; payt, o'rin-joy va maqsad ma'nolarini ifodalovchi so'zlar bilan o'quvchilar nutqini boyitish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda Vatanimiz,

uning tarixi bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish, ularni madaniy merosimizni asrab-avaylash, qadrlashga o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, lug'at, fonetik jadval, Buxoro va Samarqand haqidagi videofilmdan lavha yoki bukletlar, rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism (yo'qlama, o'tiladigan mavzu bo'yicha kirish so'zi)	2 daqiqa
2	Samarqand va Buxoro haqidagi videofilmdan parcha (sharhlar bilan)	10 daqiqa
3	Film taassurotlari haqida suhbat, savol-javob	10 daqiqa
4	Samarqand bo'yicha uy insholarini o'qish	8 daqiqa
5	„Buxoro — muzey shahar“ matni bilan tanishish	8 daqiqa
6	Yana bir bor filmni namoyish qilish va savollarga og'zaki javob berish	5 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyg'a vazifa: savollarga yozma javob yozish va 110- mashqni bajarish	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** ushbu dars Samarqand va Buxoro haqidagi film namoyishi bilan boshlansa, maqsadga muvosiq bo'ladi. Film namoyish qilingach, o'qituvchilar Samarqand haqida so'zlab beradilar hamda uy insholarini o'qib beradilar. So'ngra 109- mashqda berilgan „Buxoro — muzey shahar“ matni o'qitiladi, tarixiy joylar nomi daftarga yozdiriladi va mashq bajarilgandan keyin berilgan savollar asosida savol-javob uyuşdırılıdı. Savol-javobda o'tilgan grammatik mavzular bo'yicha ham so'rash kerak. O'quvchilar tuzgan matnlaridagi payt, o'rin-joy va maqsad ma'nosini ifoda-lovchi so'zlar aniqlatilib, ularning qanday so'roqqa javob bo'lishi, tub yoki yasama, turdosh yoki atoqli ekanligi, imlosi, gapdag'i o'rni, qaysi so'zga bog'lanishini tahlil qildirib borish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqining

boyishiga yordam beradi. Bunda darslikdagi „Ushbu tarixiy nomlarni eslab qoling“ rukniga ham e'tibor qilish kerak. Shundan so'ng Buxoro haqidagi film yana bir bor ko'satiladi va o'quvchilarga olgan taassurotlari so'zlatiladi.

Uyga vazifa: savollarga yozma javob berish va 110- mashqni bajarish.



5 I- DARS

XIVA — TARIXIY SHAHAR

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga Xiva shahri haqida ma'lumot berish; maqsad ma'nosining qo'shma gaplar vositasida berilishini tushuntirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni milliy-madaniy merosimizni asrab-avaylashga o'rgatish.

Darsning jihozlanishi: darslik, lug'at, Xiva haqidagi rasmlar, grammatik va fonetik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uyga berilgan vazifani so'rash: 1) „Buxoro — muzey-shahar“ matni bo'yicha savollarga javoblar; 2) 110- mashqning bajarilishini tekshirish	7 daqiqa 4 daqiqa
3	„Xiva“ matni ustida ishlash	8 daqiqa
4	O'tilganlarni mustahkamlash (112- mashqdagi savollarga javob yozish)	10 daqiqa
5	Grammatik qoida bilan tanishish	8 daqiqa
6	Yangi mavzuni mustahkamlash (113- mashq og'zaki)	3 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa: „Uch o'g'il“ rivoyatining 1- qismini o'qib kelish	2 daqiqa

☞ **Darsning borishi:** uy vazifasi tekshirib chiqilgach, o'qituvchi Samarqand va Buxoro kabi qadimiylar tarixiy obidalarga boy shaharlardan yana biri Xiva ekanligini aytib, o'quvchilarga Xiva matnnini (111- mashq) o'qitadi. Matnni o'qish jarayonida o'quvchilarga notanish bo'lgan ayrim so'zlar tushuntiriladi. Jumladan:

voha — долина

rasmiy — официальный

muhtasham — прекрасный

inshoot — сооружение

mintaqa — регион kabi.

Xiva haqida savol-javob va suhbatdan so'ng, 112- mashq topshirig'i yozma bajartiriladi. Bunda o'quvchilar berilgan savollarga yozma javob yozadilar va o'zlari maqsad ma'nosini ifodalashga qaratilgan savollar tuzadilar. Shu tarzda o'tilganlar mustahkamlangach, o'quvchilarga yangi grammatik ma'lumot — o'zbek tilida maqsad ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplar qanday konstruksiyada tuzilishi to'g'risidagi grammatik ma'lumot beriladi. O'quvchilar daftalariga maqsad ergash gapli qo'shma gaplarning ifoda vositalari va chizmalarini ko'chirib oladilar. Shundan so'ng 113- mashqni avval og'zaki, keyin yozma bajariladi.

☞ **Uyga vazifa:** „Toshkent — sharq mash'ali“ matni va adabiy o'qish uchun berilgan „Uch o'g'il“ rivoyatining birinchi qismini o'qish va og'zaki suhbatga tayyor bo'lib kelish.



52- DARS

TOSHKENT — SHARQ MASH'ALI

☞ **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarni poytaxt shahar tarixi va hozirgi holati haqidagi ma'lumot bilan tanishtirish; o'tilgan grammatik mavzularni takrorlash.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda Vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, u bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, lug'at, Toshkent haqida rasmlar, M. Shayxzodaning „Toshkentnoma“ qasidasi, H.G'ulomning „Toshkentliklar“ romani.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	O'tilganlarni takrorlash: Samarqand, Buxoro va Xiva haqida savol-javob o'tkazish	5 daqiqa
2	Uyga berilgan vazifani so'rash: 113- mashqni tekshirish	5 daqiqa
3	„Uch o'g'il“ rivoyatining 1- qismi bo'yicha suhbat	5 daqiqa
4	„Toshkent — sharq mash'ali“ matni ustida ishlash.	15 daqiqa
5	O'tilganlarni mustahkamlash: a) savollarga yozma va og'zaki javob berish; b) Toshkent haqida yozilgan asarlar bilan tanushtirish	5 daqiqa 7 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa: a) 115- mashq: „Shahrimdag'i qadimiy obidalar“ mavzusida kichik insho yozish; b) „Uch o'g'il“ rivoyatining 2- qismini o'qish; c) „Zukkolar musobaqasi“ topshiriqlariga tayyorlanib kelish	3 daqiqa

 **Darsning borishi:** darsning boshida o'qituvchi o'quvchilarga Samarqand, Buxoro va Xiva haqida savollar beradi. Savollarni o'quvchilar bir-birlariga berishlari ham mumkin. Qisqacha savol-javobdan so'ng uyga berilgan 113- mashq parta oralab tekshirib chiqiladi va o'quvchilardan maqsad ma'nosining qo'shma gaplar orqali berilishi, bunda qo'llanadigan grammatik vositalar so'raladi. So'ngra „Uch o'g'il“ rivoyatining 2- qismi bo'yicha suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi rivoyatni yana bir bor yaxshilab o'qib, uning asosiy mazmuni nimada ekanligini aniqlashni uyga vazifa qilib topshiradi. Shundan so'ng bugungi mavzu poytaxt shahrimiz — Toshkentga bag'ishlanishini aytib, o'quvchilar diqqatini 114- mashqda berilgan „Toshkent — sharq mash'-ali“ matniga qaratadi. Avval matn o'qitiladi, undagi notanish so'zlar sharhlanadi. O'quvchilar tarixiy sanalar, joylar nomlari, atoqli otlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan daftarlarga ko'chirib yozadilar, shu tarzda o'rinni va payt ma'nosidagi so'zlar takrorlanadi. So'ngra matndan maqsad ma'nosini ifodalovchi gaplar aniqlatiladi va ularga savollar qo'yish orqali maqsad ma'nosining ifodalanishi ham so'rab o'tiladi.

So'ngra matn oxiridagi savollarga og'zaki javob olinadi. O'quvchilar ushbu savollarga javoblarni matndan qidirib topib beradilar. Shundan so'ng o'qituvchi Toshkent Sharqdagi eng yirik shaharlardan biri ekanligini aytib, Toshkent haqida yozilgan asarlar: Toshkentning 2000 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ensiklopediya, M. Shayxzodaning „Toshkentnoma“ qasidasi, H. G'ulomning „Toshkentliklar“ romani haqida gapirib beradi, ushbu asarlar o'quvchilarga ko'rsatiladi, o'quvchilar ularni o'qish, ulardagi ma'lumotlar bilan tanishishga jalb etiladi.

Darsda faol ishtirok etgan, uy vazifasini yaxshi bajargan o'quvchilar baholab chiqilgach, o'qituvchi keyingi darsda „O'zbekiston — qadimiy shaharlar o'lkasi“ mavzusida zukkolar musobaqasi o'tkazilishini, hakamlar hay'atiga maktab ma'muriyati va boshqa o'qituvchilar ham taklif etilishini, bu dars ochiq dars bo'lishini, istasalar, ota-onalar ham ishtirok etishlari mumkinligini aytib, o'quvchilarni 4 guruhga bo'ladi. Musobaqa shartlarini e'lon qilib, o'ziga nom (Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent nomi) va guruh a'zolaridan birini sardor etib tanlaydi.

Ushbu musobaqani yaxshi tashkil etish uchun guruhlarni 3- darsda tuzish va uyda tayyorlanib kelish uchun

quyidagi „Uyga vazifa“ topshiriqlarini berib yuborish maqsadga muvofiqdir.

☞ **Uyga vazifa:** Har bir guruh:

o‘ziga nom qilib berilgan shahar tarixi, obidalari va hozirgi kuni haqida eng ko‘p ma’lumot yig‘ishi va so‘zlab berishi; ushbu shahar haqida ko‘rgazmali burchak tayyorlashi va ularni sharhlab berishi; ushbu shaharda yashab ijod etgan allomalar, shoirlar haqida ma’lumot berishi; ushbu shahar haqidagi she’r, qo’shiq va romanlardan parcha yod aytib berishi shart bo‘ladi.



53- DARS

O’tilganlarni takrorlash va mustahkamlash

ZUKKOLAR O’YINI

■ **Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarning og‘zaki nutqlarini o’stirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

☝ **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarda o‘zbek tilini puxta egallashga, bilim olishlarini kuchaytirish.

53- darsni kolokvium tarzida yoki guruhlارaro „Kim ko‘p biladi?“ zukkolar musobaqasini tashkil etib o‘tkazish darsning qiziqarli va jonli o‘tishiga yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarni 4 guruhga bo‘lish va har bir guruhga nom berib chiqish darkor. 1- guruh — Samarqand, 2-guruh — Buxoro, 3- guruh — Xiva va oxirgi 4- guruh — Toshkent deb nomlanadi.

Har bir guruh uyga vazifa qilib berilgan 4 ta topshiriq bo‘yicha musobaqalashadilar.

Har bir topshiriq 25 balldan baholanadi. Jami ballar yig‘indisi 100 balli. Hakamlar hay’ati, ya’ni jyuri a’zolariga: o‘qituvchining o‘zi, maktab ma’muriyati va boshqa o‘qituvchilarni shuningdek, ota-onalarni ham taklif etgan holda darsni ochiq darsga aylantirish ham mumkin.

Guruhlarga har bir topshiriq bo‘yicha o‘zları tayyorlab kelgan ma’lumotlarni bayon etish uchun 10 daqiqadan

vaqt beriladi. Har bir vazifa hakamlar hay'ati tomonidan guruh a'zolarining to'liq ishtiroki, o'zbek tilidagi nutqining ravonligi, so'zlarning to'g'ri talaffuzi, ma'lumotlarning kengligi va yangilikiga ko'ra 25 ballgacha baholab boriladi.

Darslarda bunday interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil ishlashlariga, ularning ijodkorlik faoliyatining rivojlanishiga, eng muhimi, darslarda berilayotgan grammatik va leksik materiallarni o'ziga singdirib, amalda tatbiq etishga harakat qilishiga yordam beradi. Chunki darslarni bir xil usulda o'tish o'quvchilardagi qiziqishni so'ndiradi, darslarning zerikarli bo'lishiga olib keladi. O'quvchilar bir xil qolipdagi darslarga loqaydlik bilan qaraydilar. Ayniqsa, o'smir yoshidagi — 7—8- sinf o'quvchilariga biron-bir topshiriqni ishonch bilan topshirish, ularga mustaqil fikrlash imkoniyatini berish psixologik jihatdan hamisha eng to'g'ri va samarali usullardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Ammo bu o'rinda o'ta hushyor bo'lish, guruhlarga ball qo'yishda juda xolis bo'lishi, o'quvchilarning har bir intilishini nazardan qochirmaslik, ayniqsa, nofaol o'quvchilarning har bir harakatini rag'-batlantirib borish o'ta muhim. Aks holda, katta xatoga yo'l qo'yilishi mumkin, guruhlarni baholashda yo'l qo'yilgan kichkinagini adolatsizlik o'quvchilarni ushbu fanga bo'lgan qiziqishlarini bir umrga so'ndirib qo'yishi hech gap emas.

XII MAVZU: INSONDAN XOTIRA QOLADI



54- DARS

YAXSHI NOM QOLDIRISH — KATTA BAXT

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarni xayrli va yaxshi ishlar qilishga undash, hayotda yaxshi nom qoldirish baxt ekanligini tushuntirish; sabab munosabatini ifodalovchi so'zlar va nutqiy konstruksiyalar bilan tanishtirish, ularning sinonimini toptirish va nutqda qo'llanishini o'rnatish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga, olamdan o'tganlarning xotiralarini unutmaslikka o'rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, Navoiy hikmatlari, grammatik va fonetik jadval.

Darsning blok-chizmasi


T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot; b) talaffuz mashqlari	5 daqiqa 2 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni va grammatik qoidalarni takrorlash, savol-javob	10 daqiqa
3	Yangi grammatik mavzu: sabab ma'nosini ifodalovchi konstruksiyalar	8 daqiqa
4	Mustahkamlash mashqlari (117- mashq)	5 daqiqa
5	Mustaqil ish (118- mashq)	5 daqiqa
6	Yangi leksik matn ustida ishlash (116-mashq)	8 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uygavazifa: a) matnni so'zlab berish, unga mos sarlavha qo'yish; b) 118- mashqni yozma bajarish; c) „Uch o'g'il“ haqidagi rivoyatni qayta o'qib kelish	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars yangiliklar haqidagi axborotlarni eshitishdan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi doskaga talaffuz mashqlari uchun tayyorlangan fonetik jadvalni ilib qo'yadi. Takroriy va ketma-ket kelgan unli tovushli so'zlar talaffuzi. O'qituvchi bunday so'zlar arab tilidan o'zlashgan so'zlar ekanligi haqida tushuncha berib, jadvalda yozilgan quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatadi: *maorif, muattar, saodat, muallim, qiroat, matbaa, soat*. O'quv-

chilarga jadvalda yozilgan so'zlar birma-bir o'qitiladi va ular ishtirokida 1 tadan so'z birikmasi tuzdiriladi.

So'ngra avvalgi darslar mavzusi va o'tilgan grammatik qoidalar bo'yicha savollar beriladi. Savol-javoblar yordamida o'tilgan mavzu va grammatik qoidalar takrorlanadi.

Shunda o'qituvchi o'quvchilarni sabab munosabatini ifodalovchi konstruksiyalar bilan tanishtiradi, darslikda bu haqda berilgan ma'lumot va chizmalarga o'quvchilar diqqatini jalb etib, kelishik qo'shimchasi va ko'mak-chilarning o'zaro sinonim bo'lib kela olishini misollar bilan ko'rsatadi. „Yodda tuting“ rukni va 117- mashqdagi gaplarni sinonimlaridan foydalaniib, bir necha xil shaklda ayttirish va doskadagi chizmaga moslab yozdirish o'quvchilar nutqini ko'makchili va kelishikli birikmalar sinonimiyasini chuqur o'zlashtirishlariga yordam beradi. Jumladan, ushbu mashq quyidagicha bajartirilishi mumkin:



118- mashq topshirig'i esa o'quvchilarga mustaqil ish sifatida berilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar bu mashqni bajarayotganlarida o'qituvchi, albatta, parta oralab yurib, ularga maslahat berib borishi, ularning yozayotgan gaplarini kuzatib tekshirib turishi zarur.

116- mashqda tavsiya etilgan matn bilan o'quvchilarni darsning 2- qismida tanishtirish ham mumkin. Bunda ushbu matn avvalo o'quvchilarning o'zlariga birma-bir o'qitiladi, so'ngra matn ustida ishlash jarayoni boshlanadi.

O'qituvchi mashqdagi ayrim gaplarni o'zi tushuntirishi, ayniqsa Alisher Navoiy baytining mazmunini yaxshilab sharhlab berishi lozim.

☞ **Uyga vazifa:** mashq oxiridagi topshiriq, shuningdek, 4- mashqdagi maqollarni yod olish.



55- DARS

INSONDAN XOTIRA QOLADI

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarni hamisha ezgu ishlar qilishga, bir-biriga yaxshilik qilishga o'rgatish; sabab ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplarning tuzilishi bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni yaxshi insonlarni xotirlashga, tiriklarni esa qadrlashga o'rgatish.

Darsning jihozlanishi: darslik, grammatik jadval, mangu barhayot insonlar haqida lavhalar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	O'tilgan grammatik qoidani so'rash va 118- mashq tahlili	7 daqiqa
3	Uyga berilgan matn yuzasidan suhbat	5 daqiqa
4	Yangi grammatik ma'lumotni tushuntirish	5 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash (120- mashq)	5 daqiqa
6	„Mangu barhayot siymolar“ haqida suhbat, „Uch o'g'il“ rivojati tahlili	18 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa: a) „Mangu barhayot siymolar“ mavzusida ijodiy insho yozib kelish; b) „Uch o'g'il“ rivojati matniga savollar tuzib kelish	2 daqiqa

Darsning borishi: yangiliklar haqida axborotlar ting-

Darsning ilgan grammatik qoida va shu yuzasidan berilgan 118- masnq tekshirib chiqiladi. So'ngra uyga berilgan matn yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Matnga o'quvchilar tanlagan sarlavhalar ham o'qib eshitiriladi va eng yaxshilari doskaga yozdiriladi. Shundan so'ng yangi mavzuga o'tiladi. Dars avval

grammatik ma'lumotlarni tushuntirishdan boshlangani ma'qul. O'qituvchi sabab munosabatining qo'shma gaplar orqali ifodalanishi, bunday gaplar qanday konstruksiyalardan iboratligi haqida ma'lumot beradi va darslikda berilgan chizmalarni o'quvchilarning daftarlariga ko'chirtiradi. 120- mashq avval og'zaki, so'ngra yozma tarzda bajartiriladi. Bunda o'quvchilar nuqtalar o'rniغا zarur bog'lovchi vositalarni qo'yib, gaplarni to'ldirishlari va gapning ma'nosini tushuntirib berishlari kerak.

So'ngra o'qituvchi doskaga „Mangu barhayot siymolar“ deb yozadi va ibratli hayoti bilan, xalqi, yurti uchun qilgan xizmatlari bilan odamlar xotirasida mangu qolgan insonlar haqida so'zlab beradi. Shundan keyin o'quvchilarga „Uch o'g'il“ rivoyatining mazmuni so'zlatiladi. O'quvchilar o'g'llarning o'z otalariga munosabati, ota-onani haqiqiy hurmat-izzat qilish qanday bo'lishi haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Uy vazifalarini to'liq bajarib kelgan va rivoyatni muhokama qilishda faol qatnashgan o'quvchilar baholanganach, uyg'a vazifa topshiriladi.

☞ *Uyga vazifa:*

- „Mangu barhayot siymolar“ mavzusida ijodiy insho yozib kelish;
- „Uch o'g'il“ rivoyatiga savollar tuzib kelish.

56- DARS

XOTIRA VA QADRLASH KUNI

 **Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarga „Xotira va qadrlash kuni“ haqida, bu kunda nimalar qilish kerakligi haqida ma'lumot berish; sabab munosabatidagi sodda va qo'shma gaplarning o'zaro sinonim bo'lib qo'llanishini tushuntirish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga o'tganlarni xotirlash va insonlarni hayotlik paytlarida qadrlash insoniy fazilat ekanligini singdirish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, lug‘at, barhayot siymolar haqida xotira lavhalari, grammatik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	O‘tilgan grammatic qoidalarni takrorlash (jadvallar yordamida)	5 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish. („Mangu barhayot siymolar“ haqidagi uy insholarini o‘qitish)	8 daqiqa
3	Yangi grammatik ma’lumot	7 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash (121- mashq)	5 daqiqa
5	„Zaif qator“ o‘yini	15 daqiqa
6	O‘quvchilar bilimini baholash va uygazifasi: „Цена минуты“ matnini o‘zbek tiliga o‘girish	5 daqiqa

 **Darsning borishi:** uy vazifasi o‘qitib va daftarlarni ko‘rib tekshirilgach, o‘quvchilar diqqati yana grammatik ma’lumotga qaratiladi. O‘qituvchi o‘zbek tilida sabab munosabatini ifodalovchi sodda va qo’shma gaplarning o‘zaro sinonim bo‘lib qo’llanishi ham mumkinligini aytib, 1—2 ta misollarni doskada izohlab ko‘rsatadi. So‘ngra 121- mashq bajartiriladi. Bunda avval o‘quvchilar gapdagi sabab ma’nosini ifodalovchi vositalarni aniqlab chiqadilar, keyin har bir gapga sinonimik konstruksiyalar tuzadilar. Mashqni taxminan quyidagicha bajarish ko‘zda tutiladi:

1. *Halima juda xafa edi, shuning uchun indamay ishini davom ettirdi. Halima xafaligidan indamay ishini davom ettirdi.* (birinchi gap - qo’shma gap, ikkinchi gap - sodda gap).

2. *To‘riq ot tashnaligidan shoshib-pishib suvga o‘zini urdi. To‘riq ot tashna edi, shuning uchun shoshib-pishib suvga o‘zini urdi.* (birinchi gap - sodda gap, ikkinchi gap - qo’shma gap).

122- mashqni doskada bajartirish va grammatik vositalarni chizib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bunda ayniqsa nofaol, o'zlashtirishi bo'sh bo'lgan o'quvchilarni ko'proq jalg etish kerak.

124- mashqni „Zaif halqa“ o'yini tarzida tashkil etilishi mumkin. Mashq topshirig'iga ko'ra o'quvchilar tabiat hodisalarini kuzatib, yuz berayotgan o'zgarishlarning sabablarini aniqlashlari va ularni o'zbek tilida ifodalab berishlari kerak. O'qituvchi musobaqada barcha o'quvchilar qatnashishlari shartligini va bunda tezkorlik talab etilishini, takror bo'lmasligini aytib, o'yinni boshlaydi. O'quvchilar qatorlar bo'yicha birinchi partadan boshlab, Nima bo'lsa, nima bo'ladi? Nima nima sababli yuz beradi? kabi savollardan biriga javob berib borishlari kerak. Har bir javob komandaga ochko keltiradi. Kim noto'g'ri javob bersa yoki javob topolmay to'xtab qolsa, ballar orasida uzilish yuz beradi va to'plangan ballar yo'qotiladi.

Bunday o'yinlar o'quvchilarni tezkorlikka, mustaqil fikrlashga, grammatik ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirishlariga va ayni paytda boshqa fanlardan o'lgan bilimlarini mustahkamlashga ham yordam beradi. Ayni paytda dars ham barcha o'quvchilar ishtirok etgan holda qiziqarli va quvnoq o'tadi. O'quvchilarning har xil savolni tanlashi va turli mavzularda matn tuzib kelishlari keyingi dars mavzusini qiziqarli va sermazmun o'tishiga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilardan ushbu topshiriqning bajarilishini so'rар ekan, ayni paytda tuzilgan matndagi payt, o'rin, sabab munosabatini ifodalovchi so'zlar va grammatik vositalarni ko'rsatib berishni ham talab qilib borsa, o'tilgan darslarning mavzulari ham mustahkamlanib boriladi.

☞ *Uyga vazifa:* 126-mashqdagi savollardan biriga kichik insho tarzida javob yozib kelish.



57- DARS

VAQT – OLTINDAN QIMMAT

Darsning ta'limiy maqsadi: „Vaqtning bahosi“ matni va „Vaqt“ she'rlari bilan tanishtirish; o'tilgan grammatik qoidalarni takrorlash.

Darsning tarhiyaviy maqsadi: o'quvchilarni vaqtini qadrlashga, har daqiqani bekorchilik bilan o'tkazmaslikka chorlash.

Darsning jihozlanishi: darslik, lug'at, G'. G'ulomning she'rlar to'plami, grammatik va fonetik jadvallar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish: 1) ijodiy inshoni o'qitish; 2) grammatik qoidani so'rash	15 daqiqa
3	„Цена минуты“ matnini tarjima qilish	20 daqiqa
4	„Vaqt“ she'rini o'qitish	5 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi: dars yangiliklar haqida axborot, uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzular bo'yicha grammatik ma'lumotlarni so'rash bilan boshlanadi. O'qituvchi barcha o'quvchilarni so'rab baholagunga qadar, boshqalar zerikib qolmasliklari va vaqtidan unumli foydalanish maqsadida „Цена минуты“, matnini o'zbek tiliga o'girish topshiriladi. Matnnning xomaki tarjimasi tayyor bo'lgach, o'quvchilar matn so'ngidagi vaqt qadri tushunchasini tushunib yetishga qaratilgan savollarga javob beradilar. „Vaqt qadri“ tushunchasi to'g'risidagi suhbatdan so'ng adabiy o'qish uchun

berilgan akademik shoir G‘afur G‘ulomning „Vaqt“ she’ri o‘qitiladi.

Uyga vazifa: Ushbu she’rni yod olish, uning mazmunini so‘zlab berish va savollarga yozma javob berish.

XIII MAVZU: MA’NAVIYAT SABOQLARI

Ma’lumki, Sharq xalqlarida ota-onaga hurmat, ahillik, yaxshilik, kamtarlik, xushmuomalalik, halollik kabi insoniy fazilatlar juda qadrlanadi. Ulug‘ allomalarimizning bu haqdagi aytgan aforizmlari, xalqimiz tomonidan uzoq yillar davomida sayqallanib kelinayotgan hikmatli so‘zlar, ibratli rivoyatlar, maqol va matallar milliy ma’naviy qadriyatlarimiz sifatida avloddan avlodga o’tib kelmoqda. „Ma’naviyat saboqlari,, mavzusida o‘quvchilarga ana shu insoniy fazilatlarni singdirish nazarda tutilgan. Ayni paytda shart va to’siqsizlikni ifodalovchi gap qurilmalari orqali (Nima bo‘lsa, nima bo‘ladi? Nima bo‘lsa ham, nima bo‘lmaydi?) hayotda yaxshilik va yomonlikning oqibatlari qanday bo‘lishi ta’kidlanadi. Ushbu mavzu 4 yoki 5 darsda bo‘lib o‘rganiladi.



58- DARS

OTA-ONANI HURMAT QILISH

 **Darsning ta’limiy maqsadi:** farzandning ota-onasi oldidagi burchlarini o‘rgatish; o‘zbek tilidagi shart ma’nosini ifodalovchi grammatik va leksik vositalarni o‘rgatish.

 **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarga ota-onaga hurmat, sharqona milliy ma’naviy qadriyatlarni e’zozlashni o‘rgatish.

 **Darsning jihozlanishi:** darslik, lug‘at, „Qobusnama“, „Ma’naviyat darsligi“, „Hikmatlar“ va boshqa kitoblar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot; b) uy vazifasi: „Vaqt“ she'rin yoddan so'rash	10 daqiqa
2	Sabab munosabatini ifodalash bo'yicha takrorlash	5 daqiqa
3	Ma'naviyat saboqlari bo'yicha suhbat	2 daqiqa
4	„Ota-onani hurmatlash“ matni ustida ishlash	12 daqiqa
5	Yangi grammatik ma'lumot	7 daqiqa
6	Yangi mavzuni mustahkamlash	7 daqiqa
7	Uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** yangiliklar haqida axborotlar va uygan olish uchun berilgan G'. G'ulomning „Vaqt“ she'ri so'rab baholangach, o'qituvchi bugundan boshlab yangi mavzu „Ma'naviyat saboqlari“ mavzusi bo'yicha darslar o'tilishi, bunda, Sharq mamalakatlari xalqlarining milliy ma'naviy urf-odatlari bilan yaqindan tanishilishi haqida suhbat tashkil etadi. Bunda mavzu boshida berilgan savollardan ham foydalananish mumkin. So'ngra o'quvchilar diqqati „Ota-onani hurmatlash“ matniga qaratiladi.

127- mashqda „Qobusnomalar“dan olingan matnda ota-onani hurmatlashga doir o'gitlar berilgan. O'quvchilarga aqli farzand qanday bo'lishi kerakligini yaxshilab singdirish uchun mashqdagagi har bir gap rus tiliga o'girtiriladi. Ayni paytda o'zbekcha va ruscha grammatik konstruksiyalar qiyoslantirilib, qanday grammatik ma'no ifodalananayotgani so'raladi. Chunonchi:

1. Agar farzand aqli va dono bo'lsa, har doim ota-onasining mehr haqini ado etadi.

(Если ребенок будет умным и)

2. Ota-onangizni ranjitsangiz, yaxshi farzand hisoblanmaysiz.

(Если вы обидете)

O'quvchilar rus tilidagi gaplarda shart ma'nosini ifodalayotganligini aytib, har bir gapning o'zbekcha qurilmasiga qiyoslaydi. Ushbu mashq shu tarzda o'rganib chiqilgach, o'qituvchi o'quvchilar diqqatini grammatik qoidaga qaratadi. Unda o'zbek tilida shart ma'nosini ifodalovchi grammatik vosita -*sa* qo'shimchasining qo'shma gaplar tarkibida qo'llanishi ko'rsatilgan. O'quvchilar ushbu ma'lumot va *agar*, *agarda*, *mabodo* so'zлari va ularning qo'llanishi haqidagi ma'lumot bilan tanishadilar, so'ng avval 128- mashq og'zaki, 129- mashq yozma bajartiriladi. Ushbu grammatik bilimlar bilan tanishtirilgach, yana bir marta 127- mashq matni ustida ishslash mumkin. Mashqdan gaplardan shart maylidagi fe'llarni aniqlatish va har bir gapdagi shartlilik ma'nosini tahlil qilib chiqish orqali ushbu matndagi o'gitlar o'quvchilar ongiga chuqur singdiriladi. Shuningdek, har bir gapga savol tuzdirish orqali matn ustida savol-javob o'tkazish ham mumkin.

☞ *Uyga vazifa:* 129- mashqning davomi va Mahmud Koshg'ariy hikmatlarini yod olib kelish.



59 - DARS

INSONIY FAZILATLAR



Darsning ta'limiylar maqsadi: o'quvchilarni sharq donishmandlarining hikmatlari bilan tanishtirish; shart maylidagi fe'llarning tuslanishini takrorlash.



Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga ahillik, yaxshilik, kamtarlik kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni singdirish.



Darsning jihozlanishi: darslik, grammatik va fonetik jadvallar, Mahmud Koshg'ariy va boshqa allomalarining hikmatlari, Yusuf Xos Hojibning „Qudatg'u biling“ asari.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) yangiliklar haqida axborot b) talaffuz mashqlari	3 daqiqa 5 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash: a) hikmatlarni yod aytish; b) 129- mashqni tekshirish	7 daqiqa 3 daqiqa
3	O'tilgan grammatik mavzu bo'yicha savol-javob	5 daqiqa
4	„Yodda tuting“ rukni bilan tanishish	5 daqiqa
5	Shart maylidagi fe'lllar tuslanishini takrorlash	7 daqiqa
6	Grammatik ma'lumotni mustahkamlash (130, 131- mashqlar)	10 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars yangiliklar haqida axborot va talaffuz mashqlari bilan boshlanadi. So'ngra uy vazifasi o'qitib tekshirib chiqilgach, Mahmud Koshg'ariy hikmatlari yoddan ayttiriladi. Ayni paytda har bir hikmatning mazmuni tahlil qilib chiqiladi va ularidan qaysi biri shart ma'nosini ifodalashi, bunda qanday grammatik vositalardan foydalanilganligi tahlil qildiriladi. Shart maylidagi fe'llarning tuslanishi bilan o'quvchilar quyi sinflarda tanishganlar, ana shu grammatik bilimlarni mustahkamlash uchun yana bir marta shart maylidagi fe'llarning tuslanish jadvali ham berilgan.

Ushbu grammatik ma'lumotni mustahkamlash uchun 130- va 131- mashqlar avval og'zaki, so'ng yozma bajartiriladi. So'ngra shart mayli qo'shimchasi sodda gaplarga qo'shilib kelganda istak ma'nosini, qo'shma gaplarda esa shart ma'nosini ifodalashi tushuntirilib, 131- mashq bajartiriladi. Keyin adabiy o'qish uchun berilgan Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ asaridan parcha o'qitiladi. Bu mumtoz asar bo'lgani uchun, o'qituvchi har satrning ma'nosini

o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. Ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, xalqimizda avloddan avlodga o'tib kelayotgan ota-onasi va farzand o'rtasidagi munosabat, hurmat, e'zoz, qadr-qimmat kabi yuksak insoniy fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi bilib olish va ularni davom ettirish haqida suhbat yusushtiriladi va 14- mashq - „Insoniy fazilatlar“ mavzusida kichik insho yozib kelish topshiriladi.

Uyga vazifa: ushbu she'riy matnni yaxshilab o'qib kelish va 5-mashqdagini savollarga yozma javob yozish.



60 - DARS

MA'NAVİYAT SABOQLARI (2 soatga mo'ljallangan)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga milliy qadriyatlarmiz, odob-ahloq me'yorlarini, o'zbek tilidagi qarama-qarshilik va to'siqsizlik ma'nolarini ifodalovchi nutqiy konstruksiyalarni o'rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga sharqona axloq-odob me'yorlarini singdirish.

Darsning jihozlanishi: darslik, grammatik jadvallar, Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib devonlari, hikmatlar, xalq maqollari to'plamlari.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: hafta yangiliklari haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash: „Insoniy fazilatlar“ mavzusidagi uy inshosini o'qish	10 daqiqa
3	O'tilgan grammatik mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi grammatik qoida bilan tanishish	10 daqiqa
5	Mustahkamlash mashqlari	7 daqiqa

6	Mustaqil ish (kartochkalar bilan ishlash)	8 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** darsning boshida hafta yangiliklari haqida axborotlar eshitilgach, „Insoniy fazilatlar“ mavzusidagi uy insholari o'quvchilarga o'qitib tekshiriladi. So'ngra o'tilgan grammatik mavzu: shart ma'nosining ifodalanishi, shart maylidagi fe'llarning tuslanishi 5- mashqdagagi savollarga javoblarni o'qitish orqali takrorlab olinadi. So'ngra yangi grammatik qoida bilan tanishtiriladi.

O'quvchi o'zbek tilida **-sa** shart mayli qo'shimchasi juda faol bo'lib, u yuqorida ko'rsatib o'tilgan shart, istak ma'-nolaridan boshqa yana ko'p ma'nolarni, jumladan, to'siqsizlik ma'nosini ifodalashda ham xizmat qilishi haqida to'xtalib o'tib, o'quvchilar diqqatini 2-grammatik qoidaga qaratadi. Ushbu qoida o'quvchilarning o'zlariga o'qitiladi, so'ngra to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi gaplarning konstruksiyalari chizmasi doskada chizib ko'rsatiladi. Qo'shma gaplar tarkibidagi **-sa ham, -sa, -da, -ga qaramay** qo'shimchalarining qo'llanishi, **-masdan** qo'shimchasining bo'lishsizlik shakli ekani o'qituvchi tomonidan yaxshilab tushuntirilishi va o'quvchilar ushbu chizmalarni o'z daftarlariga ham yozib olishlari kerak.

Grammatik qoidani mustahkamlash uchun 132- mashq og'zaki bajartiriladi, 135- mashq topshirig'ini mustaqil ish sifatida bajartirish va alohida baholash maqsadga muvofiq.

 **Uyga vazifa:** darslikdagi „Ma'naviyat saboqlari“ ruknida berilgan matnlar, adabiy o'qish matni va mustaqil o'qish uchun berilgan ilovadan Yusuf Xos Hojib haqidagi ma'lumotni o'qib kelish.



61 - DARS

MA'NAVIYAT SABOQLARI

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Og'zaki savol-javoblar	10 daqiqa
2	Zukkolar musobaqasi	10 daqiqa
3	Yodda tuting	5 daqiqa
4	Mustahkamlash mashqlari	5 daqiqa
5	Tarjima matni ustida ishlash	10 daqiqa
6	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa ("Dutor" matnini o'zbek tiliga o'girish)	5 daqiqa



Darsning borishi: 2- dars olingan grammatik bilimlarni mustahkamlash darsi bo'lib, og'zaki savol-javobdan so'ng 136- mashqdagi maqollarning davomini o'z o'rniغا qo'yish guruuhlar musobaqasi tarzida o'tkazilishi ham mumkin. Bunda sinf va doska o'rtadan 2 ga bo'linadi va har bir tomonidan o'quvchilar navbatma navbat chiqib, doskada o'z qismiga maqollarni to'g'ri shaklda yozib o'tirishlari kerak. Qaysi tomon tez va to'g'ri yozib tugatsa, o'sha tomon g'olib bo'ladi. 135- mashqni ham shu tarzda bajartirish yoki ayrim o'quvchilarga kartochka sifatida topshirilishi ham mumkin. Shu tarzda o'tilgan mavzu takrorlanib va mustahkamlanib olingach, o'quvchilar diqqati „Yodda tuting“ ruknida berilgan to'siqsizlik ma'nosidagi gaplarda ma'noni kuchaytirish uchun qo'llanadigan **garchi**, **garchand** bog'lovchilari haqida ma'lumotga jalb etiladi. Ana shundan keyingina 134- mashq bajartirilsa, maqsadga muvosiq bo'ladi. Ushbu mashq topshirig'iga ko'ra rus tilidagi gaplar o'zbek tiliga o'girilishi kerak. O'quvchi gaplarni tarjima qilish jarayonida rus va o'zbek tillarini qiyoslab, rus tilidagi **xoma** so'zining o'zbek tilida garchi, garchand so'zları bilan tarjima

qilinishi, ushbu so‘zlarning ma’nolari va qo’llanish o‘rnini haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Ushbu darsda ma’naviyat saboqlari bo‘yicha „Salom kimga va qachon berilmaydi?“ mavzusida suhbat o’tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, darslikda berilgan 5 ta qoidaning har biri alohida o‘rganiladi. Buning uchun o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida har bir qoidaga, odatga amal qilinmasa, nima bo‘lishi, ya’ni „Agar kimdir shu qoidaga rioya qilmasa, ... bo‘ladi“, „Garchi ... sa-da, ... bo‘ldi“ konstruksiyasida bir nechtadan gaplar tuzadilar. Shu tarzda har bir axloq-odob qoidasi o‘quvchilarga singdirib boriladi va ayni paytda avvalgi darslarda o‘tilgan o‘zbek tilidagi shart ma’nosini va to‘siksizlik ma’nolarini ifodalovchi gap qurilmalaridan foydalananiladi va o‘tilgan mavzular yana bir bor mustahkamlanadi. Bunday suhbatlar, savol-javoblar o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishga, ularga sharqona va umuminsoniy axloq-odob me’yorlarini singdirishga yordam beradi. Ushbu og‘zaki suhbatdan so‘ng har bir qoida bo‘yicha tuzilgan eng yaxshi gaplarni daftarga yozdiriladi. Matndagi shart va to‘siksizlik ma’nolarini ifodalovchi gaplarni tahlil qilish orqali matn yana bir bor takrorlab chiqiladi.

☞ *Uyga vazifa*: „Dutor“ matnini o‘zbek tiliga o‘girib kelish va so‘zlab berish.



62 - DARS

NON QADRI

☰ *Darsning ta’limiy maqsadi*: a) o‘quvchilarning og‘zaki nutqlarini o‘stirish, tilga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish; b) lug‘at ishi.

⌚ *Darsning tarbiyaviy maqsadi*: a) o‘zbek xalqining urfatatlari bilan yaqindan tanishtirish; b) ularga sharqona axloq-odob me’yorlarini singdirish.

📋 *Darsning jihozlanishi*: darslik, mavzuga oid turli qoshimcha materiallar, rasmlar.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: a) Xotira va qadrlash kuni haqida suhbat; b) savol-javoblar	3 daqiqa
2	Uy vazifasini so'rash: muomala odobiga oid o'gitlarni va tarjima matnini so'rash	10 daqiqa
3	O'tilgan grammatik mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzu; „Non qadri“ matni bilan tanishish	10 daqiqa
5	Matn bo'yicha savol-javoblar	8 daqiqa
6	Mavzuni mustahkamlash; 139- mashqni bajartirish	7 daqiqa
7	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	2 daqiqa

 **Darsning borishi:** dars boshida o'quvchilar bilan yaqinlashib kelayotgan „Xotira va qadrlash kuni“ haqida suhbatlashish; o'zaro savol-javoblar o'tkazish kerak.

O'quvchilardan uygaga berilgan vazifani: Kimga va qachon salom berilmaydi? rukni ostida berilgan o'gitlarning mazmunini o'z ona tillarida tushuntirib berishlarini so'rash, daftarlарини tekshirib chiqish.

134- mashqdagи gaplarni o'zbek tiliga tarjima qildirish va to'siqsizlik ma'nosining ifodalanishini qiyoslatish, bir vaqtning o'zida 136- mashqdagи gaplarni doska yoniga 3—4 o'quvchini chiqarib yozdirish, mazmunini so'rash.

Yangi mavzu: „Non qadri“ matnidagi yangi so'zlarni o'quvchilarga tushuntirish, ularni gaplarda qo'llash. Namuna: *non burdasi — кусок хлеба. Men nonushtada I burda non eyman, I piyola shirin choy yoki sut ichaman.*

Matnni o'quvchilarga o'qitish, uning qisqacha mazmunini so'rash.

Matn bo'yicha o'quvchilarga savollar berish, ularning o'zaro suhbatini tinglash.

Yozma ravishda 139- mashqni bajartirish. O'quvchilar bilimini baholash.

☞ *Uyga vazifa*: „Non qadri“ matnining mazmunini o'zbek tilida so'zlab berishga tayyorlanib kelish.



63 – 64 - D A R S L A R

O'tilganchalar takrorlash (2 soat)

„Ma'naviyat saboqlari“ juda keng mavzu bo'lib, har bir darsning ma'lum bir bosqichida o'tkazilib borishi kerak. Shuni e'tiborga olgan holda darslikning oxirida „Ma'naviyat saboqlari“ bo'yicha ayrim qo'shimcha materiallar ilova qilindi. Jumladan, ushbu ilovada do'stlashish odobi haqida „Takabbur bo'lma“ she'ri, ayniqsa, Navro'zga bag'ishlangan Navro'z udumlari, Navro'z ko'ktalari kabi qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ular bilan tanishish o'quvchilarning ma'naviyatini yanada boyitishga, bilimini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu ma'lumotlardan har xil mavzularda darslarning ma'lum bir bosqichida foydalanish yoki agar maktablarda tashkil etilgan bo'lsa fakultativ darslarda foydalanish ham mumkin. Jumladan, Navro'zga bag'ishlangan mavzu bo'yicha takrorlash va mustahkamlash darslarini yoki qo'shimcha fakultativ darsini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

O'qituvchi o'quvchilarga avvalroq Navro'z ko'ktalariga bag'ishlangan she'rlarni yod olib kelishni topshiradi, shuningdek, „Navro'z udumlari“ bo'yicha berilgan „Navro'z taomlari“ materialini ham ularga qism-qismlarga bo'lib gapirib berishga tayyorlanib kelish topshiriladi. Fakultativ mashg'ulot boshida o'qituvchi ushbu dars Navro'z mavzusiga bag'ishlanishini, bugungi qo'shimcha mashg'ulotda o'quvchilar Navro'z haqida yanada chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishlarini ma'lum qiladi. So'ngra Navro'z so'zining ma'nosini haqida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

— Bolalar, ayting-chi, *Navro'z* so'zi qanday ma'noni anglatadi?

— Nima uchun Sharqda yangi yil — *Navro'z* bahorda kutib olinadi?

— *Navro'z* bayrami, *Navro'z* kunlari bilan bog'liq qanday urf-odatlarni, udumlarni bilasiz?

O'quvchilar qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanib, ushbu savollarga javob beradilar.

So'ogra *Navro'z* bahor bayrami ekanligi, bahorda unib chiqadigan dorivor ko'katlar haqida to'xtalinib, „Isma-loq“, „Ravoch“, „Yalpiz“ she'rlari yordamida ushbu ko'katlarning foydasi, ularning qo'llanilishi haqida suhbatlashiladi. Keyingi fakultativ mashg'ulotga ushbu ko'katlardan olib kelish, shuningdek, ular qo'shib tayyorlanadigan taomlar qanday tayyorlanishi haqida qo'shimcha ma'lumotlardan o'qib, gapirib berishga tayyorlanib kelish topshiriq sifatida beriladi. Keyingi dars — „*Navro'z* taomlari“ darsida sumalak, ko'k chuchvara, ismalоq somsa taomlarini qanday tayyorlash, nima sababdan ular har yili *Navro'z* paytida albatta tayyorlanishi, ularning inson organizmiga, sog'ligiga foydasi kabi mavzularda suhbat tashkil qilinadi.

Bunday darslar o'quvchilar bilimini chuqurlash-tirishga, ularning nutqini o'stirishga, qo'shimcha adabiyotlar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ayni paytda boshqa fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlashga, amalda tatbiq qilishga yordam beradi.

Qo'llanmaning „O'tilganlarni takrorlash“ bo'yicha berilgan ilova qismida yana shu kabi ko'p qiziqarli mashqlar ham berilgan. Chunonchi, „Salomlashish odobi haqida“, „Yaxshi o'qishning siri nimada“, „Navoiyning yoshligi“ haqidagi matnlar bular orqali nafaqat o'quvchilarning nutqi va bilimi o'stiriladi, balki o'quvchilarning dunyo-qarashi kengaytiriladi, ularda ijodkorlik, mustaqil fikrlash qobiliyati ham rivojlantiriladi.

MUNDARIJA

So'z boshi 3

I Mavzu: MUSTAQIL O'ZBEKISTON — MENING VATANIM	
1- dars. Istiglol darsi	10
2- dars. Toshkent — O'zbekistonning poytaxti	13
3- dars. O'zbek xalqi — bolajon xalq	16
4- dars. Muqaddas Vatanim	19
5- dars. O'tilganlarni takrorlash	22

II Mavzu: BILIM BAXT KELTIRAR

6- dars. Olim kim?	22
7- dars. Inson qadri bilimda	25
8- dars. Inson qadri bilimda	26
9- dars. Kitob o'qishning hikmati	29

III Mavzu: PAXTA — MILLIY BOYLIGIMIZ

10- dars. Oltin kuz	31
11- dars. Paxta — bizning boyligimiz	33
12- dars. Zulfiya xonardonida	35
13- dars. Paxtakor mehnati	38
14- dars. O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash	41

IV Mavzu: TIL BILGAN — EL BILADI

15- dars. Tilga e'tiborsiz — elga e'tiborsiz	42
16- dars. O'zbek tili O'zbekistonning davlat tilidir	45
17- dars. Ko'p til bilishning xosiyati	48
18- dars. „Qalam qanday ixtiro qilingan“	50
19- dars. O'tilganlarni takrorlash	52

V Mavzu: DO'ST BILAN OBOD UYING

20- dars. Do'stlik	56
21- dars. „Do'st bilan obod uying“	57
22- dars. Hamma vaqt do'st tutmoqlikni odat qil	60
23- dars. Maqtanchoqlik — zaratli odat	62
24- dars. Nima eksang, shuni o'rasan	64

VI Mavzu: VIJDON VA BURCH

25- dars. Burch nima?	66
26- dars. Vatanni sevmoq iymondandir	69
27- dars. Sadoqat va vasodorlik	72
28- dars. Amir Temur o'gitlari	75
29- dars. O'tilganlarni takrorlash	77

VII Mavzu: BUYUK ALLOMALARIMIZ

30- dars. Movarounnahr — allomalar yurti	78
31- dars. Abu Ali ibn Sino	80
32- dars. Rasm asosida matn tuzish	83

33- dars. Muso al-Xorazmiy	86
34- dars. Buyuk sohibqiron Amir Temur	88
35- dars. Mirzo Ulug'bek	90

VIII Mavzu: MEHNAT BAXT KELTIRAR

36- dars. Hashar	93
37- dars. Suv-hayot manbayi	96
38- dars. Zardo'zlik fabrikasida	98
39- dars. Mehnatning noni shirin	100

IX Mavzu: SPORT — SALOMATLIK GAROVI

40- dars. Alpomishlar yurtida alp yigitlar bellashuvi	102
41- dars. Sport turlari	106
42- dars. Dorbozlik	108
43- dars. Uch buyuk tabib	110
44- dars. Sport — salomatlik garovi	112

X Mavzu: O'LKAMIZDA NAVRO'ZI OLAM

45- dars. „O'rik gullaganda“	112
46- dars. Navro'z taomlari	115
47- dars. Onajonlar bayrami	117
48- dars. O'lkamizga navro'z keldi	119

XI Mavzu: O'ZBEKİSTON — QADIMIY SHAHARLAR O'LKASI

49- dars. Samarqand — Sharq durdonasi	121
50- dars. Buxoro — muzey shahar	124
51- dars. Xiva — tarixiy shahar	126
52- dars. Toshkent — Sharq mash'ali	127
53- dars. Zukkolar o'yini	130

XII Mavzu: INSONDAN XOTIRA QOLADI

54- dars. Yaxshi nom qoldirish katta baxt	131
55- dars. Insondan xotira qoladi	134
56- dars. Xotira va qadrlash kuni	135
57- dars. Vaqt — oltindan qimmat	138

XIII Mavzu: MA'NAVİYAT SABOQLARI

58- dars. Ota-onani hurmat qilish	139
59- dars. Insoniy fazilatlar	141
60- dars. Ma'naviyat saboqlari	143
61- dars. Ma'naviyat saboqlari	145
62- dars. Non qadri	146
63—64- darslar. O'tilganlarni takrorlash	148

**XADICHA SOBIROVNA MUHITDINOVA,
NIGORA TUROBOVNA IKROMOVA**

O'QITUVCHI KITOBI

*Ta'lism rus tilida olib boriladigan maktablarning
8- sinfi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma*

Toshkent— „Ilm-Ziyo“— 2004

Muharrir *H. Yusupova*
Rassom *Sh. Xo'jayev*
Musahhiha *M. Hoshimova*

2004- yil 29- sentabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma t. 9,5. Nashr. t. 9,5. 10000 nusxada bosildi.
Buyurtma №231.

„Ilm-Ziyo“ nashriyoti. Toshkent — 129. Navoiy ko'chasi, 30.
Sharhnomasi № 24—04.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
700128, Toshkent, U.Yusupov ko'chasi, 86. 2004-y.